

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI**

**Balgaeva Shaxida Abdisamatovna**

**O'ZBEKISTON QISHLOQLARIDA LANDSHAFT  
ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISH**

**( O'quv qo'llanma)**

**5340100 “Arxitektura”**

**Samarqand-2021**

**UDK 712.03.26**

**Balgaeva Sh.A.**

**O’zbekiston qishloqlarida landshaft arxitekturasini shakllantirish. O’quv qo’llanma. - Samarqand: SamDAQI, 2021. – 156 b.**

O’quv qo’llanmada qishloq landshaftlari arxitekturasiga qo’yiladigan umumiyl shaharsozlik talablari va qishloq landshaft arxitekturasi ob’yektlarining tipologiyasini ilmiy aniqlash; qishloq aholi punktlari hududlarini me’moriy-landshaft tashkillashtirish, ularda ko’kalamzorlar tizimini yaratish; qishloq landshaftlari arxitekturasida qo’llaniladigan o’simliklarni tanlash va yashil kompozistiyalarini yaratish usullarini takomillashtirish; cho’l, tog’ oldi va baland tog’li landshaft-iqlimiyl zonalaridagi qishloqlarda ko’kalamzorlar va landshaft tizimini yaratishning nazariy modellarini ishlab chiqish haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

O’quv qo’llanma landshaft arxitekturasi sohasida bilimlarni kengaytirish va boyitish bilan birga oliy ta’lim muassasalaridagi 5340100 “Arxitektura” ta’lim yo’nalishi bo’yicha o’qiyotgan bakalavrлarga mo’ljallangan bo’lib, qishloq aholi punktlari hududlarini me’moriy-landshaft tashkillashtirishdagi landshaft arxitekturasi loyiha yechimlarining sifatini oshirishga va ushbu sohada faoliyat ko’rsatayotgan mutaxassislar kasbiy saviyasini ko’tarishga yordam beradi.

**Mas’ul muharrir: arxitektura fanlari doktori, professor Uralov A.S.**

**Taqrizchilar:**

**Xudoyerova M.B.** – arxitektura nomzodi, Samarqand davlat arxitektura qurilish instituti dotsenti

**Usmanaev R.B.** - Samarqand shahar “Me’morqurilishloyiha” MChJ bosh arxitektori

SamDAQI, 2021

## **MUNDARIJA**

### **KIRISH**

#### **I–BOB. O’ZBEKISTON QISHLOQLARIDA LANDSHAFT ARXITEKTURASINING SHAKLLANISH JARAYONI**

- 1.1. O’zbekiston qishloqlari haqidagi umumiy ma’lumotlar
- 1.2. O’zbekiston qishloqlarida landshaft arxitekturasi va bog’dorchilikning shakllanish tarixi
- 1.3. O’zbekiston qishloqlarining sobiq ittifoq davridagi landshaft arxitekturasi
- 1.4. O’zbekiston qishloqlarining Mustaqillik yillaridagi landshaft arxitekturasi va dizayni

#### **II–BOB. QISHLOQ KO’KALAMZORLARI TIZIMI VA UNI LOYIHALASHNING ASOSIY TAMOYILLARI**

- 2.1. Qishloq landshaft arxitekturasi ob’ektlarining tipologiyasi va tarkibiy qismlari
- 2.2. Qishloq landshaftlari arxitekturasiga qo’yiladigan umumiy shaharsozlik talablarini shakllantirish
- 2.3. O’simliklar va ularning badiiy–manzaraviy xususiyatlari
- 2.4. O’simliklarning o’sish imkoniyatlari bo’yicha O’zbekiston hududining zona va tumanlarga bo’linishi
- 2.5. O’simliklarni tanlash, qishloq ko’kalamzorlari tizimi va ularni loyihalashning asosiy tamoyillari va vazifalari

#### **III–BOB. QISHLOQ HUDDULARINI ME’MORIY–REJAVIY VA LANDSHAFT TASHKILLASHTIRISH OMILLARI**

- 3.1. Qishloq turar joy hovlilarining landshaft arxitekturasi va dizayni
- 3.2. Qishloq ko’chalari va xiyobonlarining me’moriy–rejaviy va landshaft yechimlari
- 3.3. Ma’muriy va jamoat binolari, mahalla fuqarolar yig’ini markazi, ta’lim–tarbiya va tibbiyot muassasalari hududlarining me’moriy-rejaviy va landshaft yechimlari
- 3.4. Qishloq bog’–parklarining me’moriy–rejaviy va landshaft yechimlari

**NAZORAT SAVOLLARI**

**TEST SAVOLLARI**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

**ILOVALAR**

**GLOSSARIY** (asosiy atamalar lug’ati)

## **ОГЛАВЛЕНИЕ**

### **ВВЕДЕНИЕ**

#### **БОБ-І. Формирование ландшафтной архитектуры в селах Узбекистана**

- 1.1. Общая информация о сельских населенных пунктах Узбекистана
- 1.2. История формирования ландшафтной архитектуры и садоводства в сельских населенных пунктах Узбекистана
- 1.3.Ландшафтная архитектура сельских населенных пунктов Узбекистана в период бывшего Союза.
- 1.4. Ландшафтная архитектура и дизайн сельских населенных пунктов Узбекистана в годы Независимости.

#### **БОБ-ІІ. Система озеленения сельских населенных пунктов и основные принципы ее проектирования**

- 2.1.Типология и составные части объектов сельской ландшафтной архитектуры
- 2.2. Формирование общие градостроительные требования к архитектуре сельских ландшафтов.
- 2.3. Природные биологические особенности деревьев и кустарников
- 2.4.Разделение территории Узбекистана на зоны и районы по показателям адаптации и интенсивного роста зеленых насаждений
- 2.5. Выбор растений, система сельского озеленения и основные принципы и задачи их проектирования.

#### **БОБ-ІІІ. Факторы архитектурно-планировочной и ландшафтной организации территорий сельских населенных пунктов**

- 3.1. Ландшафтная архитектура и дизайн сельских жилых дворов
- 3.2. Архитектурно-планировочные и ландшафтные решения сельских улиц и скверов
- 3.3.Архитектурно-планировочные и ландшафтные решения территории административных и общественных зданий, центров схода граждан, учебных и медицинских учреждений.
- 3.4. Архитектурно-планировочные и ландшафтные решения сельских садово-парковых комплексов

### **КОНТРОЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ**

### **ТЕСТОВЫЕ ВОПРОСЫ**

### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ**

### **ПРИЛОЖЕНИЯ**

### **GLOSSARY (словарь основных терминов)**

## KIRISH

Mustaqillik yillarida Respublikamiz qishloqlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Qishloqlarda zamon talabiga mos namunaviy uy-joylar, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va boshqa inshootlarning yuzaga kelishi zamonaviy qishloq me'morchiligining kompleks tarzda rivojlanishidan dalolat bermoqda. Shu jihatdan bugungi kunda qishloq qiyofasini belgilab beruvchi muhim omillardan sanaladigan qishloq landshaft arxitekturasini yanada rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Jahan miqyosida landshaft arxitekturasidan oqilona foydalanish yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarda landshaft dizayni, qishloq aholi punktlari hududlarini obodonlashtirish va ko'kalamlashtirish ishlarining estetik saviyasini takomillashtirishda ushbu sohadagi me'yoriy hujjatlarning to'laqonli shakllantirilmaganligi, qishloqlarda landshaft arxitekturasini rivojlanirishning istiqbolli yo'nalishlari va ustuvor tamoyillari ilmiy jihatdan kompleks o'r ganilmaganligi natijasida bir qator muammolar yuzaga chiqmoqda. Qishloq landshaftlari arxitekturasini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, ularning shaharsozlik, arxitektura va landshaft yechimlari sifatini oshirishga yo'naltirilgan shaharsozlik talablari va qoidalarining ishlab chiqilmaganligi shular jumlasidandir.

Keyingi yillarda qishloqlarda turar joy qurilishi, arxitekturasi va shaharsozlik rejalahtirishga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar yuzaga keldi. Bu sohada Respublikada tanilgan yetuk mutaxassis olimlar M.Q.Ahmedov, A.V.Vetlugina, A.A. Mahkamov, K.M. Mirzaahmedova, V.I. Nemirovskiy, D.A. Nozilov, H.A. Salahuddinov, X.K.Tursunov, T.A.Xidoyatov, M.U. Umarov, A.S. Uralovlarning qator loyiha va ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega. Mazkur ilmiy ishlarda O'rta Osiyo respublikalari, xususan O'zbekiston qishloqlarida turar joy binolari arxitekturasining tipologiyasi, ularni loyihalash, qurish va foydalanish bo'yicha yig'ilgan ilg'or tajribalar, shuningdek xalq me'morchiligidagi an'analar, turar joy binolarining iqlim sharoiti har xil bo'lган tumanlar bo'yicha yangi zamonaviy tiplarni yaratish, ularning me'moriy va funksional yechimlarini, hajm-rejaviy parametrlarini takomillashtirishga bag'ishlangan qator amaliy takliflar berilgan.

Qishloq aholi punktlarining arxitekturasi, ularning hududlarini me'moriy-rejaviy va landshaft tashkillashtirish masalalariga bag'ishlangan bir qator ilmiy adabiyotlar mavjud. V.V. Artemenko, I.A. Vinshu, V.P. Gryazeva, O.K. Gurulev, A.V. Ikonnikov, G.I. Iskrjistiky, M.F. Kireeva, G.P. Maykovlarning asarlari shular jumlasidandir. O'zbekiston shaharlari va qishloqlarini ko'kalamzorlashtirish masalalari ustida I.E. Kuzmichev, V.P. Pechenistin, O.I. Podolskaya, T.I. Slavkina, A.K. Qayimovlar ishlagan. O'zbekistonda landshaft arxitekturasi va uning dizayni, bog'- parkchilik san'ati tarixi va ularni rivojlantirish sohasida ishlagan va ishlab kelayotganlar safida L.A. Adilova, U. Alimov, Sh.D. Asqarov, X.X. Kamilova, G.A. Pugachenkova, K.D. Raximov, K.D. Sattarova, T.Sh. Mamatmusaev, M.A. Yusupova, A.S. Uralov va boshqalarni ko'rish mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilarning sa'y-harakatlari bilan O'zbekistonning landshaft arxitekturasi, manzaraviy bog'dorchilik, gulchilik, dendrologiya, landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash sohasidagi ilm-fan rivoji ancha mustahkamlandi.

Ushbu qo'llanmada yuqoridagi dolzarb masalalar: qishloqlarda landshaft arxitekturasini shakllantirish va rivojlantirishning tarixiy-an'anaviy, tipologik, landshaft-ekologik, me'moriy-rejaviy, kompozition-landshaft yechimlari va me'moriy-loyihalash usullari; qishloq landshaft arxitekturasi ob'yeqtalarining tipologiyasi va qishloq aholi punktlari landshaft arxitekturasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi kompleks omillar; qishloq landshaftlari arxitekturasiga mos keladigan daraxtlar, butalar, gulzorlar va sun'iy suv havzalari hisobga olingan umumiyl shaharsozlik talablari; qishloqlarni ko'kalamlashtirish va ko'kalamzor muhitlarni yaratishda "shabboda samarasi" usulini qo'llash; turli xil tabiiy-iqlim va geografik sharoitlarda joylashgan qishloq aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirishda manzaraviy daraxtlarni tanlash metodikasi; Qishloqdagi umumiyl foydalanish va foydalanishi cheklangan ko'kalamzorlar hududlarini shaharsozlik, me'moriy-rejaviy va landshaft tashkillashtirishning nazariy va me'yoriy-loyihaviy mezonlari asoslab berilgan.

## **I–BOB. O’ZBEKISTON QISHLOQLARIDA LANDSHAFT ARXITEKTURASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI**

### **1.1.O’zbekiston qishloqlari haqidagi umumiy ma’lumotlar**

O’zbekistonda qishloqlar toifasiga aholisi 10 mingdan kam bo’lgan aholi punktlarini kiritish, aholisi 10 mingdan ziyod bo’lgan aholi punktlariga esa shahar maqomining berilishi nazarda tutilgan. Qishloq – bu aholisi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va qishloq xo’jaligining boshqa sohalarida band bo’lgan va, ayni paytda, aholi yashaydigan manzilgohdir. Qishloqlar hozirgi vaqtida umumiy bir boshqaruv markaziga – mahalla fuqarolik yig’inlari (MFY) ga ega bo’lgan, iqtisodiy va ijtimoiy hamda muhandislik tarmoqlari va transport infratuzilmasi jihatdan bir - biriga uzviy bog’langan aholi mavzelariga bo’lingan. O’zbekiston qishloqlarining aksariyati soylar, ko’l, ariq va daryo jilg’alari bo’ylarida, buloqlar qoshida yoki etagida joylashgan. Bu qishloq aholisining qishloq xo’jalik ekinlarini ekish, bog’dorchilik, poliz va sabzavotchilik bilan shug’ullanishiga imkon yaratgan.

Sanoatning rivojlanishi va urbanizastiya munosabati bilan dunyoda qishloq aholisining salmog’i shaharlar aholisidan kamaymoqda. O’zbekiston qishloqlaridagi aholi salmog’i esa aksincha, ortib bormoqda. Buning asosiy sababi O’zbekiston qishloqlarida aholining takror barpo bo’lish jarayonining shaharlardagiga nisbatan bir qadar jadal kechishidadir. 1970–80–yillarda O’zbekiston aholisining 60 % qishloqlarda yashagan.

Mustaqillik yillarida qishloq aholisining turmush tarzida ijobiy ko’rinishdagি keskin iqtisodiy–ijtimoiy o’zgarishlar sodir bo’ldi. Bu o’z navbatida O’zbekiston qishloq oilalarida ko’p bolalilikdan o’rtacha bolalilikka o’tish jarayoni ro’y berayotganini ko’rsatadi.

Respublikada qishloq aholisining o’sishiga aholi tabiiy ko’payishi ko’rsatkichlari (asosan, tug’ilish) ning ko’payishi ham sabab bo’lmoqda. Masalan, 1991–yilda mamlakat aholisining 59,5 %ni qishloq, 40,5 %ni shahar aholisi tashkil

etgan bo'lsa, 2004–yilda bu ko'rsatgich mos ravishda 63,5 % va 36,5 %dan iborat bo'ldi, ya'ni qishloq aholisi salmog'i 4,4 %ga oshgan.

Qishloqlardagi qishloq xo'jaligi-moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari olish uchun ekinlar ekish va chorva mollarini ko'paytirish bilan shug'ullanadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo'jalogining bir qancha tarmoqlarini xom ashyo bilan ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi yerlariga–xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqarish vositasi sifatida rejali va uzluksiz foydalaniladigan yer uchastkalari, ekinzorlar (haydalma yerlar), ko'p yillik ekinzorlar (bog'lar, rezavor meva maydonlari), pichanzorlar, yaylovlar hamda qo'riq–bo'z yerlar, tomorqa yerkari, ixota o'rmonzorlari, ko'p yillik ekinzorlar, pichanzorlar kiradi. Ko'p yillik ekinzorlarga esa ekilgan daraxtzorlar, butazorlar va o'tsimon o'simliklar (bog'lar, uzumzorlar, rezavor mevali maydonlar) bilan band bo'lган yer maydonlari kiradi.

Xalqimiz orasida “O'tmishi buyuk xalqning kelajagi buyukdir” degan naql bor. Zero millat o'z tarixini yaxshi bilmay turib ertangi kunini tasavvur qilishi qiyin. Ayniqsa, hozirgi Mustaqillik yillarda tariximizga yangicha qarashlar va fikrlashlar bilan yondoshilmoqda. O'ziga xos boy madaniy merosimizning o'rganilishi va o'zlashtirilishi sayin uning yangi–yangi qirralarini ochishimiz talab etilmoqda.

Ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan me'moriy obidalarimiz va bog'–park qurilishi san'ati o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining madaniy saviyasi nihoyatda yuqori darajada ekanligini ko'rsatib turibdi. Buni biz o'rta asrlar me'moriy ansamblari, madrasalar, maqbaralar, savdo inshootlari, “Chorbog” uslubidagi bog'– parklar, xiyobonlar va shu singari moddiy madaniyatimiz yodgorliklari misolida ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan uy–joy me'morchiligi sohasida ham bizgacha salmoqli meros yetib kelgan. Lekin istiqlolgacha bo'lган so'nggi o'n yilliklarda me'morchilik va landshaft arxitekturasi, xususan bog'– parkchilik sohasida o'tmish me'moriy an'analariga bir qadar e'tiborsizlik bilan qaraldi. Natijada yuzlab yillar mobaynida shakllanib kelgan me'moriy landshaft

an'analardan voz kechilib, bizga umuman begona, iqlim sharoitimizga mos kelmaydigan usullar qo'llanildi.

O'zbekiston qishloqlari haqidagi umumiy ma'lumotlarga to'xtaladigan bo'lsak (*1-rasm*), bugungi kunda aholisi 10 mingdan kam bo'lgan aholi punktlari, ya'ni qishloqlar soni jami 11 ming 794 tani tashkil qilib, ular aholisining soniga ko'ra 4 ta guruhga toifalangan, ya'ni kichik qishloqlar (aholisi 100 dan 1000 kishigacha), o'rtacha qishloqlar (aholisi 1000 dan 3000 kishigacha), katta qishloqlar (aholisi 3000 dan 5000 kishigacha) va yirik (aholisi 5000 dan ortiq) qishloqlarga bo'lingan.

Kichik qishloqlar respublikada 5856 tani yoki barcha qishloqlar sonining 50% ini, o'rta qishloqlar – 4511 tani yoki 38% ini, katta qishloqlar soni 105 tani yoki 9% ini, yirik qishloqlar esa 375 tani yoki 3% ini tashkil qiladi.

O'zbekiston aholisi 2013 yil 1 yanvar holati bo'yicha 29 million 994 ming 600 kishi bo'lgan bo'lsa, shundan qishloqlarda yashovchi aholi soni 2013 yilda 48,9 % ni, shaharlarda yashovchilar esa 51,1 % ni tashkil qilgan.

2020 yilning 1 iyul holatiga O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 34 million 191 ming 700 kishini tashkil etib, shundan 17 million 301 ming kishi shahar hududida (50,6 %) va 16 million 890 ming 700 kishi (49,4 %) qishloq joylarida istiqomat qilmoqda. Biroq, qishloq va shaharlar aholisining o'zaro nisbati qishloqlar foydasiga oshgan bo'lsa oshgan, lekin kamaymagan. Chunki, "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" bo'yicha qabul qilingan Davlat dasturi va unda rejalshtirilgan vazifalar hozirda ham dolzarbdir.

Qishloq aholi punktlarining bosh rejalar bilan ta'minlanganlik holati esa quyidagi ahvolda:

- bosh rejasi mavjud bo'lgan aholi yashash punktlari, ya'ni qishloqlar soni 467 tani (bu 4% ni) tashkil qiladi;
- bosh rejasi mavjud bo'lмаган qishloqlar soni 7345 tani (ya'ni 62% ni);
- bosh rejasi qayta ishlab chiqilishi zarur bo'lgan qishloqlar soni 3982 tani, ya'ni Respublikamizdagi jami qishloqlarning 34% ni tashkil qiladi (*1-rasm*).



Bu ko'rsatgichlar Respublikamiz qishloqlarida nafaqat landshaft arxitekturasi darajasining pastligini, balki hozirgacha ushbu qishloqlarning bosh rejalar bilan ta'minlanish holatining ham pastligini bildiradi.

Bugungi kunda Samarqand viloyatida 14 ta (Samarqand, Kattaqo'rg'on, Payariq, Pastdarg'om, Oqdaryo, Ishtixon, Narpay, Nurobod, Tayloq, Qo'shrabot, Jomboy, Bulung'ur, Paxtachi, Urgut) tuman, 1094 ta mahalla fuqarolik yig'ini (MFY) markazlari hududiga kirgan 1913 ta qishloq aholi punktlari mavjud. Ular orasida kichik aholi punktlari (aholisi 100 dan 1000 gacha) 1197 ta, o'rta aholi punktlari (aholisi 1000 dan 3000 gacha) 581 ta, katta aholi punktlari (3000 dan 5000 gacha) 104 ta, yirik aholi punktlari (aholisi 5000 dan ortiq) 31 ta tashkil qiladi (1-jadval).


1–jadval

#### **Samarqand viloyati qishloq aholi punktlarining toifalanishi**

<b>Aholi punktlarining toifasi</b>	<b>Aholi soni</b>	<b>Aholi punktlarining soni</b>	<b>Jamiga nisbatan foizda</b>
Kichik aholi punktlari	100 dan 500 kishigacha	541	28,3
	500 dan 1000 kishigacha	656	34,3
O'rtacha aholi punktlari	1000 dan 3000 kishigacha	581	30,4
Katta aholi punktlari	3000 dan 5000 kishigacha	104	5,4
Yirik aholi punktlari	5000 dan ortiq	31	1,6
<b>Jami:</b>		<b>1913</b>	<b>100</b>



### QISHLOQ AHOLI PUNKTLARINING TOIFALANISHI (JAMI - 11794 TA)




Qishloqlarda yashovchi aholi soni  
16 mln. 890 ming 700 kishi  
49,6 %

Shaharlarda yashovchi aholi soni  
17 mln. 301 ming kishi  
50,6 %

(jami 34 mln. 191 ming 700 kishi)

**O'zbekiston Respublikasining aholi  
joylashuvi (2020 yil 1-iyul holatida)**

Qishloq aholi punktlarining bosh rejalar  
bilan ta'minlanganligi  
(1.01.2009 y. holatida)



-Bosh rejasi mayjud bo'limgan aholi yashash punktlari 7345 ta (62 %)

-Bosh rejasi mayjud bo'lgan aholi yashash punktlari 467 ta (4 %)

-Bosh rejasi qayta ishlab chiqilishi talab etiladigan aholi yashash punktlari -3982 ta (34 %)

**1-rasm.**

## **1.2. O’zbekiston qishloqlarida landshaft arxitekturasi va bog’dorchilik san’atining shakllanish tarixi**

O’zbekiston qishloqlarida bog’dorchilik san’atining shakllanish va rivojlanish jarayoniga e’tibor berib qaralsa, bog’dorchilik qadimdan, asosan tabiiy suv manbalari va tuprog’i unumli bo’lgan voha va vodiylarda, tog’ oldi va tog’lik hududlarda shakllanib kelganini ko’ramiz. Ana shu bog’dorchilik xo’jaligi va san’atiga mos tarzda O’zbekiston qishloqlarida landshaft arxitekturasining ilk shakllari: xiyobonlar, hovuzlar, ariq va kanallar, qiyalik joylarni pog’ona-pog’ona qilib tekis sahnarga bo’lib chiqish va ularni tirkak devorlar, zinapoyalar bilan bog’lash, dam olish va hordiq chiqarish uchun o’ziga xos shiyponlar, ko’shsaroylar yaratish, sharshalar tashkil qilish kabi landshaft arxitekturasi elementlari shakllangan.

Tabiiy suv manbalari kam yoki bo’lmagan joylarda bog’dorchilik uchun “koriz”lar bunyod etish, tabiiy suvlarni bir joyga yig’ib bandlar bunyod etish an’analari rusm tusiga kirgan. Ayrim qishloqlarda hozir ham ariq va kanallar ustiga chorpoynalar qurib, atrofga nafaqat mevali, balki manzarali daraxtlar, chorpoynalar ustiga esa “voish”lar o’rnatib, soya-salqinlar yaratish an’analari shakllangan. Bularning barchasi O’zbekiston qishloqlarida landshaft arxitekturasi va bog’dorchilik san’atining shakllanishiga hamda rivojlanishiga asos bo’lib xizmat qilgan.

O’zbekiston qishloqlarida bog’lar bunyod etish va ularga oroyish berish san’ati juda qadim zamonlardan boshlab shakllanib kelgan. Bunga O’zbekistonning o’ziga xos iqlimi, serquyoshligi, uzoq issiq yozning o’tkir ta’siridan saqlanishga qaratilgan harakat ham sabab bo’lgan. Badavlat odamlar dastlab shaharlar atrofidagi sersuv qishloq joylarda bog’lar bunyod etib jazirama yoz kunlarida soya - salqinda, hovuzlar qoshidagi supali shiyponlarda, shabboda joylarda dam olishgan. Bunday bog’larda, odatda, sersoya manzarali daraxtlardan tashqari turli-tuman mevali daraxtlar, xo’jalik uchun toklar va boshqa ekinlar ekilgan. Ekinlar uchun yer tekislanib chellar ishlangan, ariqlar olingan, hovuz,


shiypon, ayvonlar, supalar, ular oldida esa mo'jaz gulzorlar tashkil qilingan. Hokim va amaldorlarning shahar chetlaridagi bunday oromgohlari atrofi paxsa devorlar bilan aylantirilib, darvozalar ishlangan. Ular yozgi ko'rg'oncha bog'lar ko'rinishini olgan (2-rasm).

Bunday bog'lar sahni o'q ariqlar bilan bir necha, odatda, to'rt qismga bo'lingan. Shunday simmetrik va muntazam handasaviy tartibda rejalanigan bog'lar xalq orasida, pirovardida «chorbog'» nomini olgan. Badavlat oilalar o'z chorbog'lari ichiga chiroyli shiyponlar qurib, yoz oylari mehmonlarni shu bog'-larga taklif qilishgan. Bunday mo''jaz "qo'rg'oncha-chorbog'lar" suv manbalariga yaqin, nisbatan tekis joylarda yoki tog' yon bag'irlaridagi qiyaliklarda bunyod etilgan (2-rasm).

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida yozilishicha, Qoraxoni Shams al-Mulk (1068-1080) Buxoroga xoqonlik qilgan davrida shaharning Ibrohim darvozasiga yaqin bo'lgan qishloqlarning yarim farsang joyida go'zal bog' bunyod etib, ul joyga "Shamsobod" deb nom beradi. Shamsobodga tutash joyda keng o'tloq (o'lan) tashkil qilib, uni "Qo'riq" deb ataydi. Qo'riq atrofini devor bilan o'rab, ichiga podsholikka xos qasr va kaptarxona quradi. Qo'riqda qo'lga o'rgatilgan turli hayvonlar: bug'i, kiyik, tulki va ayiqlar saqlaydi. Hayvonlarni parvarish qilib turadigan maxsus kishilar tayinlaydi. Xullas, Shams al-Mulk ushbu bog'ni dam olib xordiq chiqarishga mo'ljallangan maxsus qo'riqxonaga aylantiradi. Arxeologik ma'lumotlar bizga o'rta asrlarda Xorazm qishloqlarida ham bog'-parkchilik san'atining rivojlanganligidan darak beradi. XII asrda Xorazmshohlar davlatining mustahkamlanishi Amudaryo vohalarida joylashgan bir qator qishloqlarda-Jend, Vazir va Shoxsanam bog'-park majmularining vujudga kelishiga imkon yaratadi (2-rasm).

Bu bog'lar shahardan tashqarida qulay iqlimli va ko'rkam landshaftli mavzelarda joylashib, yoz paytlari shohlarning oilalari bilan yashashiga va dam olishiga mo'ljallangan. Atrofi devor bilan to'silgan bu bog'lar sahni nisbatan tekis bo'lib, bog'da saroy, bog'-ko'shkleri, xo'jalik imoratlari, mevali bog'lar, xiyobonlar, hovuzlar bo'lgan. Bog' majmuasi to'g'ri chiziqli muntazam rejaviy yechimga

ega bo'lib, darvozadan kirilgach, bosh xiyobon bog' markazida joylashgan asosiy bino–ko'shk saroy va uning yonidagi hovuzga eltgan. Bog' sahni katta - kichik bog'chalar va chamanzorlarga bo'lingan.



## 2-rasm.

Ma'lumki, Amir Temur va Mirzo Ulug'beklar ham (XIV-XV asrlar) o'z zamonasida Samarqand shahri atrofidagi qishloqlarda 14 ta turli tuman bog'-rog'lar yaratgan edilar (2-rasm).

Temuriylar bunyod etgan istirohat bog'-saroylari o'zlarining keng ko'lami, xush havosi, go'zal manzaralari, ertaknamo saroy va ko'shklari, g'aroyib hovuz va favvoralari, beozor jonzotlari bilan mo'jaz qo'rg'oncha-chorbog'lardan ajralib turgan. Ammo istirohat bog'lari ham qo'rg'oncha-chorbog'lar kabi atroflaridan baland devorlar bilan aylantirilib, darvozalar orqali kirib chiqilgan. Ayrim bog'lari ning maydoni juda katta bo'lib, ular ichida sersoya daraxtzorlar, turli mevali bog'lar, hovuzlar, gulzorlardan tashqari maysazorlar, hatto o't-yalangliklar bo'lgan.

### **1.3. O'zbekiston qishloqlarining sobiq Ittifoq davridagi landshaft arxitekturasi**

O'rta Osiyo respublikalarida sobiq Ittifoq davridagi qishloqlarni qayta qurish davlat siyosatining eng muhim ko'rsatgichi bu-xutor va ovullar tipidagi tarqoq va mayda qishloqlarni yo'qotish va ularning o'rniga yirikroq obod qishloqlarni yaratishga qaratilgan tadbir-choralarni amalga oshirish edi.

Ikkinchi masala-bu qishloq qurilish amaliyotini tartibga solish bo'ldi. Bu haqda davlat qarori ham chiqarildi. 1978 yilda esa "Qishloqlarda kadrlar muqimligi va xususiy uy-joylar qurilishini rivojlantirish istiqbollari haqida"gi yangi qaror qabul qilindi.

Qishloq xususiy hovlili uylarining loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha tanlovlardan e'lon qilindi. Xususiy uylarni ushbu tasdiqlangan loyihalar asosida qurish amaliyoti amalga oshirildi. Shu munosabat bilan 1984-yili Respublikamizda aholi mablag'i hisobiga yakka tartibda uy-joy qurishning qulay shakli vujudga keldi. Uning mohiyati shunda ediki, uy-joy qurilishi shaxsiy uy-joyga ega bo'lish istagini bildirgan hamqishloqlarning buyurtmasi bilan yetakchi mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlangan loyihalar asosida mahalliy pudratchi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilar edi.

XX asrning 90–yillarida Respublikamizning xo’jaliklarora uy–joy qurilishi kooperativ usulda va yakka tartibda rivojlantira borilib, qishloqlarda 1 million 168 ming kv.m. uy–joylarni barpo etilishi ta’minlandi. O’sha yillarda Samarqand viloyatida 153 ta mayda xutorlar tugatildi. Respublika qishloqlarida aholi o’z kuchi bilan yiliga qariyb 1,5 mln.kv.m. uy–joy barpo etishni uddaladi.

Sobiq Ittifoq davri qishloqlarida uy–joy va qishloq qurilishining keyingi muhim yo’nalishi–bu sovxoz va kolxoz qurilishi bo’ldi. Bunda bosh qurilishni namunaviy loyihalar egalladi.


Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, qishloq aholisining ko’pchiligi uy–joylarini xususiy tarzda loyihasiz qurardi. Bunday usulda qurilgan uylar butun respublika qishloq uylari qurilishi hajmining 50 % dan ziyodini tashkil qilgan edi.

Bu holat qishloq qurilishidagi keyingi bosqichga o’tishni, ya’ni davlat siyosatining o’zgarishi zarurligini taqozo etdi va natijada O’zbekistonda qator sovxoz va kolxoz qishloqlari: Mirzacho’l, Xorazm, Samarqand va boshqa viloyatlarda qishloqlar yaxlit reja asosidagi eksperimental namunaviy qishloqlar bir va ikki qavatli qilib kompleks tarzda qurila boshlandi. Eksperimental qishloqlar qurilish hajmi, ayniqsa, 70–yillarda kelib kengaydi.


Bu davrda O’rta Osiyoda 20 ta xo’jalikda ana shunday namunaviy eksperimental qishloq poselkalari qurildi. Ular ichida Toshkent viloyatidagi “Leninizm”, Sirdaryo viloyatidagi “Leningrad”, Xorazmdagi “Oxunboboev”, Mirzacho’ldagi 14–sovxozi, Qarshi cho’lidagi 4–sovxozi, Andijondagi “Madaniyat”, Samarqand viloyatidagi “Besh bola” va “Xumor” poselkalari bor edi (3-rasm). Bu qishloqlarning har biri puxta o’ylangan bosh rejalar asosida, mahalliy tabiiy iqlim sharoitlari, qishloq oilalarining urf–odatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda qurildi. Biroq, ularning soni Respublikada ko’pi bilan 10 tadan oshmagan edi.

Bugungi kunda Respublikamiz tuman markazlarida mavjud bo’lgan qishloq madaniyat va istirohat bog’lari ham Sobiq Ittifoq davri landshaft arxitekturasining ob’yektlaridir (3-rasm). Bunday bog’lar egallab turgan maydoni va funkstiyalariga ko’ra zamонавијат madaniyat va istirohat bog’lari talablariga to’laqonli javob bera

olmasalarda, qishloq aholisining rekreasjon ehtiyojlarini ma'lum ma'noda qondirib keldilar. Hozirgi paytda ular ta'mirlanib va qayta ishlanib, moddiy va funkstiyaviy takomillashtirilib, ayrim holatlarda esa kengaytirilib, zamonaviy me'moriy–estetik va landshaft talablari hamda milliy–me'moriy g'oyalar asosida yangicha rivojlantirilib, qishloq aholisiga xizmat ko'rsatmoqda.



*Sobiq Ittifoq davrida qishloqlar sharoiti uchun ishlab chi'lgan uy loyi?aviy taklifi va uning atrof mu?itidagi landshafti*



*Samar?and viloyatidagi Xumor qishloqining bosh rejasi. Turor joy ?ududi va uning landshafti kvartallar usulida ishlangan*



*Sirdaryo viloyati "Leningrad" kolxo?tajriba –namunaviy posyolkasining bosh rejasi. 1975 yil.  
Arxitektorlar: A.Maxkamov, A.Fayzullaeva*



*Samargand viloyati Paxtachi tumanidagi "Xumor" tajriba – namunaviy posyolkasidagi hovli?i uylar oldi landshafti*



*Samargand viloyati "Beshbola" posyolkasidagi uylar oldi landshafti*



*Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston qishloqlari landshaftining ko'rinishiga misol*

O'zbekiston qishloqlarining Sobiq Ittifoq davridagi landshaft arxitekturasi o'sha davrda qurilgan bir qator tajriba-namunaviy qishloq posyolkalari, tuman markazlaridagi istirohat bog'lari, qishloq ko'chalar, Ulug' Vatan urushida halok bo'lgan vatandoshlarimizga atab qurilgan xiyobonlar, qishloq jamoat binolari va turar joylar hovlilaridagi ko'kalamzorlarda namoyon bo'lgan. Tuman markazlari va qishloqlarda bizgacha yetib kelgan istirohat bog'larining funtsiyaviy va landshaft saviyasi Respublikamizda ro'y bergan o'tish davrida sezilarli darajada pasaydi.



*Sobiq Ittifoq davridagi qishloq bog'-parklari landshaftining ko'rinishlariga misol.  
Taylog va Payariq tumanlaridagi parklar*



**3-rasm.**

Sobiq Ittifoq davridagi tuman markazlarida Ulug' Vatan urushida halok bo'lган yurtdoshlarimiz xotirasiga bag'ishlangan "Hech kim hech qachon unutilmaydi" degan shior ostida xotira maydonlari tashkil qilinib, ularning hududlari obodonlashtirildi.

Ayni paytda, qishloq markazlariga davlat va kommunistik partiya rahbarlarining portretlarini qo'yish ham an'anaga kirdi. Biroq, bunday bog'lar va xiyobonlarni me'moriy - rejaviy va landshaft tashkillashtirishda mahalliy sharoitlar, o'zbek xalqining azaliy bog'-park san'ati an'analari, xususan "Chorbog" va "Xiyobon" usullari hisobga olinmadi.

So'ngi yillarda, ayniqsa, Mustaqillik yillaridagi hukumatimiz hujjatlarida, shuningdek, matbuotda ham sobiq Ittifoq davridagi qishloq va posyolkalar landshaft muhitining talabga javob bera olmayotganligi, ulardagи obodonlashtirish, ayniqsa, landshaft arxitekturasi va ko'kalamzorlashtirish ishlarining estetik va emostional tomonlari juda past ekanligi haqli ravishda ta'kidlab o'tildi. Sobiq Ittifoq davrida yuzaga kelgan bunday holat inson faoliyati uchun har tomonlama mukammal va sermazmun muhit va uni boyitishga qaratilgan chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi lozimligini ko'rsatib berdi.

#### **1.4.O'zbekiston qishloqlarining Mustaqillik yillaridagi landshaft arxitekturasi va dizayni**

Davlatimiz tashabbusi bilan 2009-yilning mamlakatimizda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb e'lon qilinishi va "Qishloq taraqqiy topsa, yurtimiz obod, hayotimiz yanada farovon bo'ladi", degan ezgu g'oyani o'zida ifoda etgan maxsus Davlat dasturining ishlab chiqilishi va ularning izchillik bilan hayotga joriy qilinishi bu sohada yangi davrni boshlab berdi (4-5-6-rasmlar).

Mazkur dasturga binoan qishloq aholisi hayotining sifatini yanada yaxshilash maqsadida qishloqlarimizning arxitektura, shaharsozlik va landshaft nuqtai nazaridan rejalashtirilishini tashkil etish, ularda uy-joy, ijtimoiy va ishlab

chiqarish ob'ektlarining kompleks qurilishini tashkillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoxda (*4-rasm*).



#### ***4-rasm.***

O'tgan vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi hukumatining qishloqlarni kompleks rivojlantirish, qishloq aholisining hayot sifati va darajasini yuksaltirishga qaratilgan ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, hukumatimizning 2009–yil 21–yanvarda qabul qilingan qaroriga muvofiq “Qishloq qurilish loyiha” loyiha–tadqiqot instituti tashkil etildi. Mazkur institut tomonidan qishloq joylarida barpo etiladigan uy–joylar, ijtimoiy inshootlar, maishiy xizmat ko'rsatish ob'yektlarining namunaviy loyihalari ishlab chiqildi.

2009–yilning sentyabr va 2010–yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan ko'rgazmalarda bu loyihalar keng jamoatchilikka namoyish etildi, ular atroflicha muhokamalardan o'tkazilib yanada takomillashtirildi.

2010–yil 17–iyunda hukumatimizning “Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida xususiy uy–joy qurilishini kengaytirishga oid qo'shimcha chora–tadbirlar to'g'risida” gi qarori qabul qilindi.



*4 xonali namunaviy uy va uning hovlisi*



2



1



3



4




*Umumiy ovqatlanish binosi oldidagi dizayn kompozisiysi*



*Mustaqillik yillari mahallasining umumiy ko'rinishi*

*5-rasm.*

Mazkur hujjatga muvofiq yakka tartibdagi uy-joylarning namunaviy loyihalariga jiddiy o'zgartish va tuzatishlar kiritildi. Jumladan, qishloqlarda har bir uy-joy quruvchiga 4 sotix o'rniga 6 sotix hajmida yer uchastkasi ajratish belgilandi.



*Pastdarg'om tumani Juma shaharchasidagi "Yoshlar bog'i"ning manzaralari*



*Jizzax viloyatidagi Avliyo ota ziyoratgohi*

*Mustaqillik yillarida O'zbekiston qishloqlari va tuman markazlaridagi bog'-parklar funksional yangilandi, ularning landscape dizayni yechimlari takomillashtirildi, qishloq joylaridagi ziyoratgohlar qayta tiklanib xalq ehtiyojiga topshirildi. Qishloqlarda etno va ekoturizm funksiyalari tashkil etilib yo'lga qo'yildi*



*6-rasm.*


Qishloq aholi punktlari hududlarining nisbatan uncha katta bo’lmagan o’lchamlari va qishloqlardagi ishlab chiqarish, turar joy va jamoat binolari tiplari va turlarining hamda qavatlar sonining chegaralanganligi qishloqlarda qurilayotgan har bir bino yoki inshootning arxitekturaviy yechimi va hajmiy kompozisiyasiga, uning joylashishi, qavati va funkstiyasiga, qishloq hududining landshaft yechimiga bo’lgan talabni, me’morlar va quruvchilardagi javobgarlik hissini oshirdi. Jumladan, Samarqand viloyatining Pastdarg’om tumani markazi Juma shaharchasi, Urgut tumanidagi Urgut shaharchasi, Ishtixon tumanidagi Ishtixon shaharchalarining arxitekturasi va landshaft yechimlari yildan–yilga boyib ko’rkamplashib bormoqda (*6-rasm*). Ushbu shaharchalardagi “Yoshlar bog’i” va madaniyat - istirohat parklari qayta qurilib, ta’mirlangan, attrakstionlar yangilangan, bog’larda nafaqat yoshlар, balki kattalarning ham dam olib xordiq chiqarishiga qulay sharoitlar yaratilgan. Eng muhimi, bu bog’ va parklarning landshaft va funkstional tuzilishi hamda badiiy estetik imkoniyatlari kengaytirilgan. Bu parklarni boshqa tuman markazlaridagi parklarga namuna tarzda ko’rsatish mumkin. Shaharchalarda nafaqat parklar, balki shahar maydonlari, trotuarlar, ko’chalar zamon talablari asosida shakllantirilib, bu tadbirlar yanada kengayib bormoqda. Mikroiqlim va landshaft yaratish chog’ida asosan soya–salqin joylar, maysazor va gulzorlar barpo etishga katta e’tibor berilmoqda. Mustaqillik yillarida boshlangan bu ish ijobiy natijalarga olib keldi. Qishloqlarda manzarali landshaft muhitini yaratish maqsadida ko’proq savdo–jamoat markazlari, mакtab, bolalar muassasalari, shifoxonalar, ma’muriy va boshqaruv binolari, sport markazlari atroflarida ana shunday jozibali soya–salqin joylar, gulzorlar yaratilmoqda. Butun mamlakatimiz qishloqlarida bolalar va o’smirlarga alohida e’tibor va g’amxo’rlik bilan qaralmoqda. Parklardagi maxsus maydonchalarda ulkan o’ynichoqlar va attrakstionlar olami yuzaga keltirimoqda. Qishloqlarda muhitning o’ziga xosligini shakllantirishda obodonchilik, ko’kalamzorlashtirish, joylardagi tabiiy manzaraviy muhit, suv havzalari va relyefning roli kattadir. Bu borada, ayniqsa, ko’kalamzorlashtirishning ahamiyati katta. Dov–daraxtlarning shu xizmatini nazarda tutib, ularning yashillikda eng

umri uzoqlaridan tanlab ekilmoqda. Bahor nafasi va Navro'z sezilishi hamon qishloqlarni yashillik chulg'aydi. Ko'klam kirgach esa oppoq va pushti rang o'rik, shaftoli, olma gullari ko'zni quvontiradi. Hatto qishda ham yam-yashil daraxt va butalarni, kech kuzgacha yashnab turgan gulzorlarni yilning to'rt fasli ham o'ziga yarasha joziba, o'ziga yarasha chiroy kasb etib turadi. Daraxtzorlar maydoni yanada o'sib bormoqda. Yildan—yilga daraxt va butalar, gul va o'lanlar navining yangi—yangi xillari paydo bo'layotir. Bu barcha rang—baranglik qishloqlarning nafosat va me'moriy landshaft muhitini shakllantiribgina qolmay, aholi hayoti uchun xos iqlim ham yaratmoqda.

## II–BOB. QISHLOQ KO'KALAMZORLARI TIZIMI VA UNI LOYIHALASHNING ASOSIY TAMOYILLARI

### 2.1. Qishloq landshaftlari arxitekturasining tipologiyasi va tarkibiy qismlari

Qishloq landshaft arxitekturasi ob'yeqtalarining tipologiyasi ilmu - fanda hozirgacha shakllanmagan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida qishloq landshaftlari tipologiyasini quyidagicha shakllantirildi (7-rasm):



**7-rasm.**

- qishloq ko'chalari va uning atrofidagi trotuarlar;
- tuman hokimligi binosi va boshqa ma'muriy hamda jamot binolari oldida va atrofidagi maydonlar;
- qishloq aholi punktlaridagi madaniyat va istirohat bog'lari hamda "Yoshlar bog'i";
- mahalla fuqarolar yig'ini markazi joylashgan hududlar;
- qishloq kasalxonalari va vrachlik punktlarining hududlari;
- qishloq yaslilari, bog'chalari, maktablar va texnikumlarining hududlari;
- qishloq turar joylarining hovlilari;
- qishloq xo'jalik korxonalarining hududlari;
- aholi punkti ichidagi xiyobonlar va qishloq yo'llari.

Qishloq joylarda landshaft arxitekturasi ob'yektlarining tipologiyasi tarkibiga xalqimiz orasida kun sayin ommalashib borayotgan qishloq ziyyaratgohlari landashftini ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunday maskanlarga e'tibor berish o'zbek xalqiga azaldan xosdir. Shunday ekan ularning arxitekturasi va landshaftini yaxshilash, ular hududini obodonlashtirish va landshaft tashkillashtirish ishlarini zamonaviy talablar asosida amalga oshirish zamon talabidir. Bu sohadagi ishlarni xalqaro standart darajasiga ko'tarish va shu usullar bilan qishloq joylarda xalqaro turizmni rivojlantirish, ayniqsa, uning eko va etnografik shakllarini yaratish ham qishloq aholisining madaniyati va bandligini oshirish, qishloq maskanlarida landshaft arxitekturasi tizimini yaratishning muhim omillari va ustuvor yo'naliшlaridan biridir.

An'anaviy "Chorbog'" va "Xiyobon" usullaridagi tarixiy milliy o'zbek bog'larini yaratishni ham etnografik bog'lar turiga kiritish mumkin, chunki "Chorbog'" va "Xiyobon"lar qadimdan ham shu Vatan, shu mamlakat xalqlarining tarixiy istirohat bog'lari turiga kirgan. Chorbog' xuddi Amerika bog'i, golland bog'i, nemis bog'i, yapon bog'i, inglizcha bog'lar kabi azaldan O'rta Osiyo bog'lariiga xos belgilarni o'zida aks ettirgan.

Qishloqlar landshaft arxitekturasining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: 1) yashil dunyo, 2) suv dunyosi, 3) yer, ya'ni joy relyefi, 4) hayvonot

dunyosi, 5) me'morchilik ob'yektlari (bino va inshootlar) va 6) mo'jaz me'moriy shakllar va tashqi obodonlashtirish elementlari.

Ushbu tarkibiy qismlar ichida eng muhim markaziy o'rinni yashil dunyo tashkil qiladi.

**Yashil dunyo** deganimizda daraxt va butalar, gullar va maysazorlar, turli xil o't o'simliklari va lianlar, ya'ni chirmashib va tirmashib o'suvchi tik ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladigan o'simliklar va yeryopar o'simliklarni nazarda tutamiz. Bundan tashqari landshaft arxitekturasining yashil dunyosiga suv yuzida qalqib o'suvchi, gullovgchi go'zal estetik o'simliklar ham kiradi.

**Suv dunyosiga** suv bilan bog'liq bo'lgan barcha shakllar kirib, ulardan landshaft arxitekturasida tabiiy va sun'iy ko'rinishlarda foydalaniladi. Tabiiy ko'rinishlardagi turlariga tabiiy ko'llar, prudlar, daryolar, yirik suv havzalari, sharsharalar kirsa, sun'iy turlariga favvoralar, shalolalar, sharsharalar, sun'iy ko'llar, akvoparklar, basseynlar, hovuzlar va boshqa suv shakllari va inshootlari kiradi. Maqsad suvdan kishiga estetik zavq bag'ishlovchi, muhitni chiroyli, shinam va tabiiylikka yaqin qilish, uning mikroiqlimini oshirish va insonni dam olishiga yaxshi va dilkash muhit, sharoit yaratishdir.

**Yee, ya'ni joy relyefiga** joyning barcha tabiiy ko'rinishlari: qirlik, qiyalik, do'nglik, chuqurlik, qoya, tekislik, qirralik kabi yer shakllari kirib, ulardan me'moriy landshaft muhitini yaratishda faol va samarali foydalanish, ushbu tabiiy shakllarga me'moriy oroyish berish va sun'iy pog'onasimon shakllar, tirkak devorlar, panduslar, zinapoyalar, qiyaliklar va sun'iy to'shamalar yordamida joy relyefini ishlash, uni go'zal va foydali qilib, bir so'z bilan aytganda, joy relyefiga va inson ehtiyojlariga moslashtirish orqali estetik va ekologik qonuniyatlar asosida yaratish tushuniladi.

Landshaft arxitekturasining joy relyefi bilan bog'liq bo'lgan eng perspektiv yo'naliishlaridan biri, bu geoplastika, ya'ni vertikal loyihalash bo'lib, mazkur soha arxitekturaviy-badiiy vazifalarni bajaradi. Zamonaviy texnika yordamida amalda xohlagan relyefni hosil qilish mumkin. Relyef yashash hovlilari, bolalar rekreastiya maydonlarini chang, shovqin, shamoldan himoya qiladi, mikroiqlim

hosil qiladi. Geoplastikaga o'zining tarkibiy loyihasiga ko'ra qoyalar va ekzotik kompozistiya elementlari ham kiradi.

**Hayvonot dunyosiga** park yoki bog'da, istirohat joylarida, ichki hovlilar va mo'jaz bog'larda qo'lga o'rgatilgan go'zal hayvonlar: qushlar, ohular, baliqlar va boshqa xil hayvonlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

**Mo'jaz me'moriy shakllar** deganda biz, odatda, mo'jaz ma'noda, ya'ni boshqa inshootlarga nisbatan hajman va funkstiyaviy imkoniyatlari kichik bo'lgan turli xil dekorativ va utilitar funkstiyalarga mo'ljallangan, hajmi jihatidan uncha katta bo'limgan kichik me'moriy ob'yektlar va qurilmalarni tushunamiz. Bunday ob'yektlar qatoriga, shuningdek dekorativ inshootlar va shakllar ham kiradi. Ularga haykallar, dekorativ hovuzlar, devorlar, favvora va shalolalar, turli xil ko'shk-kioskalar, voishlar, shiyponlar, transport bekatlari, bog'-park yoki muassasalar uchun darvozalar, to'siqlar, bolalarning o'yin maydonlari, savdo rastalari, do'konlar, kichik ko'rgazma zallar, muzqaymoq va sharbat qahvaxonalari, tasviriy oyna shakllari, dala shiyponlari kabi kichik me'moriy ob'yektlar misol bo'la oladi. Biroq, bunday mo'jaz ob'yektlarga qo'yiladigan me'moriy kompozistiyaviy, estetik va funkstiyaviy talablar hech qachon boshqa inshootlardan kam bo'lmasligi kerak. Ya'ni har qanday me'moriy ob'yekt, xoh u kichik bo'lsin, xoh katta, uning g'oyaviy yechimi arxitektoring ijodiy mahsuli bo'lishligi va kompozistiya qonuniyatlari asosida topilishi shart.

Mo'jaz me'moriy shakllar o'zlarining funkstiyasi, joylashishi va qurilmaviy tuzilishiga qarab turli-tuman bo'ladi. Ular muayyan bir funkstiyaga mo'ljallanmagan, biroq, badiiy va tarbiyaviy-estetik, ya'ni dekorativ ahamiyatga ega bo'lishi, ichki muhitsiz yoki ichki muhitli, funkstiyasi sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin.

**Tashqi obodonlashtirish elementlariga** esa svetilniklar, chiroqlar, kreslo va o'rindiqlar, ko'priklar, bordyurlar, maydonlar, xiyobonlar, trotuarlar va yo'laklarning to'shamalari, tirkak devorlar, zinapoyalar, panduslar, kyuvetlar, lotoklar va shu kabi elementlar kiradi.

Landshaft arxitekturasida Qo'llanilayotgan o'simlik dunyosi turli–tuman va ko'p qirralidir. Faqat O'zbekiston shahar va qishloqlari landshaft arxitekturasida foydalanish uchun mo'ljallangan dekorativ o'simliklar sonining o'zi mingdan ziyod. Bunga manzaraviy daraxtlar, butalar, yarim butalar, chirmoviqlar, gullar, o'tli va er yopar o'simliklar va ularning turli–tuman xillari kiradi.

Daraxtlar shartli tarzda mevali va manzarali daraxtlarga bo'linadi. Landshaft arxitekturasida asosan manzarali daraxtlar qo'llaniladi. **Manzarali daraxtlar** ham o'z navbatida ikki yirik guruhgaga bo'linadi: a) Qishin–yozin, ya'ni doim yashil bo'lib o'suvchi daraxtlar; b) bargi tushuvchi daraxtlar.

**Doim yashil daraxtlarning** ham ikki xil turlari mavjud: ularga igna bargli xvoy tipidagi daraxtlar va bargi yaproqli daraxtlar kiradi. O'zbekistonda keng qo'llaniladigan doim yashil daraxtlarga virgin mojjevelnigi, Sharq biotasi, tuya, Pallas qarag'ayi, qora qarag'ay, Eldar qarag'ayi, archalar kirsa, **bargi tushuvchi manzaraviy daraxtlarga** dub, chinor, yasen, klyon va uning turli xillari, yapon saforasi, katalpa, lipa, tol, ilm, bunduk, majnuntollar, kashtan, akastiya, Kanada bagryannigi, boyarishnik va beryozalar kiradi.

**Butalar** ham 2 ta yirik guruhgaga bo'linadi: doim yashil va bargi tushuvchi butalar. Doim yashil butalarga yapon bereskletlari (mayda va yaproq barglilar), buksus, magoniylar kirsa, bargi tushuvchi butalarga atirgullar, sirenlar, yapon ayvasi, amorfa, buzina, deystiya, jasmin, jimolost, kalina, mindal, forzistiya va boshqalarni kiritish mumkin.

**Tirmashib va chirmashib o'suvchilar** guruhi ham turli–tumandir. Ularga birinchi navbatda Amur toki, Berlande toki, Yapon toki, devichiy vinograd pyatilstochkovi, Xitoy glistinyasi, Yapon jamolosti, kaprifol jimolosti, lomonoslar, plyush, tekoma va puerafiyalar kiradi.

Qishloq turar joylari hovlisida ekish va ko'kalamzorlashtirishga tavsiya etilgan mevali va manzarali daraxt va butalarning navlari ham berilgan (5-ilovaga qarang).


## **2.2. Qishloq landshaftlari arxitekturasiga qo'yiladigan umumi shaharsozlik talablarini shakllantirish**

Bugungi kunda qishloqlarimiz arxitekturasi nafaqat ularda yangi takomillashtirilgan me'moriy loyihalarni qo'llashga, balki, qishloqda qurilayotgan binolarning me'moriy turkumlashuviga, ya'ni qishloq qurilishining ansambllashtirilishi va komplekslashtirilishiga ham bog'liqdir. Chunki, aynan ana shunday kompleks va ansambl, tugal landshaft ko'rinishidagi qurilishlarga qishloqlarimiz fayziga-fayz, chiroyiga-chiroy bag'ishlaydi va qishloq qurilishining go'zalligini yanada oshirish va takomillashtirishga imkon yaratadi. Xususan, binolarni alohida joylashgan holda emas, balki me'moriy turkum holatida, ya'ni ulardan chiroyli binolar guldastalarini tuzgan holda qurish, ular joylashgan maydon va hududlarni muhandislik va tashqi obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish xarajatlarini 1–1,5 barobar qisqartirishga olib keladi.

Landshaft arxitekturasi xuddi ko'zgu kabi o'zida qishloqliklar hayotini, ularning ayni davrdagi turmush darajasini, ijtimoiy–iqtisodiy ta'minlinganlik holatini, qishloq jamiyatining qay darajada rivojlanganligini va nihoyat, ularning qurilish va landshaft madaniyatini o'zida aks ettiruvchi voqelikdir.

Landshaft arxitekturasi hamma vaqt, turli makon va zamonlarda jamiyatning moddiy, ma'naviy–madaniy qadriyatlari va boyliklarini, joylardagi tabiiy iqlim va geografik sharoitlarni o'ziga singdirib, aks ettirib kelgan, o'sha makon va zamon ta'sirida yashab ijod va mehnat qilgan insonlarning buniyodkorlik va landshaft madaniyatiga asoslangan faoliyatining mevasidir. Insonning ijodiy omili esa hamma vaqt me'morlarning buyurtmachilar va Quruvchilar bilan hamohang va uyg'un tarzda ishlashida, ularning ustakorligi, iqtidori, malakasi, madaniyatida aks etgan, bu esa o'z navbatida ularning ma'lumotiga, kasbiy saviyasi va tajribasiga bog'liq bo'lган. Hozirgi vaqtida va Respublikamizning istiqbolli qishloq aholi punktlaridagi tarkibiy hududiy tuzilmalari va ularning joylashishini o'rganish O'zbekiston qishloqlarining quyidagi hududiy qismlardan tashkil topganligini ko'rsatdi (8-rasm):

- ma'muriy tuman (tuman markazi hududi);
- mahalla fuqarolar yig'ini markazi hududi (qishloq kengashi);
- qishloq xo'jaligi korxonalari hududi;
- qishloq aholisi yashash punktlari (qishloqlar, ovullar, posyolkalar).



### *Qishloq aholi punktlarining arxitekturaviy va landshaft shakllanishiga ta'sir qiluvchi mintaqaviy omillar modeli*



*Ushbu mintaqaviy omillar kompleksini e'tiborga olgan holda ishlab chiqilgan qishloqning bosh rejasи. Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi "Yangi Xonobod" qishlog'i. Qishloqqurilishloyiha*

**8-rasm.**

Harakatdagi shaharsozlik me'yorlari va qoidalariga ko'ra O'zbekiston qishloq aholi punktlarining aholi soni hisobiy muddat davri bo'yicha quyidagicha guruhlarga bo'linadi:

2-jadval:

<b>№</b>	<b>Qishloq aholi punktlari</b>	<b>Aholisining soni</b>
<b>1</b>	Yirik qishloqlar	5000 dan ko'p
<b>2</b>	Katta qishloqlar	3000 dan 5000 gacha
<b>3</b>	O'rtacha kattalikdagi qishloqlar	1000 dan 3000 gacha
<b>4</b>	Kichik qishloqlar	100 dan 1000 gacha

O'zbekiston qishloq aholi punktlarining yuqorida keltirilgan hududiy tarkibi va tuzilmalariga binoan landshaft arxitekturasi va dizayniga doir masalalarni hal qilishda quyidagi umumiy shaharsozlik talablarining e'tiborga olinishi zarur:

- hududiy joylashtirishning tarixiy qaror topgan tizimining ijobiy jihatlarini va kamchiliklarini va u bilan bog'liq asosiy elementlarni, yaqin kelajakda qishloq agrosanoat komplekslarini shakllantirish va xo'jalikni kompleks rivojlantirish jihatdan tashkil etilishini hisobga olish;
- aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va aholining dam olishi uchun qulay me'moriy-landshaft shart-sharoitlarini yaratishni ta'minlash;
- qishloq aholisini istiqbolda namunaviy turar joylar bilan ta'minlanishining doimiy o'sib borishini hisobga olish;
- aholi punktlarining hududlarini me'moriy-landshaft rejalashtirish va tashkil qilish, ularni muhandislik uskunalari bilan jihozlash va obodonlashtirish;
- amaldagi sanitariya-gigiena, tabiatni muhofaza qilish, mikro va makro iqlimni yaxshilash, ekologik va boshqa me'yorlar hamda talablarga rioya qilish;
- viloyatlar tumanlarida tashkil etilgan va etilayotgan o'rmon xo'jaliklari va buyurtma qo'riqxonalarining aholini yashil o'simliklar bilan ta'minlash imkoniyatlarini hisobga olish.

Bundan tashqari qishloqlarda landshaft qurilishi, ko'kalamzorlashtirish va landshaft arxitekturasi masalalarini yechishda quyidagi shaharsozlik talablarini ham hisobga olish talab etiladi:

- qishloq landshaftlari arxitekturasini rivojlantirish istiqbollari qishloqlardagi qishloq xo'jalik korxonalarining ixtisoslashuvi, qishloq yer qurilishi sxemalari va loyihalari, tumanning shaharsozlik–landshaft rejashtirilishini hisobga olgan holda, qishloq agrosanoat komplekslarini shakllantirish bilan uyg'un tarzda belgilanishi lozim;
- qishloqlardagi aholiga xizmat ko'rsatish korxonalari va muassasalarining tarmoqlari barcha posyolkalar, ishslash joylari va aholining dam olish zonalarini qQamrab oladigan yagona tizimdan iborat bo'lishi ko'zda tutilishi zarur;
- qishloq posyolkalarining hududlarini shaharsozlik–landshaft rejashtirish tuzilishini shakllantirishning umumiyligi tamoyillari O'zbekiston Respublikasi hududining iqlimiga doir tumanlashtirilishi (sahrolar, sahrolar qurshovidagi vohalar, tog' etaklaridagi vodiylar, yangidan o'zlashtirilayotgan yerlar va tog'lar) ni hisobga olgan (QMQ 2.01.01–94 "Loyihalashtirish uchun iqlimiyligi va fizik–geologik ma'lumotlar" ga muvofiq) hal qilinishi kerak.

Qishloqdagi posyolkalar va qishloq xo'jalik korxonalarining rejashtirilishi hududiy funkstional zonalarning muxtasar holda joylashtirilishi va o'zaro bog'liq bo'lislini, hududning jamoatchilik markazlari, muhandislik–transport infratuzilmasi bilan uyg'un tarzda oqilona rejashtirilishini, hududning shaharsozlik jihatidan mavqeiga qarab undan samarali foydalanishni, xalqimiz tarixiy arxitektura–shaharsozlik an'analarining, tabiiy iqlim, landshaft, milliy–maishiy va boshqa mahalliy o'ziga xos xususiyatlarning kompleks tarzda hisobga olinishini ta'minlash lozim bo'ladi (*9-rasm*).

Respublikamiz qishloqlari sharoitida ochiq muhitlar va hududlarning rejaviy yechimi va qurilish uslubi, turar joylarning qulay mikroiqlimini ta'minlash, qishloqdagilarning yashash va turmush jarayonlarini ko'ngildagidek o'tkazish uchun qulaylik yaratilishi, ularga shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritishi uchun

optimal sharoitlar yaratib berilishi va qo'llanilayotgan uslublarning tejamkorligi bilan bir qatorda yuksak me'moriy–badiiy sifatga ham ega bo'lishi talab etiladi.


Qishloqlar va turar joylar hududi uchun tabiiy suv manbalariga, xushmanzara daraxtzorlarga yaqin, landshafti ko'rakam, bahavo, yog'in suvlar yig'ilib qolmaydigan balandroq, kungay joylar tanlanishi lozim (*9-rasm*).

Qattiq bo'ron va shamolli tumanlarda ularni to'sish uchun turar joylar atrofiga baland o'sadigan daraxtlar ekish yoki bu maqsadda o'rmon va dovdaraxtlar ko'p bo'lган joyni tanlash maqsadga muvofiqdir. Bu omillar turar joylar hududini chang va to'zon, qumdan, sovuq va quruq issiq shamollar ta'siridan saqlashda, atmosfera havosi hamda muhitning musaffo bo'lishida katta rol o'ynaydi. Qishloq landshaft arxitekturasining muhiti, me'moriy-manzaraviy sifatini boyitishda joyning tabiiy-iqlim sharoitlaridan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda loyihalangan muhit kompozistiyasiga joydagi bor yashil daraxtlarni, ochiq suv havzalarini, joy relyefining chiroyli qiyaliklarini kiritish, ayniqsa, muhimdir. Uylar, proyezdlar (transport o'tish yo'llari), ko'chalar va xonardonlarning tarxiy yechimida ana shu tabiiy sharoitlar e'tiborga olib loyihalanganda qishloqlar manzarasi va landshafti yanada go'zallashadi.

Qishloq aholi punktlarida aholining dam olishi va ommaviy bayram tadbirlarini o'tkazish uchun yashil zonalarni tashkil qilish, shunday zonalar hamda ko'cha va turar joy muhitini me'moriy–manzaraviy va dizayn jihatdan obodonlashtirish, ularga badiiy–estetik tus berish, umumiylar dam olish zonalarini turar joy mahallalari bilan soya–salqin piyoda yo'laklar va xiyobonlar orqali bog'lash kabi ishlar yuqoridaq usullar bilan birgalikda qishloq turar joylar dahasi va butun qishloq arxitekturasiga manzarali landshaft tus beruvchi omillar sifatida ro'yobga chiqishi mumkin.

Ana shu nuqtai nazardan, ayniqsa, Respublikamiz shiroitida tabiiy–iqlim talablariga muvofiq piyoda yo'llar va umumiylar foydalaniluvchi ko'kalamzorlar dam olish zonalarining soya salqin bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Buni qulay landshaft va iqlim sharoitli tumanlarda ko'kalamzorlashtirish va har xil landshaft qurilmalari yordamida amalga oshirish mumkin bo'lsa, cho'l va lalimikor yaylovli

tumanlarda turli–tuman mo’jaz me’moriy shakllar va qurilmalar (soyabonlar, ishkomlar, galereyalar, ko’cha ko’lami ustidan ishlangan voishlar, yaxlit hajmlar va boshqalar) yordamida bajarish mumkin.



## 9-rasm.

Turar joy hududining rejaviy yechimi muayyan muhandislik omillariga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Masalan, qishloqda ochiq suniy sug'orish tizimi-ariqlar qazilsa turar joy hududining rejaviy yechimi to'g'ri chiziqli ko'rinishga ega bo'ladi. Bu omil tog' etagida joylashgan qishloqlarda o'z ta'sirini yo'qotadi, chunki qiyalik joylarda sug'orish shohobchalari joy relyefiga muvofia egri chiziqli qilib o'tkaziladi va turar joy rejasiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Kelajak sug'orish tizimlari yopiq (truboprovodlar bo'ylab) avtomatik sug'orish shahobchalaridan foydalanilganda turar joylar rejaviy yechimi mazkur omilga bog'liq bo'lmay, istalgan ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Qishloq turar joy qurilishiga xos bo'lgan qiyofalardan biri ko'cha perspektivasining uzluksizligi, shakllarning izchilligi, siluetning oddiyligidir. Ko'cha qurilishining xarakterli o'xshashligida unga xos bo'lgan bunday qiyofani boyitish maqsadida xalq me'morchiligi turar joy binolari qurilishida qo'llanilgan har xil me'moriy urg'u (aksent)larni kiritish hisobiga amalga oshirilishini taklif qilinadi. Xalq me'morchiligiga xos qishloq uylarida darvozaxona, unga o'rnatilgan eshik yoki ko'cha eshigi hamda ularning chetlariga ziynatli bezakdor elementlar bilan sayqal berilganligi, ko'pincha, darvoza ustidan ikkinchi qavatda dam olish xonasi–boloxona qurilib, hovli ostonasiga savlatli tus berilganligini ko'rish mumkin.

Viloyat arxitektura va qurilish bo'limlari, tuman arxitektorlarida joylarda aholini qishloq uylarining namunaviy me'moriy bezaklari, ko'chalarni va ommaviy dam olish maskanlari–bog'–parklar va xiyobonlarni ko'kalamzorlashtirish, ularda qo'llaniladigan o'simliklar va landshaft kompozistiyalari, hovli landshaft dizaynining namunaviy yechimlari bilan tanishtiruvchi grafik–albomlar bo'lishi kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan talablarni amalga oshirish, loyihalash va qurish tajribasida ularga amal qilish, qishloq arxitekturasi va umuman, qishloqlarning shaharsozlik qiyofasini, landshaft arxitekturasini zamonamiz talablarga mos ravishda o'zgartirishga, qishloqlarni qayta qurish sur'atini tezlashtiriga yordam beradi.

### **2.3. O'simliklar va ularning badiiy–manzaraviy xususiyatlari**

Shahar va qishloqlarda aholi turar joylarining me'moriy–badiiy va estetik ko'rinishini shakllantirishda va atrof–muhit ekologiyasini muhofaza qilishda daraxt va butalarning roli nihoyatda kattadir. Ular me'moriy qimmatga ega bo'lgan binolar, inshootlar, yodgorliklarga soya berishi bilan bir qatorda, ochiq devorlar, to'siqlar, eski binolar, sanoat ob'yecklarining noestetik ko'rinishini bartaraf etishga ham xizmat qiladi. O'simliklarni atrof–muhit masshtabi va binolarning me'moriy yechimiga mos ravishda to'g'ri tanlash ularga yanada ko'rkam va go'zallik baxshida etadi.

Daraxt va butalardan tashkil etilgan bog'–parklar va xiyobonlar atrofimizdagi olamning o'ziga xos zaruriy tarkibiy qismi bo'lib, keskin kontinental, issiq quruq iqlim sharoitida atrof–muhit tabiiyligini saqlash va uni sog'lomlashtirish vazifasini o'taydi. Yashil maydonlar havo harorati va namligini mo'ta'dillashtiradi, daraxt va butalar bilan qoplangan yashil maydonlarda havo harorati yilning issiq vaqtlarida atrof muhit haroratiga nisbatan  $7-10 S^0$  gacha salqinroq va havo namligi esa 20–30 % ko'p bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, issiq iqlimli sharoithi shaharlarda daraxtlarning bu xususiyatlari katta ahamiyatga egadir.

Ignabargli va keng bargli daraxtzorlarning havodagi gaz almashinushi jarayonidagi ahamiyati ham juda kattadir. Daraxt va butalarning azot oksidi, oltingugurt, ftorli vodorod, kislota bug'i balansini ushlab turishda ham bevosita ahamiyat kasb etadi. Lekin gaz almashinushi jarayoni hamma o'simliklarda har xil o'tadi. Ayniqsa, yaproq bargli o'simliklarda bu jarayon igna bargli o'simliklarga qaraganda ancha jadal kechadi. Respublikamiz iqlim sharoitida aholi turar joylari, ayniqsa, yilning issiq davrlarida kuchli darajada changlanishi bilan ajralib turadi va bunda uning cho'l hududlarida esadigan garmsel va afg'on shamollarining atrof–muhitga salbiy ta'siri kattadir. Bunday sharoitda daraxt va butazorlarning chang ushlab qolish xususiyatidan foydalilaniladi. Daraxtlar qanchalik zinch joylashgan bo'lsa va barg yuzasi katta bo'lsa changni shuncha ko'p ushlab qoladi. Ayniqsa daraxtlarning barglari vegetastiya davri boshida, changni ushlab qolish intensivligi

kuchli bo'lib, vegetastiya davri oxiriga qarab kamayib boradi. Tadqiqotlarga ko'ra, igna bargli daraxtlar har yili o'rtacha gektariga 40 tonna changni ushlab qolsa, yaproq bargli daraxtlar 100 tonnagacha changni ushlab qoladi. Atmosfera kuchli changlanishi kuzatiladigan hududlarda yaproq bargli daraxtzorlar va yashil maydonlar barpo qilish atmosfera nisbiy namligini ham oshiradi, nisbiy namlikni oshishi esa atmosferaga chang chiqishini kamaytiradi. Shu sababli yirik shaharlarda, sanoat markazlari yaqinida 500 metrgacha radiusda shahar atroflaridan yirik ignabargli va yaproq bargli daraxtzorlarni yashil maydonlar bilan birgalikda barpo qilish nisbiy namlikni oshirib, atmoferada chang va har xil aerozollar va gazlar miqdorining kamayishiga olib keladi.

Daraxt va butazorlarning sanitار–gigenik xususiyati fitonsidlik xususiyati, ya'ni kuchli rivojlangan og'riqlarni keltirib chiqaruvchi mikro-organizmlarni yo'q qiluvchi moddalarni chiqarishi bilan ham o'ziga xosdir. Masalan, terak barglari o'zidan ichburug' kasalligini qo'zg'atuvchilarni yo'q qiluvchi moddalarni chiqaradi. Ignat bargli daraxtlar esa fitonsid ishlab chiqarishda yuqori o'rindarda turadi. 1 gektar archazor 1 sutkada 30 kg, qora qarag'ay va qorag'ay 20–25 kg bakteriosid moddalarni o'zidan ajratib chiqaradi. Bunday miqdordagi fitonsidlar katta shaharlardagi barcha mikroblarni yo'q qilish uchun yetarli hisoblanadi. Manzarali daraxtlardan oq akastiya, soxta kashtan, oddiy qayin, tatar zarangi, qayrag'och, tol, olma fitonsidlarning eng asosiy manbaidir. Daraxtlarning fitonsidlik xususiyati kurtaklash, gullash fazasida va issiq hamda quyosh aktivligi ta'sirida yanada kuchayadi. Shuningdek, igna bargli daraxtlarning atmosferani biologik tozalashdagi yashil filtr vazifasi ham juda kattadir. Masalan, rux, kobalt, xrom, mis, molibden kabi kimyoviy mikroelementlarning miqdori havo yaxshi aylanmaydigan aholi tig'is yashaydigan joylarda, transport va har xil chiqindilar ta'sirida atmosfera havosida ko'payishi kuzatiladi. Bu elementlar miqdorining ruxsat etilgan me'yоридан ortib ketishi atrof–muhitni ifloslantirishga olib keladi. Bu esa aholining turli kasallikkarga chalinishiga sabab bo'ladi. Bunday hududlarda daraxtzorlarni barpo qilish zarali mikroelementlar miqdorini kamaytirishga olib keladi, ayniqsa, atmosferadagi temir va marganest miqdorini kamaytirishda soxta

kashtan va mayda bargli jo'ka (lipa), temir va mishyak miqdorini kamaytirishda esa terak daraxti, mishyak va oltingugurtni tozalashda zarang daraxtining samaradorligi yuqoridir.

Umuman olganda, igna va yaproq bargli daraxtlar majmuasi, ulardan tuzilgan yashil kompozistiyalar atmosfera havosini tozalashning eng yaxshi vositasidir. Daraxt va butalarni, ayniqsa, igna va yaproq bargli daraxtlarni birgalikda ekish, ulardan turli landshaft kompozistiyalarni yaratish bizning iqlim mintaqamizda yaxshi samara beradi, chunki ko'pincha igna bargli daraxtlarning quruq issiq davrlarda issiqdan zararlanishi kuzatiladi, chunki bu daraxtlar havoning nisbiy namligiga talabchan hisoblanadi. Havo namligini saqlashda yaproq bargli daraxtlarning roli kattadir. Bu esa ularning bir biridagi kamchiliklarni to'ldirib atrof-muhit musaffoligini ta'minlaydi.

Zamonaviy urbanizastiyalashuv faoliyatining atrof-muhitga kuchli ta'sir etishi natijasida aholining ruhiy holati keskinlashadi, jismoniy kuchlanishi esa og'irlashadi, bunday sharoitda daraxtzor va ko'kalamzorlarning inson salomatligi, ayniqsa, yosh bolalar va qariyalar sog'ligi uchun ahamiyati kattadir. Katta shaharlarning markazida yirik bog'-parklarni tashkil etish ekologik nuqtai nazardan eng lozim bo'lган ishlardan hisoblanadi.

Shu sababli shahar va qishloqlardagi jamoat binolarini, ayniqsa, o'quv muassasalari va ijtimoiy binolarni loyihalashda yashil maydonlarda daraxt va butalarning turli xil majmularini shakllantirish va ko'kalamzorlar tizimini to'g'ri tashkil etish atrof muhitni sog'lomlashtirish va ekologik nuqtai nazardan katta ahamitga egadir.

**O'simliklar klassifikatsiyasi** (*10-rasm*). Ma'lumki, landshaft arxitekturasi amaliyotida asosan manzarali o'simliklardan foydalaniladi. Ularga daraxtlar, butalar, tirmashib o'suvchi (lian)lar, gullar, o'tli va eryopar o'simliklar kiradi. Daraxtsimon o'simliklarga asosan daraxt va butalar kiradi. Daraxtlar 3 qismdan: ildizlari, yerdan o'sib chiqqan yagona tanasi (stvoli) va yuqoridagi asosiy qismi—bargli shox—shabbalaridan iborat bo'ladi. Butalarda esa daraxtlarnikidek yagona tana bo'lmaydi, ular asosan 2 qismdan: yer ostidagi ildizlari va yerdan o'sib

chiqqan ko'p sonli ingichka tanalari va ularga birikkan bargli shox-shabbalardan iborat. Daraxtlar butalarga nisbatan baland o'sadi, uzoq yashaydi va mustahkam bo'ladi. Biroq, daraxtlar va butalar o'rtasiga aniq chegara qo'yish qiyin, chunki ayrim baland butalar, masalan, safora yoki padub xuddi pastqam daraxtlar kabi o'ssa, ayrim past daraxtlarning bo'yi baland butalarniki kabidir.

Barcha daraxt va butalar ko'p yillik o'simlik hisoblanib, doim yashil va bargi tushuvchi guruhlarga bo'linadi. Doim yashil daraxt va butalar ham o'z navbatida xvoy tipidagilarga va bargi yaproqlilarga bo'linadi. Xvoy tipidagilar doim igna bargli bo'ladi va gullah davrida gul o'rniga g'udda solishi bilan bargi yaproqli daraxt va butalardan ajralib turadi.

O'zbekistonda o'sadigan **xvoy tipidagi ignabargli daraxtlarga** sharq biotasi, tikonli archa, havorang archa, orizon kiparisi, botqoq kiparisi, virgin mojjevelnigi, Zarafshon mojjevelnigi, Qrim qarag'ayi, oddiy qarag'ay, Eldar qarag'ayi, avstriya qoraqarag'aylari kirsa, **doim yashil bargi yaproqli manzarali daraxtlarga** magnoliya va ginkgolarni kiritish mumkin.


O'zbekistonda o'sadigan **doim yashil butalarga** Turkiston mojjevelnigi, yapon normushugi, doim yashil shamshod va daraxtsimon g'arb sarvilarini kiritish mumkin. Bargi tushuvchi manzarali daraxt va butalarning soni juda ko'p va xilma-xildir.

**Daraxt va butalarning tabiiy biologik xususiyatlari** ularning balandligi, tashqi ko'rinishi, shakli va rangi, shox-shabbadalarining tig'izligi, gullah davri, gullarining rangi, suvsizlikka chidamliligi, yashovchanlik davri kabi belgilar kiradi.

Navqiron daraxtlar balandligiga qarab 1-, 2- va 3-kattalikdagi daraxtlarga bo'linadi:

**1- kattalikdagi daraxtlar** balandligi 20 m va undan yuqori. Ularga odatda, tikonli archa, oddiy qarag'ay, Qrim qarag'ayi, iva belaya, topol beliy, chinor, oddiy eman, madaniy zarang, oddiy shumtol, katta bargli jo'ka va boshqalar kiradi;

**2- kattalikdagi daraxtlar** bo'yи 10 dan 20 m gacha bo'ladi: Eldar qarag'ayi, dala zarangi, mojjevelnik, soxta kashtan, g'arb sarvi, Amerika shumtoli va boshqalar ana shunday daraxtlarga misoldir;



Daraxtsimonlarning tabiiy ko'rinishlari: 1-yoyilgan shakli, 2-piramidasimon: a-konussimon, b-zabzisimon, v-usunsimon, 3-oval, 4-tuxumsimon, 5-teskari tuxumsimon, 6-soyabon, 7-sharsimon: a-tanali shar,b-butा shar, 8-majnuntol, 9-chirmoviq, 10-yer bag'irlab, 11-yostiqsimon

Vaproq bargli daraxtlarning tabiiy shakllar

### O'ZBEKISTONDA O'SADIGAN O'SIMLIKLARNING XILLARI

Daraxtlarning turlari	Butalarning turlari	Tirmashib va chirmashib o'suvchi o'simliklar-lianlar
<b>Qishin-yozin ko'm-ko'k bo'lib o'suvchi daraxtlar</b>	<b>Qishin-yozin ko'm-ko'k bo'lib o'suvchi butalar</b>	Chirmashuvchi atirgullar: Krasniy Mayak, Krimson, Rombler, Nyu Daun Vinograd amarskiy, Vinograd Berlande Vinogradovnik korotkotichnikoviy (ampelepsis) Vinogradovnik yaponskiy
Virchin mojvelnigi Sharq biotasi, G'arb tuyasi Palassa qoraqayi, qora qorag'ay Eldar qorag'ayi, Tikonli archa Kumush archa, Kiparis	Beresklet yaponkiy melkolistniy Beresklet yaponkiy krupnolistniy Buxsus (samshit), Magoniya padubolistnaya Mojvelnik kazatskiy Mojvelnik turkestanskii	<b>Veryopar o'simliklar</b> Barvinok bolshoy i malii, verbeynik monetchatyi, Dyushenye (zemlyanika) indiyskaya, jivuchka polzuchaya Sedum karneum, floks shilovidniy
<b>Bargi tushuvchi daraxtlar</b>	<b>Bargi tushuvchi butalar</b>	<b>GULLAR</b> <b>Bir va ikki yillik gullar</b>
Dub (zarang), Klen ostrolistniy Platan vostochniy (chinor), Yasan, Klyon, Klyon polevoy, Klyon yavor, Klyon serebristiy, Yapon saforasi, Qayrag'och, Katalpa, Lipa, Terak, Tol, Kanada bundugi, Rudbekiya (gibrnidnaya i volosataya), Majnuntol, Soxta kashtan, Petuniya gibrnidnaya Margaritka, Akatsiya, Tyulpan daraxti, Kanada bagryannigi, Bereza	Atirgullar Venger sirenli va boshqalar navlari Yapon ayvasi, Amorfa, Buzina Buduleya, Davida, Tog' olchasi Veygelya, Tamariks Ligustrum (bryuchina) Tavolga (spireya)	Redbekiya razreznolistnaya, fialka, nezabudka Tsinniyy izyahnaya enotera, margaritka Salvia krasnaya, Romashka, gvozdika, kolokolchik
<b>Mevali daraxtlar</b>	<b>Gullovlchi butalar</b>	<b>Ko'p yillik gullar</b>
Olma, nok, o'rik, olxori, behi, anor, olcha, shaftoli, gilos, anjir, yong'oq, bodom, jiyya, xurmo	Atirgullar, sirenlar Jasmin (chabushnik Deytsiya Jimolist Forzisiya	Axirantes, Astra mnogoletnyaya, Begoniya gratsilis Verbenia gibrnidnaya, Verbena jestkaya Viola trextsvetnaya (anyutini glazki) Gaylardiya gibrnidnaya, Georgini karlikovnie «Minon» Iris sadovi yoki gibrnidie, Kannia Koreopsis krupnotsvetkovoy, Margaritka Pelargoniya (geran), Portulax krupnotsvetkoviy Margaritka, Pelargoniya (geran) Portulak krupnotsvetkoviy, Rayxon, Romashka Xrizantemi melkotsvetnie, Salvia

### 10-rasm.

**3- kattalikdagi daraxtlar** bo'yи 5 dan 10 m gacha. Ularga Kanada archasi, lenkoran akassi, ginal zarangi, arg'uvon, tol, do'lana, yapon soforasi, oddiy mojjevelnik va boshqalar kiradi.

**Bo'yи 5 m dan past daraxtlarni** manzaraviy xususiyatlariiga ko'ra balandligi 0,5 m dan 5 m gacha bo'lgan butalar guruhiga kiritish mumkin.

Butalar balandligiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- **baland butalar** (2-5 m): oddiy mojjevelnik, bundenej chingizi, oddiy siren, amorfa, sharq biotasi, sariq akasiya va boshqalar;
- **o'rta bo'yili butalar** (1-2 m): manzaraviy pion, ligustrum, siren, normushuk, Ven-Gutta va boshqalar;
- **pakana butalar** (0,5-1 m): Qozoq archasi, magoniya, spireya bumalda, spireya yaponskaya, ayva yaponskaya, deystiya, snejnoyagodnik va boshqalar.

Daraxtlar ichida quyoshni yoqtiruvchi, ya'ni **soya joyda yaxshi o'sa olmaydigan** (beryoz, dub, klyon yasenelistniy, yasen, topol, oddiy sosna, olxa chyornaya va boshqalar) va **soyada o'sa oladigan**, ya'ni soyaga chidamli turlari (kashtan konskiy, yel tatarskaya, lipa, platan, boyarishnik, jimolost, kalina va boshqalar) ham mavjud.

Manzaraviy samaraga erishishning tezkor usuli-bu loyihalanayotgan hududga **tez o'suvchi daraxtlar va butalarni** ekishdir. Evkalipt, topol chyorniy, piramidalniy, kanadskiy, balzamicheskiy, osina, aylant, gledichiya, vyaz, klyon yasenelistniy, iva plakuchaya, yasen zelyonyiy, oddiy sosna, akastiya belaya, biryuchina, buzina, chubushnik, jimolost, lox, smorodina zolotistaya va boshqalar ana shunday tez o'suvchi o'simliklardir. Yerning qiyali joylarida tuproqni mustahkam saqlashga yordam beruvchi, ildizi keng va tarqalib o'suvchi o'simliklar borki, ularga klyon polevoy, tatarskiy, akastiya jyoltaya, oddiy leshina, kizilnik, boyarishnik, lox uzkolistniy, gledichiya va boshqalar kiradi.

O'zbekiston sharoitida **daraxt va butalarning namlik (suv)ga bo'lgan ehtiyojini** hisobga olish katta ahamiyatga egadir. Bu jihatdan ularni 3 guruhga bo'lish mumkin:

- 1) namlikka talabchan o'simliklar (bolotniy kiparis, ivalar, lapina, topol turanga, olxa chyornaya va bosh.);
- 2) namlikka talabchanligi o'rtacha o'simliklar (barxat amurskiy, beryoza pushistaya, vyaz gladkiy, klyon yavr, klyon ostrolistniy, lipa melkolistnaya, magnoliya, yasen obiknovenniy, yel kolyuchaya, yel serebristaya, tis yagodniy);
- 3) namlikka kam talabchan o'simliklar (ayva yaponskaya, ayland, karagach, akastiya belaya, amorfa, bryuchina obiknovennaya, boyarishnik, glidichiya, byota, yel kolyuchaya, mojjevelnik virginskiy, mojjevelnik kazastkiy, sosna krimskaya, sosna obiknovennaya).

**Sho'rxok tuproqlarga chidamli daraxt va butalar** borki, ularni bilish ham foydadan holi emas. Solyankalar, chingil, grebenшik, saksaul, milnoe derevo kabi o'simliklar xlорli sho'r tuproqda o'sa olish qobiliyatiga ega.

Yasen, lipa, lavr blagorodniy, maslina yevropeyskaya kabilar hatto izvestli tuproqqa talabchan daraxtsimonlardir. Aylant (xitoy yaseni) esa neft bilan ifloslangan tuproqda ham o'sa oladi. Shunday ekan o'simliklarni o'tqazishda tuproqni yaxshilash imkon bo'lmasa, eng to'g'ri yo'l bu shu tuproqqa mos keluvchi o'simlikni tanlashdir.

**Sho'rxoq tuproqlarda o'suvchi daraxt va butalarga yuqorida ko'rsatilgandek yasen, lipa, lavr blagarodniy, maslina yevropeyskaya, ayland kabilar kiradi.**

Ma'lumki, daraxt va butalar hududlarni tashqi ekologik ta'sirlardan himoyalash vazifasini ham bajaradi. Ana shunday paytlarda:

**Shovqindan himoyalanish uchun** klyon ostrolistniy, oddiy vyaz, mayda bargli lipa, oddiy yel, listvenista sibirskaya, jimolost tatarskaya, sariq akastiya, sibir boyarishniklarini;

**Gazlardan himoyalanish uchun** klyon pensilvanskiy, leshina, kashtan konskiy, manjurskaya, gledichaya tryoxkolyuchkovaya, topol seriylar va chyorniy, topol kanadskiy, oq akastiya, biota, shelkovista belaya, mojjevelniki virginskiy, kazastkiy, oddiy biryuchina, lipa voylochnaya va boshqalarni;

**Changlardan himoyalanish uchun** vyaz peristovetvistiy, iva belaya plakuchaya, kashtan konskiy, kulrang klyon, klyon tatarskiy, polevoy, topol

kanadskiy, topol bolle, shelkovista belaya, yasen zelyoniy va obiknovenniy, akastiya jeltaya, oddiy biryuchina, lox uzkolistiy, spireya Van–Guttalarni tanlash tavsiya etiladi.

**Shamolni to'sish va hududni soyalashtirish** maqsadida esa shoxshabbalari tig'iz o'suvchi dub obiknovenniy, kashtan konskiy, klyon ostro-listniy va polevoy, oddiy yel, dub chereshchatiy, gledichiya, magnoliya, mayda bargli lipa va boshqalarni tanlash tavsiya etiladi.

O'simliklarni guruhlab ekish uchun tanlashda ularning me'moriy-badiiy xususiyatlariga: balandligi, tashqi shakli-shamoyili, rangi, barglarining xususiyatlariga, ayniqsa, guruhdagi daraxtlarning bo'yisi va tashqi ko'rinishlarining o'zaro kontrast yoki nyuans munosabatlarda bo'lishligiga asosiy e'tiborni qaratish zarurdir.

Guruhlarni shakllantirishda guruh tarkibiga tanlanayotgan o'simliklarning o'suvchanligi va yashovchanligini hisobga olish zarur, ya'ni daraxtlarning tez o'suvchi xillarini sekin o'suvchilar yoniga va quyoshni yoqtiruvchilarni soya beruvchi daraxtlar ostiga ekmaslik lozim.

Daraxt va butalarni loyiha ishlarida qo'llash, ulardan yashil kompozistiyalar tuzish va ekish uchun tanlash, ularning dekorativ sifatlarini o'rganish va bilish katta ahamiyatga egadir. Ana shunday xususiyatlardan biri ularning tabiiy shakli-shamoyili va shoxbarglarining tig'isligidir.

**O'simliklarning badiiy–manzaraviy xususiyatlari.** Manzarali daraxtlarni tabiiy ko'rinishi va shakliga ko'ra umumiy tarzda ikki guruhga bo'lish mumkin: geometrik shaklli va nogeometrik shaklli daraxtlar. Birinchi guruhga ko'rinishi piramidasimon, ustunsimon (savizsimon), tuxumsimon, sharsimon, oval va sfera shaklidagi daraxtlar kirsa, ikkinchisiga–yonlariga taraqaylagan, majnunsimon, soyabonsimon, chodirsimon, ikkitanalik va sochilib o'suvchi daraxtlar kiradi.

Butalar ham tabiiy ko'rinishiga ko'ra quyidagicha shakllarga ega: cho'zinchoq oval (spireya), sharsimon (barbaris tunberga), oval (atirgullar), yonlariga sochilgan (mojjevelnik kazastkiy), yonlariga tekis tarqalgan (kizilnik gorizontalniy), konussimon (tuya zapadnaya).

Daraxt va butalarning shakllari fasllarga va ularning yoshiga qarab o'zgarib turadi. Ularga formovka, ya'ni shox-shabbalarini qirtishlash yo'li bilan turli xil sun'iy shakllar ham berish mumkin. Biroq, barcha daraxt va butalarni o'rta yoshidagi tabiiy shaklu-shamoyillariga qarab quyidagi bir-biridan farq qiluvchi shakliy ko'rinishlarga bo'lismumkin:

- 1) yoyilgan (taraqaylagan): daraxtlardan–vyaz, dub, dub chereshchatiy, iva, topol beliy; butalardan–shelkovista belaya va boshqalar;
- 2) piramidasimon (konussimon, ustunsimon): daraxtlardan–dub piramidalniy, klyon ostrolistniy, topol piramidalniy; butalardan–tuya za-padnaya, biota va boshqalar;
- 3) ovalsimon (ellipssimon) va uning variantlari: daraxtlardan–soxta kashtan, klyon va boshqalar;
- 4) tuxumsimon: daraxtlardan–tuxumsimon lipa, veymutov sosnasi;
- 5) teskari tuxumsimon: siriya gibiskusi daraxti;
- 6) soyabonsimon: daraxtlardan–aylant, albistiya, italiya sosnasi; butalardan Van–Gutta sipereyasi;
- 7) sharsimon (tanali va butali turlari mavjud): daraxtlardan–sharsimon qarag'och, sofora, sibir olmasi; butalardan–kalina, beresklet, siren va boshqalar;
- 8) egik, ya'ni majnun shaklli: egik beryoza oq bobil va oq majnuntol daraxtlari;
- 9) tirmashgan va chirmashgan ko'rinishli: tok, jimolost, glistiniya, tekoma va boshqalar;
- 10) yer bag'irlab yozilib o'suvchilar: mojovelnik kazastkiy, kizilnik butalari;
- 11) yostiqsimon: Lavson kiparisi, mikrobiota, yostiqsimon kizilnik.

Ayrim daraxtlarning, masalan, dub chereshchatiyning har xil: piramidasimon, sharsimon va egik shaklli ko'rinishlari mavjud.

Bog'–park yashil kompozistiyalarini yaratishda o'simliklarning tabiiy shakllari va balandligidan tashqari shoxlari va barglarining tig'isligi, barglarning katta–kichikligi, naqsh va rangi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Shox–shabbalarining tig’isligi**, ya’ni massivligi bo'yicha daraxt va butalar tig’is, o’rtacha tig’is yoki tig’is emas (siyrak) ko’rinishlarga ega bo’ladi. Tig’is ko’rinishli daraxtsimon o’simliklar me’moriy imoratlar, haykallar va gullovg’i butalarga yaxshi manzarali fon rolini bajaradi, kuchli shamollar va chang-to’zonlardan himoyalanish, soya–salqin muhitlar yaratishda asqotadi. **Tig’is shoxli daraxtlarga** qayrag’och, soxta kashtan, uchqur bargli klyon, o’rtacha tig’islilarga aylant, amur barxati, oq majnuntol, bobil majnuntoli, kumush klyon, livan kedri, yunon yong’oqi; siyrak daraxtlarga oq akastiya, albistiya, amorfa, gledichiya, drok, yapon saforasi, oddiy yasenlar kiradi.

**Daraxtsimon o’simliklar barglarining manzaraviy sifatlarini** (bargining shakli, katta–kichikligi, rangi, rangining fasllardagi o’zgarishi va shoxlardagi joylashishini) bilish ham ulardan foydalanish va ko’kalamzorlashtirishda samarali qo’llash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, alohida ekiluvchi yashil kompozistiyalar–soliterlar uchun o’simliklar tanlashda daraxtlar va butalarning dekorativ sifatlarini bilish asosiy vazifalardan biridir.

Daraxt va butalar barglarining tuzilishi: sodda va murakkab, ular ham o’z navbatida - ulkan, yirik, o’rtacha, kichik va mayda barglilarga bo’linadi. **Ulkan barglilarga** katalpa, aylant, bunduk, magoniya va boshqalar kirsa, **yirik barglilarga** yavor, lipa, qora yong’oq, kulrang va yunon yong’og’i, oddiy yasen, albistiya, soxta kashtanlar; **mayda barglilarga** spireya, buksus, grebenshik, ispan droki, maydabargli yapon bereskleti va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari barglarning yaltiroq yoki fakturali bo’lishligini ham bilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, magnoliya, shamshit, nok, yunon yong’oqi va boshqalarning bargi yaltiroq bo’lsa, qayrag’och turlarining barglari fakturalidir.

**Gullarining rangiga qarab daraxt va butalarni quyidagi guruhlarga bo’lish mumkin:**

a) turlicha tonga ega bo’lgan oqchil rangli gullilar: grusha, destiya, katalpa, kashtan konskiy, lomonos, magnoliya, yasen stvetochniy, kalina sadovaya va boshqalar;

b) sariq va oranjevoy rangli gullilar: barbaris, drok, zveroboy, lipa, magnoliya, milnoe derevo, roza jeltaya va boshqalar;

v) qizil, alvon va to'q qizil rangli gullilar: abrikos, ayva yaponskaya, boyarishnik, mindal nizkiy va boshqalar;

g) havorang, ko'kish yoki binafsha rangli gullilar: buddleya, glistinya kitayskaya, gibiskus siriskiy, lomonos Jakmana, pyurerariya va boshqalar;

d) yashil rangli gullilar: bunduk, glidichiya, aylant va boshqalar.

Ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladigan daraxtsimon o'simliklarni tanlashda ularning barglaridan tashqari gullarining manzaraviy sifatlariga e'tibor berish ham muhim ahamiyatga ega. Daraxtlardan magnoliya, soxta kashtan, akas, butalardan yapon ayvasi, atirgullar, siren, forzitsiya va boshqalar o'ta chiroyli va samarali gullah qobiliyatiga ega.

#### **2.4. O'simliklarning o'sish imkoniyatlari bo'yicha O'zbekiston hududining zona va tumanlarga bo'linishi**

O'zbekiston hududining shimoliy-g'arbdan sharqqa qarab cho'zilib va yana janubga qarab kengayib borishi tufayli turli xil tabiiy sharoitlar: cho'l va dasht, sahro, tog' oldi va tog'lik hududlardan hamda voha va vodiylardan tuzilgan (11-rasm). Butun respublikaga tez o'zgaruvchan kontinental iqlim xos bo'lib, u yozda yuqori, qishda esa past haroratli, havoning quruqligi, sutka haroratining tez o'zgarishi, vegetastiya davridagi yog'inlar hajmining pastligi (120–130 mm) va parlanishning kattaligi bilan ajralib turadi.

Respublikaning katta qismida yoz paytlari quruq issiq shamollar—"afg'on", "garsel" esishi, qishda esa sovuq shamollar esishi xarakterlidir. Respublikamizga xos bunday tabiiy iqlim sharoitlar uning ayrim hududlarida ko'kalamzorlarni yaratish, daraxtlar, butalar va gullarni o'stirish, parvarishlash imkoniyatlarining pastligini bildiradi.

O'zbekistonning tuprog'i va tabiiy imkoniyatlari ko'kalamlarni o'stirish va landshaft yaratish uchun faqat vodiylardagina qulayliklarga ega. Bog'bonlar faqat

madaniylashtirilgan va sug'oriladigan yerlardagina qulay imkoniyatlarga ega. Yangi o'zlashtirilayotgan shaharlar, qishloq aholi punktlari va hududlarda sho'rxok, qumloq, shag'alli yoki sun'iy madaniylashtirilgan tuproqlar bilan va qimmatbaho meliorastiya ishlarini amalga oshirish yordamida ish ko'rishga to'g'ri keladi.

O'zbekistonning turlicha tabiiy iqlim zonalarida tuproqning gidrogeologik va sug'orish rejimi ham turlichadir. Suv resurslari va manbalarining kamligi yoki tuproqning sho'rxoqligi tufayli ko'kalamlar va ekinlarni sug'orish imkoniyatlari ham cheklangan.

Biroq, O'zbekistonda hozirgi kunda olib borilayotgan o'simliklarni introdukstiyalash va akklimatizalashtirish ishlari tufayli ko'kalamzorlashtirish va landshaft arxitekturasida qo'llaniladigan manzarali o'simliklar assortimentini kengaytirish, yangi landshaftlar yaratish imkoniyatlari mavjud. Ularning aksariyati xorijiy mamlakatlardan keltirilib, o'zimizdagi mahalliy iqlim sharoitlarga moslashtirilmoqda.

Tan olish kerakki, o'simliklarni o'stirish, ayniqsa, manzarali landshaft yaratish ko'p jihatdan mahalliy tabiiy iqlim sharoitlar, tuproq, suv va ob-havo sharoitlariga bog'liqdir. Respublikamizdagi mavjud eng past qishgi havo harorati: -38 gradus Ustyurda, -25 gradus Termizda, -30 gradus Toshkentda, -35 gradus tog' oldi zonalaridagi holatlar, afsuski, janubda o'sadigan ekzotik manzarali, issiqni sevuvchi go'zal daraxt va butalarni o'stirish imkoniyatlarini qiyinlashtiradi. Va aksincha respublikamizning +44–49 gradus absolyut yuqori issiq havo harorati nisbatan sovuq iqlimlarda o'suvchi g'oyat manzarali nafis daraxt va butalarni bizda o'stirish, ulardan landshaft yaratishda foydalanishga to'siq bo'lsa, yoz paytidagi o'ta quruq (namligi 10–20 % dan oshmaydigan) havoda namlikni sevuvchi subtropik o'simliklarning respublikamiz sharoitida o'sishini qiyinlashtiradi. Tuproqning sho'rxoqligi va yer osti suvlarining balandligi ham bunga to'sqinlik qiladi.

Respublikamizdagi mavjud ana shunday sharoitlarni nazarda tutib, 1982 yilda TashZNIIEP (Toshkent zonal ilmiy–tadqiqot va tajriba loyihalash) instituti

Respublikamiz hududida manzarali o'simliklarni o'stirishning agroiqlimiylarini imkoniyatlarini hisobga olgan holda, butun respublika hududini 3 ta geografik zona va 11 ta mintaqaviy tumanlarga bo'lib chiqqan (*12-rasm*). Bunda nafaqat hududlarning iqlim sharoiti, balki tuproq-geologik, gidrogeologik, suv xo'jalik va iqtisodiy sharoitlari ham e'tiborga olingan. Unga ko'ra, O'zbekiston hududi 3 ta tabiiy geografik zonalarga: shimoliy, sharqiy va janubiy zonalarga bo'lib chiqilgan. Ushbu zonalar o'z navbatida mintaqaviy geografik va ma'muriy tumanlarga bo'lingan. Ularning tabiiy-iqlim va tuproq sharoitlari haqidagi ma'lumotlar 1-ilovada keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan tumanlarda ko'kalamzorlashtirish ishlarini samarali olib borish uchun ularda quyidagi agrotexnik va meliorativ tadbirlarni u yoki bu darajada olib borish talab etiladi:

1. I-A, I-B, I-G, II-A, II-B, III-A, III-B va III-V indeksli tumanlarda yer osti suvlari sathini pasaytirish va qish faslida sho'rangan tuproqlarni yuvish tadbirlarini o'tkazish.

2. I-B, I-V, I-G, II-V va III-G indeksli tumanlarda tuproqni almashtirish yoki bu tumanlarga xos qumli va galkali tuproqlarga mayin tuproq gruntlarini qo'shish usuli bilan tuproq sifatini yaxshilash ishlarini olib borish.

3. II-V va III-G indeksli tumanlarda yer qiyaliklarini joylarda tekis pog'onalar—"chel"larga bo'lib chiqish ishlarini o'tkazish.

4. O'simliklarning vegetastiya mavsumida ularni tejamli va me'yoriy sug'orish ishlarini bajarish va o'tkazish, ya'ni:

- I-V, II-B, III-V, III-G tumanlarda ko'kalamzorlashtirilayotgan yerlarni mavsumda 18-23 marta sug'orish, bunda 1 hektar yerga 12-15 ming  $m^3$  suv sarflash;

- I-A, I-B, I-G, II-A, II-V, III-A, III-B tumanlarda esa sug'orishni mavsum davomida 8-10 marta o'tkazish, 1 hektar yerga 8-10 ming  $m^3$  suv sarflash tavsiya etiladi.

Shahar va qishloqlarda ko'kalamlarni o'stirish va yaratish agrotexnikasi O'zbekistonning turli mintaqalarida bir xil bo'lmay, ularning tabiiy-iqlim va

geografik sharoitlariga bog'liq holda o'simliklarni tanlash, tuproqni o'g'itlash va o'simliklarni qirtishlash ishlari ham ana shu sharoitlarga mos tarzda olib boriladi.

Tabiiy geografik zonalar	Zonalarning tabiiy iqlimi xususiyatlari	O'simliklar o'sishining qulay yoki noqulayligi	Zonalarda landshaftni shakllantirish bo'yicha takliflar	Ekishga tavsiya etilayotgan asosiy daraxtsimon o'simliklar
<b>Shimoliy g'arbiy zona</b> (QQAR, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlari)	Sahro, qumli cho'l va dashtli hududlar hamda tog' oldi hududlari. Aksariyat joylarda tuproq sho'rangan	Sharoiti noqulay	Konteyner va tuvaklarga o'tqazilgan manzarali buta va gul o'simliklari hamda sun'iy maysa to'shamalarini qo'llash, o'simliklarni o'stirishning gidroprik va gidroposev usullaridan foydalanish, yer ostidan sug'orish, tomchilatib sug'orish, yer osti suvlarini pasaytirish, tuproq qatlarni almashtirish	Hosildor tuproqni talab qilmaydigan, sho'r va qumloq tuproqlarda o'sadigan geliofit daraxtsimon o'simliklar
<b>Sharqiy zona</b> (Toshkent, Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlari)	Voha va vodiylar hamda tog' oldi hududlari. Tuprog'i yaxshi	Sharoiti qulay	O'simliklarni an'anaviy usulda shakllantirish	O'simliklar turi cheklanmagan
<b>Markaziy zona</b> (Samarqand, Navoiy, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari)	Cho'l va dasht hamda tog' oldi hududlari. Turog'i yaxshi	Sharoiti qulay, qisman noqulay joylar mavjud	O'simliklarni an'anaviy usulda shakllantirish	O'simliklar turi cheklanmagan
<b>Janubiy zona</b> (qisman Samarqand viloyati, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari to'li?)	Cho'l va dashtli hamda tog' oldi va tog'li, adirli hududlar	Sharoiti noqulay	Konteyner va tuvaklarga o'tqazilgan manzarali buta va gul o'simliklaridan foydalanish, o'simliklarni o'stirishning gidroprik va gidroposev usullarini qo'llash, yer ostidan yoki tomchilatib sug'orish, yer osti suvlarini pasaytirish, tuproq qatlarni almashtirish	Hosildor tuproqni talab qilmaydigan, quruqlikka chidamli daraxtsimon o'simliklar

#### O'zbekistonning tabiiy–geografik zonalari va tumanlarini ko'kalamlashtirish uchun tavsiya etilgan daraxtsimon o'simliklar assortimentidan fragment (TashZNIIEP, 1984 y.).

Jadvalning to'liq shakli 3–ilovada keltirilgan

O'simliklar nomi	Zonalar bo'yicha tumanlar uchun taklif etiladigan o'simliklar											
	Sharqiy			Janubiy				Shimoliy				
	—	—	—	—	—	—	—	—	—	—	—	—
Биота восточная	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	-	+
Ель колючая	+	-	+	+	+	-	+	-	-	-	-	-
Кипарис аризонский	+	-	-	-	-	+	-	-	-	-	-	-
К.болотный обыкновенный	+	-	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-
Можжевельник виргинский	+	+	+	+	+	+	+	+	-	-	-	+

Ayniqsa, bu mintaqalarda ekiladigan daraxt va butalarning turlarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Jadvalda ko'rsatilgan Sharqiy zonaning tog'oldi tumanlarida (II–A rayoni) ekishga tavsiya etilgan o'simliklar turlari juda keng va ularni tanlashda deyarli chegara yo'q. Qolgan tumanlarni ko'kalamzorlashtirishda daraxt va butalarni tanlashga qat'iy talablar qo'yilgan. Bu talablar ushbu tumanlardagi tuproqlarning sho'rланishi, o'ta jazirama issiq (+40–45<sup>0</sup>) va sovuq (-30–35<sup>0</sup>) havoning davomiyligi, yer osti suvlarining yuqoriligi va qurg'oqchilikka chidamlilik talablari bilan bog'liqdir. Ushbu zona va tumanlar sharoitida qishloq aholi punktlarini ko'kalamlashtirish uchun tavsiya etilgan asosiy daraxtsimon o'simliklar assortimenti 2-ilovada keltirilgan.

Unda tavsiya etilayotgan o'simliklarning o'lchamlari, manzaraviy sifatlari, ekiladigan hudud, tuproq va iqlim omillariga bo'lgan munosabati, ularni qo'llash uslublari bo'yicha ham aniq ko'rsatmalar berilgan. Ta'kidlash lozimki, bu jadvalda keltirilgan daraxt va butalar soni bugungi kun va davr talablaridan ancha kamchilikni tashkil qiladi. Respublikamizdagi zamonaviy landshaft arxitekturasining kelajakdagi rivoji ularning sonini, ayniqsa, doim yashil daraxt va butalar sonining oshirilishini talab qiladi.

O'zbekiston qishloqlari iqlimining asosiy xususiyati ularda yozgi davrda havo haroratining haddan ziyod isib ketishi bo'lsa, qishda sovuq shamollarning esishi va havoningsovub ketishi bilan belgilanadi. Shu boisdan ko'kalamlarni loyihalash va yaratishda ochiq hududlarni, bino va inshootlarni yozgi issiq havodan himoyalash maqsadida soya va salqinlar yaratish, shuningdek ularni kuchli shamollar ta'siridan himoyalash va yozda shamollatish imkoniyatlarini yaratish lozim bo'ladi.

O'zbekistonda soya–salqin me'moriy landshaft muhitlarini hosil qilish maqsadida 1 hektar hududga 350–400 tagacha daraxt ekish talab qilinadi (mo'tadil iqlim uchun bu ko'rsatkich 170–200 ta qilib belgilangan). Daraxtlarni ekkanda joy relyefi va gidrogeografik sharoitlarni ham hisobga olib, havoning hududda to'xtab Qolmasligiga e'tiborni Qaratish lozim. Buning uchun aholisi ko'p tuman

markazlari atroflaridagi zonalarda kuchli shamollar yo'nalishiga perpendikulyar tarzda ekilgan himoyalovchi ko'kalamzorlar—“belbog’lar”ni shakllantirish lozim bo'lsa, qishloq shaharchalari hududini shamollatish maqsadida keng yashil xiyobonlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Zonalar		Mintaqaviy geografik tumanlar		Ma'muriy tumanlar
Nomlanishi	Indeksi	Nomlanishi	Indeksi	
SHIMOLIY ZONA	I	Amudaryo	I-A	Amudaryoning quyi oqimidagi tumanlar (Amudaryo, Nukus, Xo'jeyli, Shumanay va ularga yondosh joylashgan Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatining)
		Orol oldi	I-B	Mo'ynoq, Chimboy tumanlari va Qo'ng'irot tumanining suv yuvgan hududlari
		Qizilqum	I-V	Qoraqalpog'istondagi Taxtako'pir, Kegeyli, Beruniy, To'rko'l tumanlarining sahro qismi, Buxoro viloyatining Tomdi tumani va Konimex tumanining shimoliy qismi
		Ustyurt	I-G	Qoraqalpog'iston Qo'ng'irot tumaniga qarashli Ustyurt platosi
SHARQIY ZONA	II	Tog' oldi	II-A	Toshkent viloyati (Bekobod tumanisiz); Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyatining Samarqand va Urgut tumanlari
		Mirzacho'l	II-B	Sirdaryo va Jizzax viloyatlari; Toshkent viloyatining Bekobod tumani
		Adir joylar	II-V	Respublika sharqiy zonasiga chegarasidagi qir-adirlik hududlar
JANUBIY ZONA	III	Buxoro-Qarshi	III-A	Buxoro viloyati (Tomdibuloq va Konimex tumanining shimoliy qismlarisiz); Qashqadaryo viloyati
		Zarafshon	III-B	Samarqand viloyati (Samarqand, G'allaorol, Urgut va Nurota tumanlarisiz)
		Surxondaryo	III-V	Surxondaryo viloyati, Denov, Termez va Sherobod tumanlari
		Adir joylar	III-G	Janubiy zona chegarasidagi qir-adirlik hududlar

**Eslatma.** Ko'kalamlarni yaratish sharoiti II-A indeksli tog'oldi tumanlarida yaxshi; Buxoro-Qarshi, Zarafshon va Surxondaryo (III-A, III-B, III-V indeksli) tumanlarda chegaralangan; qolgan barcha boshqa tumanlarda esa noqulaydir.

Yuqorida jadvalga kiritilgan barcha zona va tumanlarning tabiiy iqlim va tuproq sharoitlari haqidagi ma'lumotlar 1-ilovada keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan tumanlarda ko'kalamzorlashtirish ishlarni samarali olib borish uchun ularda quyidagi agrotexnik va meliorativ tadbirlarini yoki bu darajada olib borish talab etiladi:

I-A, I-B, I-G, II-A, II-B, III-A, III-B va III-V indeksli tumanlarda yer osti suvlari sathini pasaytirish va qish faslidagi shorlangan tuproqlarni yuvish tadbirlarini o'tkazish.

I-B, I-V, I-G, II-V va III-G indeksli tumanlarda tuproqni almashtirish yoki bu tumanlarga xos qumli va galkali tuproqlarga mayin tuproq gruntlarni qoshish usuli bilan tuproq sifatini yaxshilash ishlarni olib borish.

II-V va III-C indeksli tumanlarda yer qiyaliklarini joylarda tekis pog'onalar—“chel”larga bo'lilb chiqish ishlarni o'tkazish.

O'simliklarning vegetatsiya mavsumida ularni tejamli va me'yoriy sug'orish ishlarni bajarish va o'tkazish, ya'ni:

I-V, II-B, III-V, III-G tumanlarda ko'kalamzorlashtirilayotgan yerlarni mavsumda 18–23 marta sug'orish, bunda 1 hektar yerga 12–15 ming m<sup>3</sup> suv sarflash;

I-A, I-B, I-G, II-A, II-V, III-A, III-B tumanlarda esa sug'orishni mavsum davomida 8–10 marta o'tkazish, 1 hektar yerga 8–10 ming m<sup>3</sup> suv sarflash tavsija etiladi.

## 12-rasm.

## **2.5. O'simliklarni tanlash, qishloq ko'kalamzorlari tizimi va ularni loyihalashning asosiy tamoyillari va vazifalari**

Aksari shahar va qishloqlarni ko'kalamzorlashtirish amaliyatiga xos bo'lган asosiy kamchilik—bu ekilayotgan o'simliklarni tanlashda o'rnatilgan umumiy tartib—tizim va tamoyillarga rioya qilmaslikdir. Ayrim hollarda tamoman bir xildagi yoki bir nechta o'simliklar tartibsiz, ularning ekolo—biologik xususiyatlari va manzaraviy sifatlari e'tiborga olinmasdan ekilmoqdaki, bu ko'kalamlashtirish ishlari sifatining pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shunday ekan har qanday yashil muhitni shakllantirish eng avvalo mazkur muhitning funkstiyasiga, uning qaerda va qanday hududda joylashganiga, mahalliy tabiiy iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda mazkur muhitga ekiladigan o'simliklar (daraxtlar, butalar, gullar va boshqalar) tarkibining qanday tanlanishiga bog'liqdir.

Daraxtlar va ularning manzaraviy—biologik xususiyatlarini o'rganuvchi fan “Dendralogiya”dir. Landshaft arxitektorlari va bog'bonlar o'simliklarni to'g'ri tanlash va ko'kalamzorlarni loyihalash va ularni shakllantirish uchun dendrologiyani yaxshi bilishi va o'z bilimlarini amalda qo'llay olishlari kerak. Arxitektorlar landshaft ob'yektlari va ko'kalamzorlarni loyihalashda bu ob'ektlarning vazifasi va muayyan tabiiy—iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, ko'kalamlarni shakllantirish uchun qanday daraxt va butalarni va ulardan qanchasini tanlash, ularni loyihalanayotgan ob'yktning qaeriga va qanday rejaviy landshaft kompozistiyasida ekishni bilishi va loyihalashi zarur.

Ekiladigan o'simliklarning barcha imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanish uchun ularni tanlashda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilinishi zarur (*13-rasm*):

- **tanlanayotgan o'simliklarning ko'kalamlashtirilayotgan ochiq muhit—maskanning funkstiyaviy maqsadlariga mos kelishi.** Masalan, magistral ko'chaning trotuari bo'ylab ekiladigan o'simliklar eng avvalo transport shovqini, gaz va changlarga chidamli bo'lishi, trotuar bo'ylab soya—salqin hosil qilishi va jozibali manzara berishi shart. Demak, trotuar uchun tashqi ko'rinishi keng,

shoxlari tig'iz joylashgan, gaz, chang va shovqinga chidamli, ayni paytda ko'r kam manzarali daraxtlar tanlanishi shart. Biron–bir monument yoki memorial yodgorlik atrofidagi sayrgohni ko'kalamzorlashtirish uchun esa aksincha, asosiy yashil material bo'lib, parter tipidagi manzarali maysa yoki gul o'simliklari ayrim pastqam butalar bilan qo'shib tanlanishi mumkin;

- **o'simliklar ekologik xususiyatlarining ular ekiladigan muhit sharoitlariga mos kelishi.** O'tqaziladigan joyda oldindan mavjud bo'lgan dekorativ daraxtlarga (agar ular qoldirilsa) yangi tanlanadigan o'simliklarning mos kelishi yoki tanlanayotgan daraxt va butalarning bir–biriga o'zaro biologik hamjihatligi, ya'ni biri ikkinchisining o'sishiga zarar yetkazmaslik masalalari qarab chiqqilishi zarur.

Tanlanayotgan o'simlik (daraxt yoki butalar)ning mazkur hudud tabiiy–iqlim sharoitlariga mos kelishi yoki kelmasligi ham e'tiborga olinishi shart .

- **daraxtsimon o'simliklarning gullah vaqt va gullab turish davrini** bilish ham ularni maqsadga muvofiq tarzda tanlash va qo'llashga katta yordam beradi: erta bahordan fevralning oxiri–martgacha forzitsiya, bagryanik kanadskiy; bahorda (aprel–may)–atirgullilar; yozda (iyun–avgust)–albitstiya, bryuchina blestyashaya, dibiskus katalpa, gortanziya, sofora va boshqalar; kuzda (sentyabr–noyabr)–roza marshinistaya, sipereya siren stvetnaya, gibiskus; qishda–kameliya, zima svet.

Bir oydan ko'p gullah turadigan daraxtsimon o'simliklarga: gortenziya poniklaya–1,5–2; gortenziya sadovaya–1; legestremiya indiyskaya–2; kameliya yaponskaya–6; rozi remontatnie–4–5; o'rtta muddatda gullahdiganlarga: ayva yaponskaya 0,5–1 oy, gortenziya derevovitnaya–1 oygacha, raketnik dlin-novetvistiy–3–4 hafta, roza mnogostvetkovaya–3 haftagacha gullahdi.

Ko'kalamzorlashtirishda u yoki bu turdan foydalanish uchun ularning ijobiy imkoniyatlaridan tashqari ularga xos bo'lgan salbiy holatlarni ham bilish zarur. Bularga o'simliklarning hududni o'z mevalari bilan ifloslashi (topol, shelkovista), ignalari yoki barglari bilan ifloslashi (platan, gledichiya, yukka) hamda mevasi va

barglarining zaharli bo'lishi (mojjevelnik kazastskiy) kiradi. Ushbu turlarni bolalar bog'chalari, maktablar va bolalar parklariga ekish man etiladi.

Nº	Salbiy ekologik ta'sirlar va ta'biyi sharoitlar	Qo'llanishga tavsiya etiladigan daraxtsimon o'simliklar
1	<b>Sho'rxok va izvestli tuproqlarga ekish uchun</b>	Sho'rxok tuproqlarga: solyankalar, chingil, grebenhik, saksaul, milnoe derevo kabi o'simliklar xlorli sho'r tuproqda o'sa olish qobiliyatiga ega. Izvestli tuproqlarga: yasen, lipa, lavr blagorodniy, maslina yevropeyskaya kabilar hatto izvestli tuproqqa talabchan daraxtsimonlardir. Aylant (xitoy yaseni) esa neft bilan ifloslangan tuproqda ham o'sa oladi.
2	<b>Qumloq tuproqlarga ekish uchun</b>	Бундай тупроқлар учун пламофитлар деб аталувчи ўсимликлар тавсия этилади. Уларга синегаловник плосколистный и полевой, гипмофила метельчатая, василиск восточный, косматоголовый, мордовник, ужовник, песчанка тонковетвистая, гвоздика травянка, ясколка, дрок плотныйлар киради
3	<b>Toshloq joylarga ekish uchun</b>	Петрофитлар қўлланилади. Уларга камнеломки, седумы, проломик, молодилалар киради.
4	<b>Gazlardan himoyalanish uchun ekishga tavsiya etilgan daraxt va butalar:</b>	клен пенсильванский, лешина, каштан конский, маньчурская, гледичая трёхколючковая, тополь серий ва чёрный, тополь канадский, ок акация, биота, шелковица белая, можжевельники виргинский, казацкий, оддий бирючина, липа войлочная ва бошқалар.
5	<b>Changlardan himoyalanish uchun ekishga tavsiya etilgan daraxt va butalar:</b>	вяз перистоветвистий, ива белая плакучая, каштан конский, кулранг клен, клен татарский, полевой, тополь канадский, тополь болле, шелковица белая, ясень зелёный и обыкновенный, акация желтая, оддий бирючина, лох узколистий, спирея Ван–Гутталар.
6	<b>Shovqindan himoyalanish uchun ekishga tavsiya etilgan daraxt va butalar:</b>	клен остролистний, оддий вяз, майда баргли липа, оддий ель, лиственница сибирская, жимолость татарская, сариқ акация, сибир бояришниклари.
7	<b>Shamolni to'sish va hududni soyalashtirish maqsadida tanlanadigan daraxtlar:</b>	дуб обыкновенный, каштан конский, клен остролистный ва полевой, оддий ель, дуб черешчатый, гледичия, магнолия, майдабаргли липа ва бошқаларни танлаш тавсия этилади.
8	<b>Ixota ekinlari uchun</b>	Tol, oq terak, tut, qayrag'och, dub, chinor, oq akatsiya, gledichiya kabi daraxtlar va butalar
9	<b>Qirtishlash, kuzash va sun'iy shakllar berish uchun</b>	Самшит вечнозеленый, оддий брючена ёки лигуструм, бересклет европейский и японский, граб обыкновенный, падуб остролистный, тафон, липа, форзиция, кипарис, можжевельники, тис обыкновенный, биота восточная
10	<b>Yer yopar o'simliklar</b>	Гвоздика травянка, барвинок большой и малый, вербейник монетчатый, флокс шиловидный, дюшения индийская, молодило паутинистое, кровельное и корликовое

### 13-rasm.

Shahar va qishloq aholi punktlarining ko'kalamzorlar tizimi foydalanishi va ularning qaysi maqsadlarga mo'ljallanganiga qarab 3 ta yirik guruhga bo'linadi: umumiy foydalanishga mo'ljallangan, foydalanishi cheklangan va maxsus maqsadlarga mo'ljallangan ko'kalamzorlar.

**Umumiy foydalanishga mo'ljallangan ko'kalamzorlarga** umumshahar va tuman markazlarining parklari, mikrorayonlar bog'lari, skverlar, bulvarlar, shahar maydonlari va transport magistrallarining ko'kalamzor hududlari, xiyobonlar, piyodalar ko'chalaridagi ko'kalamzorlar kiradi.


**Foydalanishi cheklangan ko'kalamzorlarga** qolgan barcha turar joy lar va sanoat zonalari ichida joylashgan ko'kalamzor hududlar kiradi. Bularga turar joy kvartallari va mikrorayonlardagi turar joy oldi uchastkalari, maktablar, bolalar bog'chalari, shifoxonalar, kollej va listeylar, oliy o'quv muassasalari, sport komplekslari, sog'lomlashtirish muassasalari hamda sanoat korxonalari va tashkilotlar hududlardagi ko'kalamzorlar kiradi.

**Maxsus maqsadlarga mo'ljallangan ko'kalamzorlarga** esa ko'cha va transport magistrallari bo'ylab ekilgan ko'kammlar, sanitariya-himoya va suv havzalarini muhofaza qilish zonalari, botanik bog'lar, dendrariyalar, hayvonot bog'lari va parklari hududidagi ko'kalammlar hamda ko'rgazma bog'lar, stadionlar, qabristonlar, gul va ko'chatlar yetishtiruvchi xo'jaliklarning ko'kalamlari kiradi.

Aytib o'tilgan ko'kalamzorlar shahar va qishloqlar hududida muayyan bir tartibda joylashib, zamonaviy shahar va qishloq ko'kalamzorlarning yaxlit tizimini tashkil qiladi. Qishloq ko'kalamzorlari tizmini shakllantirishning 3 xil usuli ko'rsatilgan. Ularning qaysi birini qo'llash loyihalanayotgan qishloq aholi punktining me'moriy-shaharsozlik echimlariga bog'liq holda tanlanishi nazarda tutiladi. Ko'kalamzorlar tiziminining *birinchi* boshlang'ich elementi sifatida qishloqlardagi mavjud turar joy guruhlarining bog'ini yoki mahallalar markazlari qoshidagi bog'ni ko'rsatish mumkin. Agar yana ham ichkariroq kirib borilsa, xususiy uy-joylarning hovli-bog'larini eng boshlang'ich ko'kalamzor element tarzida ko'rsatish mumkin.

Ko'kalamzorlar tizimining *uchinchi* tarkibiy elementi sifatida tuman markazidagi park va uning yonida joylashgan sport inshootlari bog'ini ko'rsatish mumkin. Sobiq Ittifoq davrida bu bog' "Rayon parki" deb atalib, uning tarkibida ochiq va yopiq sport maydonlari va inshootlari tashkil etilgan. Hozirgi katta va yirik shaharlar hududida bir nechta rejaviy va ma'muriy tumanlar mavjud bo'lib, ular tarkibida tuman parklari va sport majmualari tashkil etilganki, ularni biz shahar ko'kalamzorlari tizimining keyingi bosqichi tarzida qarashimiz mumkin.

Qishloq aholi punkti va tuman markazi ichi ko'kalamzorlar tizimining eng yirik bo'g'inlari bu, albatta, tuman markaziy parki va yoshlar sport parkidir. Tuman ichi ko'kalamzorlari tizimining elementlariga yuqoridaqilardan tashqari yana shahar maydonlari, xiyobonlar, skverlar, bulvarlar, ko'kalamzor piyoda yo'llar va sohillar bo'ylab joylashgan bog'lar ham kiradi. Bu ko'kalamzor elementlarning bo'lismasligi aholi punktining katta-kichikligi va strukturaviy tuzilishga ko'p jihatda bog'liqdir. Ko'kalamzorlar tizimini hajmiy tuzilishi va tashqi ko'rinishiga qarab shartli ravishda ochiq va yopiq yashil muhitlarga bo'lismasligi (14-rasm). Ochiq yashil ko'kalamzor muhitlarga manzaraviy parter gulzorlar va maysazorlar, ochiq xiyobonlar kirma, yopiq yashil muhitga yopiq xiyobonlar, daraxt va baland butalardan tuzilgan yashil massivlar, o'rmonzorlar kiradi. Yopiq yashil ko'kalamzor muhit-bu daraxtzorlar ichidagi maysazorlar, yo'laklar, xiyobonlardan va asosan soya va salqin muhitlardan tashkil topadi. Bunday muhitda osmon deyarli ko'rinishi yashil, hamma joy soya-salqin bo'ladi. Ochiq yashil muhit esa buning aksi, unda soya bo'lmaydi, muhitga quyosh tushadi, ochiq muhitdagi barcha landshaft elementlari va osmon ko'rindi.



Ochiq va yopiq yashil muhitlar orasidagi shabboda samarasining grafik tasviri

#### **14-rasm.**

Yoz paytida kunduz kuni ochiq yashil muhitdagi havoning harorati yopiq yashil muhit havosiga nisbatan issiq bo'ladi. Ma'lumki, issiq havo vazni sovuq havoga ko'ra yengildir. Buning oqibatida yopiq yashil muhitdagi og'ir havo ochiq muhitdagi o'zidan yengil bo'lgan issiq havo tomon oqadi va uning joyini egallashga harakat qiladi. Havoning bunday oqimi, ya'ni havo siljishi oqibatda yopiq va ochiq yashil muhitlar chegarasida yengilgina shabboda yuzaga keladi. Batabiiy voqelik "**shabboda samarasi**" deb ataladi. Kechasi esa buning aksi, ya'ni ochiq yashil muhit quyosh botishi bilan yopiq yashil muhitga nisbatan tez sovub ketadi va shabboda teskari tomon-yopiq yashil muhitga qarab harakatlanadi.

Ochiq va yopiq yashil muhitlar doirasida sodir bo'ladigan bunday ijobiy havo harakatining qonuniyatidan ko'kalamzorlarni loyihalashda O'zbekistonning issiq va quruq iqlimi sharoitida samarali foydalanishni, buning uchun esa shahar ko'kalamzorlar tizimida tashkil etiladigan ochiq va yopiq yashil muhitlar maydonining o'zaro nisbatini 1:1 tarzda olishni tavsiya kilinadi.

**Ko'kalamnlarni me'yorlash**—bu aholi punktlarida odam boshiga to'g'ri kelishi zarur bo'lgan yashil maydonni kv. metrda me'yorlash demakdir. Yashil maydon deganda o'simliklar, daraxt, buta, gullar, maysa yoki yer yopar o'simliklar ekilgan maydon tushuniladi. Bunday maydonlarni me'yorlash birinchi navbatda aholi punktining katta—kichikligiga va tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liqdir. Agar shahar yirik yoki katta bo'lsa odam boshiga umumiyl foydalaniluvchi ko'kalamlar egallagan yashil maydonlar ham ko'proq, shahar kichik bo'lsa bunday ko'kalamlar maydoni ham kamroqq bo'ladi.

Shaharsozlik bo'yicha ishlab chiqilgan loyihalash normalarida foydalanishi cheklangan va maxsus maqsadlarga mo'ljallangan ko'kalamzorlar maydoni me'yorlanmaydi, faqat umumiyl foydalanuvchi ko'kalamlar hududigina me'yorashtiriladi, deb ko'rsatilgan. Umumiyl foydalanuvchi ko'kalamlar o'z navbatida quyidagichi guruhlarga bo'lingan:

- a) umumshahar ko'kamlari;
- b) shaharlardagi turar joy tumanlari ko'kamlari;
- v) qishloq aholi punktlari ko'kamlari.

Har bir guruh uchun alohida yashil maydonlar me'yorlangan. Masalan qishloq aholi punktlarining ko'kalamalarini bir kishiga maksimal 12 m.kv. deb belgilangan. Bu me'yorni quyidagi holatlarni e'tiborga olgan holda 20 % u yoki bu tomonga o'zgarish mumkinligi ko'rsatilgan:

- a) iqlimi sharoitlar (O'zbekistonning janubiy viloyat va tumanlarida yashil maydonlar me'yori shimoliy viloyat tumanlariga qaraganda ko'proq bo'lishi kerak);
- b) yashash uchun noqulay sharoitlar (kuchli shamollar, chang-to'zonlar, qumlar, qor ko'chkilari mavjud aholi punktlarida ko'kalamzor maydonlar miqdori ko'p bo'lishi zarur);
- v) ishlab chiqarish va sanoat korxonalarining ko'pligi (sanoat korxonalarining ko'pligi ham bir kishiga to'g'ri keladigan yashil maydonlar miqdorini oshiradi);
- g) shaharsozlik rejaviy sharoitlari (masalan, shaharda qurish uchun nobop maydonlar mavjud bo'lsa, ular yashil ko'kalamzorlarga aylantiriladi va bundan yashil maydonlar miqdori oshadi).


O'zbekiston kam o'rmonzorli va serquyosh respublika, shuning uchun uning iqlimi va tabiat sun'iy yaratilgan ko'kalamzorlar va o'simliklarga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bu o'lkada soya va suv o'ta dolzarb masaladir. Shuning uchun ham shahar va qishloqlarimizda kam suv sarflab ko'p soyali va salqin maskanlarga ega bo'lish juda muhimdir. Bunga erishishning eng oson va tezkor yo'li bu ko'kalamzorlashtirishdir.

Shaharlar va qishloqlarimizning sifatli va zarur miqdordagi ko'kalamlashtirish darjasasi–bu aholining yashash madaniyati oshganligining belgisidir. Qaysi aholi punkti yaxshi va sifatli ko'kalamlashtirilgan va obodonlashtirilgan bo'lsa o'sha yerga aholining qo'chib kelishi va muqim joylashishi kuzatilmoqda.

Ko'kalamzorlar tizimini loyihalashga doir mavjud adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarda asosan shaharlardagi ko'kalamzorlar tizimini loyihalash va tashkillashtirish masalalari bayon etilgan (*15-16-rasmlar*). Ularni o'rganish va tahlil qilish asosida qishloq aholi punktlarining ko'kalamzorlar tizimini loyihalash

va tashkil etishning quyidagicha **asosiy tamoyillari** va vazifalarini aniqlangan. Qishloq ko'kalamzorlar tizimini loyihalashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) Aholi punkti hududi bo'ylab **yirik yashil ko'kalamzorlarni teng maromda taqsimlash va joylashtirish.** Mazkur talab eng avvalo umumiy foydalanuvchi ko'kalamzorlarga taalluqlidir;



### 15-rasm.

- 2) **yashil ko'kalamzorlar tizimining aholi punkti hududi bo'yicha uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash.** Ushbu tamoyil qishloq markazi va bog'–parklarining yashil hududlarini bir–biriga ko'kalamzor xiyobonlar, ko'chalar, trotuarlar, sayrgohlar, maydonlar va sohillar yordamida bog'lab, ularning yaxlit va uzluksiz ko'kalamzorlar tizimini yaratish orqali amalga oshiriladi;

- 3) Aholi punkti ichki va tashqarisida joylashgan ko'kalamzor **yashil hududlarni bir–biriga bog'lash va ularni yagona kompleks yechimiga keltirish.** Mazkur talabga aholi punkti ichidagi yashil hududlarni funksional va

kompozistiyaviy jihatlardan shahar tashqarisida joylashgan rekrestion ob'yeqtalar, xo'jalik va manzaraviy bog'-rog'lar, oromgohlar hududiga aholi punkti seliteb hududining ichigacha kirib boruvchi o'ziga xos "yashil ponalar"ni shakllantirish orqali erishiladi.

Daraxtsimonlar dan ishlangan kompozisiyalar ning nomi	Turlari	Grafik ko'rinishiga misollar	Gullardan ishlangan kompozisiyalar nomlari	Grafik ko'rinishiga misollar
SOLITERLAR	Daraxtlardan	  	KLUMBALAR	
	Butalardan	  		
GURUHLAR	Toza	   	ARABESKALAR	
	Aralash	  		
	Murakkab	 	RABATKALAR	
	Uyali (buket)	 		
QATORLAR	Bir qatorli	 	MIKS BORDERLAR	
	Ikki qatorli	 		
	Ko'p qatorli	 	PARTERLAR	
XIYOBONLAR	Ochiq	 		
	Yopiq	 	GULLIK MASSIVLAR	
TOPIARLAR	Sof geometrik shakllar	 		
	Hayvonlar shakli	 	VOYISHLAR	 
	Fantaziyalar	  		
YASHIL MASSIVLAR		 	TIK KO'KALAMLAR	

Yashil massivlar O'zbekiston qishloqlarida kam uchraydi, chunki respublikamizdagi mavjud qishloq parklarining hududlari ko'pchilik hollarda 2 hektardan oshmaydi va bunday sharoitda katta maydonlarni talab qiluvchi yashil massivlarni yaratishning imkoniyati yo'q. Shu sababdan, qishloqlarda daraxtsimonlardan tuziladigan yashil kompozisiyalar turlaridan asosan soliter, guruh, qator, xiyobon va topiarlar hamda gullardan va lianlardan ishlangan kompozisiyalarni qo'llashni tavsiya qilamiz.

## 16-rasm.

Ko'kalamzorlar tizimini loyihalash va tashkil etishda quyidagi uch asosiy vazifaning hal etilishi zarurdir:


- **funkstional vazifa**—turli maqsadlarga mo'ljallangan ko'kalamzor aholi punkti hududlarini tashkil etish, shu jumladan aholining qulay dam olishi uchun bog'—parklar va boshqa yashil muhitlar tizimini yaratish;
- **sanitariya-gigienik vazifa**—aholi punkti muhitining ekologiyasini sog'lomlashtirish va mikroiqlimini yaxshilash;
- **me'moriy-badiiy vazifa**—badiiy jihatdan yaxlit va estetik jozibador bo'lgan aholi punkti arxitekturaviy—landshaft muhitini tashkillashtirish va shakllantirish.

### **III–BOB. QISHLOQ HUDUDLARINI ME’MORIY–REJAVIY VA LANDSHAFT TASHKILLASHTIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI**

#### **3.1. Qishloq turar joy hovlilarining landshaft arxitekturasi va dizayni**

“Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalahtirish” bo'yicha harakatdagi shaharsozlik normalari va qoidalari (ShNQ 2.07.01–03<sup>\*</sup>) ning qishloq aholi punktlarining turar joy hududlari bobida “Qishloq aholi punktlari turar joy qurilishi qismlarining tarkibi, o'lchamlari va me'moriy–rejaviy tashkil etilishi, qishloq oilalarining o'zaro qo'shnichilik muloqotiga oid funkstional–maishiy jarayonlar bilan belgilab beriladi”, “Qishloq aholi punktlarining qurilishi uchun asosan hovli turidagi kam qavatli 1–2 xonadonli turar joy uylari ko'zda tutilishi lozim”, deb yozilgan.

Hovlini saranjom tutish, hovli ekinlari va xo'jalik imoratlarini o'rniga joylashtirib, hovlisini chiroyli va obod qilish hovlili uy qurgan har bir oilaning orzu–istagidir. Bu ishlar qancha to'la va sifatli bajarilsa, oila hayoti shuncha fayzli, obod va shirin kechadi, hovlidan foydalanish oson va serunum bo'ladi. Hovlini obodonlashtirish hovli hududini funksional zonalarga bo'lib chiqishdan boshlanadi. Hovli hududi, odatda, zonalarga bo'linadi. Har bir zona uchun hovli yuzasidan maqsadga muvofiq va foydalanishga qulay bo'lган joy tanlanishi kerak. Xo'jalik va maishiy imoratlar zonasiga, odatda, hovlining ichkari, to'r qismidan joy ajratiladi. Xo'jalik zonasi tarkibiga kiruvchi omborxona yoki kladovka, o'tinxona, molxona, yemxona va boshqa xonalar bajaradigan xizmat turiga qarab joylashtiriladi. Bunda ular hovlining butun yenini yoki bir qismini egallashlari mumkin. Xo'jalik va maishiy imoratlar, ularning tarkibi va hovlida joylashish tartiblariga alohida to'xtalib o'tamiz:



Poliz ekinlari uchun uchastkaning quyi tomonidan xo'jalik imoratlari yonida yoki uning atrof-chetlarida joy ajratish maqsadga muvofiqdir. Poliz ekinlarining suvgaga talabchanligini e'tiborga olib, ularni hovli yuzasidan nisbatan pastroqda ekkan ma'qul. Bu, kuz paytlari yomg'ir suvlarining oqib tushishiga ham qulaylik yaratadi. Odatda, poliz ekinlari uchun hovli maydonining 25–30%, mevali o'simliklarga 30–40 %, yashash uyi, xo'jalik va tirikchilik imoratlari hamda proyezdlar uchun 30–40 % ajratiladi.

Uy va yashash hovlisi zonası, ayvon, peshayvon, umumiyligining old qismi, uyga kiraverish joyi va uydandan so'nggi hovli ichkarisiga chiqishdagi joylar gullar va manzarali daraxtlar bilan bezatilishi maqsadga muvofiqdir. Qalin soya beruvchi baland daraxt va butalarni uyga yaqin masofaga ekmaslik kerak, chunki yashash xonalarini kun bo'yisi soya ostida qolib ketishi, uyni zax bosishi mumkin.

Gullarni tanlashda ularning ochilish mavsumiga e'tibor berish lozim. Umuman, gullarni shunday ekish kerakki, biri ochilib tugasa, ikkinchisi gullay boshlasin. Xalqimiz gullarni tanlab ekishda qadimdan an'anaga aylanib qolgan mahalliy va zamonaviy gullardan foydalanadi. Shunday gullardan ayrimlarini sanab o'tamiz: rayhon, atirgullar, binafshalar, namoshomgul, nargiz, gulira'no, nilufar, shabbuy, gultojixo'roz.

Manzarali daraxtlar orasida qishin–yozin ko'm–ko'k bo'lib o'suvchi archasimon ninabargli daraxtlar ham bo'lishi mumkin. Shunday qilinganda uy atrofidagi kirib–chiqish joylarining saranjom–sarishita, tartibli va manzarali bo'lishi ta'minlanadi. Nina bargli daraxtlar va gullar o'zlaridan xushbo'y hidlar chiqarib, havoni toza va sog'lom qiladi, uy–joy va hovli ko'rinishiga o'ziga xos go'zallik baxsh etadi.

Qishloqda ko'p bolali oilalar yashashini e'tiborga olgan holda hovli ichida uyga yaqin joydan bolalar uchun maxsus maydoncha ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday joy bolalarning yoz kunlari kunduz, ayniqsa, kechqurunlari hovlida ochiq havoda yayrab o'ynashlari uchun qulaylik tug'diradi. Bolalar maydonchasining usti yengil yopilishi, yonlari esa ochiq bo'lishi mumkin. Maydoncha janubiy–g'arbiy va g'arb tomonidan soya beruvchi manzarali daraxtlar va butalar, qolgan tomonlardan esa yashil to'siqlar bilan to'silishi lozim.

Ayrim hovlilarda uy atrofidagi kirib–chiqish joylariga mevali daraxtlar zinchilganligini ko'ramiz. Bunday hollarda yoz pishiqchiligidagi daraxtlar osti tagiga tushgan mevalar bilan to'lib bosilishi, ifloslanishi, har xil qurt–qumursqalar va besaranjomlik kuzatilishi mumkin. Bunday joyda yoz paytlari ochiq havoda chorpojada o'tirib hordiq chiqarish ancha noqulay, qishda esa manzaradan ancha boy berilishi mumkin. Bundan tashqari mevali daraxtlar bolalar ko'ziga yaqin bo'limganligi ma'qul. Shuning uchun ham mevali daraxtlar zonasining katta qismi hovlining to'rrog'ida, poliz ekinlari bilan yashash hovlisi oralig'ida yoki ularga tutashib joylashganligi maqsadga muvofiqdir.

Qishloq sharoitida hovli bog'i uy orqasida, uning yon tomonlarida qo'shni uchastka bog'i bilan yonma–yon joylashgan bo'lib, bu hovli joylar bo'yicha bir butun yashil massiv yaratishga va turar joy imoratlari mikroiqlimini yaxshilashga yordam beradi.

Mevali daraxtlar zonasida avval yo'ng'ichqa, beda uchun joy tayyorlanadi. Bedazordan alohida–alohida joylar ajratilib, ulardan biriga anor, ikkinchisiga bexi, uchinchisiga–shaftoli, to'rtinchisiga esa nok ekilishi mumkin. Yozda qish va bahor fasllariga nisbatan sabzavot, qovun, tarvuzlar ko'p bo'lganligi sababli ho'l mevaga

talab kamroq bo'ladi. Shuning uchun ham hovlidagi mevali daraxtlar orasida ko'proq kechki olma, nok navlari jami ekiladigan daraxtlarning 70–80 % ini tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Ota–bobolarimiz yaratgan hovli bog'lari quyidagi ikki xil ko'rinishda bo'lganligi ma'lum:


- 1) geometrik shaklda tashkil topgan bog'lar;
- 2) tabiat xushmanzaralari asosida tashkil etilgan bog'lar.

Birinchi xil bog'larda bog' maydoni turli istalgan (to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak, ko'pburchak va h.k.) shakllarga bo'lib chiqilib, shu bo'laklarda har xil daraxtlar va gulzorlar tashkil etilgan. Ikkinci xildagi bog'lar esa tabiiy ko'rinishida yoki ularga ba'zi bir tuzatishlar kiritilgan holda barpo qilingan (*17-rasm*).


Yashash hovlisidagi chorpoya atroflarini qator uzum ishkomlari bilan yopilganini ko'ramiz. Bunday uslub faqat shu chorpoya atroflari uchungina ma'qul bo'lib, uni bir tomondan yopishi mumkin. Uy atroflarini esa pastak qator ishkomlar bilan yopish yaramaydi, chunki ular yozda shamolni to'sib qo'yadi va manzarani oddiylashtiradi. Shuning uchun ham uzum ishkomlari chorpoyadan ancha ko'tarilgan, havodor bo'lishi kerak. Chorpoya va ayvondan hovliga chiroyli va soz tabiiy manzara ochilishini ta'minlash lozim.

Ba'zan chorpoya hovlining ichkarirog'iga joylashgan bo'lib, atrofida ariq qazilgan, quvur bilan suv olib borilib, mo'jaz shakldagi favvora ishlangan bo'lishi mumkin. Favvora va chorpoya atroflariga qizil olma daraxti ekilsa, pishiqchilikda olmalar favvoradagi suv ustiga tushib taftini oladi.

Hovli ichi yo'laklarining soni iloji boricha kam bo'lgani ma'qul: ularni zarur joylardagina o'tqazib soya bilan ta'minlash kerak. Yo'laklar g'ishtdan, g'isht siniqlaridan, tabiiy toshlardan, shag'al qo'shilgan betondan ishlanishi mumkin. Ularning eni 1 metr atrofida bo'lishi kerak.



Hovli bog'ining erkin kompozisiyada ishlanishi



**Hovli maydonini obodonlashtirish bo'yicha takliflar (A.S. Uralov, Sh.A. Balgaevalar bo'yicha):** a) cho'l va dasht zonası uchun mo'ljallangan hovli; b) qulay iqlimi vodiylar va tog' volahalariga mo'ljallangan hovli; 1–turarjoy uyi; 2–xo'jalik va maishiy imoratlar; 3–hovli; 4–mevali bog'; 5–sabzavot va poliz ekinlari; 6–chorpoya; 7–bolalar o'ynaydigan joy; 8–uzum ishkomi; 9–avtomashina joyi; 10–jiyda, bodom va boshqa daraxtlar; 11–berk devor; 12–pastqam to'siq; 13–yashil devor; 14–go'ng saqlash joyi; 15–ariq



Hovli bog'ini muntazam kompozisiyada shakllantirish bo'yicha tavsiya (Xelga Gropper kitobidan olindi)



Hovli bog'ining atrium ko'rinishida ishlanishi

Bir–biriga qo’shni uylarning derazalari yoki hovlilarining orasida devorlar hosil qiluvchi chirmashib o’sadigan o’simliklarni qo’llash yaxshi natijalar beradi. Bunday yashil devorning balandligi 1–2 metrdan oshmasligi kerak. Har xil tabiiy iqlim zonalariga mos ravishda xo’jalik imoratlariga ega qishloq uylari hovlisining qulay yechimlari, hovlini obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish bo'yicha tavsiyalar *17-rasmda* keltirilgan. Ularda shaxsiy yordamchi xo’jalik yuritish uchun sharoit, yashash va xordiq chikarishga estetik qulay muhit yaratishni ta’minlovchi omillar hamda mahalliy shart–sharoitlar e’tiborga olingan.

Yuqorida bayon qilingan takliflarga rioya qilish uy–joyni shinam, hovlini fayzli qilishga va hovli uchastkasidan serunum va qulay foydalanishga yordam beradi.

### **3.2. Qishloq ko’chalari va xiyobonlarining me’moriy–rejaviy va landshaft yechimlari**

Qishloq ko’chalari va xiyobonlari joylashgan joyi va mavqeiga qarab turlicha bo’ladi. Ularning eni shunga mos ravishda belgilanib, ko’chalarni ko’kalamzorlashtirish va landshaft arxitekturasi masalalari ham ularning turi va eniga, orientasiyasiga va joylashgan o’rniga qarab belgilanadi. Ko’chalar va xiyobonlardagi ko’kalamzorlarning asosiy vazifasi–bu aholini changlar, gazlar, shamollar, shovqin va quyosh nuri taftidan himoya qilishdir. Ayni paytda, ko’chalarning me’moriy–badiiy va landshaft yechimlarining saviyasi ham katta ahamiyatga egadir.

Ko’chalarni, asosan, tashqi ko’rinishidan to’g’ri shakllarga ega bo’lgan baland o’suvchi dovdaraxtlar (lipa, terak, klyon, yasen va boshqalar) bilan ko’kalmglashtirish tavsiya etiladi.

Ko’chalarni ko’kalamzorlashtirishning eng oddiy turi–bu ko’chaning harakatlanish chetki qismi va trotuar o’rtasidagi masofaga, ya’ni yashil polosaga qatorlab oralig’i teng daraxtlar o’tqazib chiqishdir. Ushbu yashil polosaga bir qatorlab daraxtlar ekilganda uning eni 3 m, ikki qator daraxt ekilsa–5 m olinadi.

Ko'p qatnovli keng magistral ko'chalarda esa ushbu yashil polosaning eni 7,5 metrgacha bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ko'cha tomondan bir qator daraxt ekib qolgan hududni esa xili, o'lchamlari, bo'yi va shakllari turlicha bo'lган daraxt va butalardan tuzilgan guruhlar yordamida ko'kalamzorlashtirish mumkin. Ayrim hollarda maysazor ustiga trotuar chetiga yaqin qilib gullar ham ekilishi mumkin (*18-rasm*).

Chorrahalar, ko'chaning burilgan joylari va piyodalar o'tadigan joylar oldiga ekilgan daraxt va butalar transport haydovchilari va piyodalarga yo'lni va harakatlanayotgan transportlarni ko'rishga halaqit bermasligi, svetoforlarni va yo'l ko'rsatgichlarini to'sib qo'ymasligi kerak.

Tashqi yoritish fonarlarining ustunlarini esa ko'cha o'rtasidagi harakatlanish yo'llarini ajratuvchi yashil polosada joylashtirish maqsadga muvofiqli. Yo'llarni ajratuvchi yashil polosaga, odatda, yo'llar eni uncha katta bo'lмаган hollarda, butalar va maysazor, yo'llarning eni katta (har tomonga kamida 2 ta yo'naliш) bo'lган hollarda daraxtlar va maysazorlar, transportlarning burilish joylarida esa pastqam butalar, maysazor va gulzorlar ekiladi.

Trotuarlarning eni katta bo'lsa, o'rta qismiga modulli maxsus yashil kompozistiylar, rabatkalar yoki alohida gullar guruhi, pastqam miksborderlarni shakllantirish mumkin. Ularni tuproqqa ekishning iloji bo'lmasa, sopol yoki beton vazalarga, maxsus qutichalarga ekib joylashtirish mumkin. Keng trotuarlarning bo'ylama o'qi bo'ylab tanasi tig'iz, soya-salqin beruvchi dov-daraxtlarni maxsus lunkalar bilan ekish tajribasi ham issiq iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan. Bunda lunka qoplamasini o'rnatishni unutmaslik kerak.

Ko'chaning mashinalar harakatiga yaqin ariq bo'ylab butalarni yashil to'siq shaklida ekish tavsiya etilmaydi, chunki ular qishda qor ko'chkilaridan, yozda esa ko'cha axlatlaridan ozor chekadi.

Ko'chalarga ekiladigan butalarning bo'yi 1,5 metrdan katta bo'lмаган, yaproqlari tig'iz va yaxshi gullovchi turlari tanlanadi, chunki baland butalar trotuar yo'lovchilarining ko'rish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bunday butalarga spireya, tunberg barbarisi, xenomeleslarning turli xillari kiradi. Butalar qatorlab

ekilganda yashil qatorning eni bir qator uchun 0,8 m, ikki qator ekilsa—1,5 metrdan kam bo’lmasligi kerak.


Butalardan tuzilgan guruhlarni baland daraxtlar orasiga yoki qatorlar uzilgan joylarga, ya’ni ko’cha tomonga qaragan jamoat binolari oldiga ekish mumkin. Bunday hollarda butalar foniga ko’p yillik o’simliklarni ekish tavsiya etiladi. Bu ko’chalarni manzaraviy bezashga va bir xillikka barham berishga yordam beradi (*18-rasm*).

Agar ko’cha eni katta bo’lsa ko’cha yo’lining cheti va trotuar o’rtasiga bulvar shakllantirsa bo’ladi. Uning minimal eni 10 m. O’rtadan piyodalar uchun yo’lak qilib, o’tirish uchun skameykalarga joy va yo’lakni daraxtlar qatori bilan ko’kalamzorlashtirish mumkin. Agar bulvar eni katta bo’lsa daraxtlar va butalardan tuzilgan guruh kompozistiyalarini shakllantirsa bo’ladi. Ularning foniga esa ko’pyillik gullovchi o’simliklar ekish zarurki, ularning xillari turlicha bo’lsin (akovilegiya, gaylardiya, liliya, floks metelchatiy). Piyoda yo’lakchasi bo’ylab miksborder kompozistiyasini qo’llash lozim.


Ko’chalar orientastiyasiga, ya’ni ufq tomonlariga nisbatan joylashishiga qarab kengliklar yo’nalishidagi (o’qi g’arbdan sharqqa), meridional yo’nalishdagi (o’qi shimoldan janubga) va diagonal yo’nalishlardagi (o’qi shimoliy-g’arbdan janubiy–sharqqa yoki shimoliy–sharqdan janubiy–g’arba qarab) joylashgan ko’chalarga bo’linadi.

Kengliklar yo’nalishidagi ko’chalarning janub tomonidagi uylar fasadiga quyosh nuri tushmaydi va soyaga muxtoj emas. Bu erda faqat trotuar soyalantiriladi. Janub tomonda joylashgan uylar ko’p qavatli bo’lganda ulardan tushayotgan soya trotuarni yopadi va trotuar soyalantirishga muhtoj bo’lmaydi. Biroq, ko’chaning shimoliy tarafidagi uylarni va trotuarni soyalantirish zarur bo’ladi.

Meridional yo’nalishdagi ko’chalarda vaziyat boshqacha. Bunday ko’chalarning har ikkala tomonidagi trotuarlar va binolar ham quyosh nuridan himoyalanishga muhtojlik sezadi.



*Turar joy hududlari ko'chalarini landshaft tashkillashtirish usullari:* 1-pergolalar; 2-o'tirish joylari; 3- ariqlar; 4-gullar; 5-maysalar; 6-daraxtlar



*Qishloq markazidagi asosiy ko'chalarni landshaft tashkillashtirish usullari*



*Qishloq parkalridagi ochiq (chapdag'i rasm) va yopiq (o'ngdag'i rasm) yashil xiyobonlar*



*Tuman markazlari ko'chalariga amaliyotdan misollar*

## *18-rasm.*

Diagonal yo'nalishli ko'chalarning janubiy-g'arbgaga yoki janubiy-sharqqa qaragan binolari va trotuarlarini ham oftobdan himoyalash zarur. Ayniqsa o'qi bilan shimoliy-sharqdan janubiy-g'arbgaga qaragan ko'chalarda ahvol yanada og'ir bo'lib, tushdan keyin bu ko'chalar trotuarlarini ikki yoqlama qatorlab daraxtlar ekish yo'li bilangina jazirama quyosh nuridan saqlab qolish mumkin. Ko'chalarni ko'kalamzorlashtirishda bu holatlarni e'tiborga olmaslik jiddiy xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Mustaqillik yillarida Respublikamizda barpo etilayotgan aksari zamonaviy qishloq mahallalarida asosiy ko'chalarning kengligi 14–16 metrni tashkil qilmoqda, bu esa zamonaviy qishloq aholi punktlari uchun kamlik qiladi. Chunki bunday ko'chalarda trotuarlar uchun joy qoldirish va ularni ko'kalamlashtirish uchun imkoniyat qolmaydi. Bundan tashqari qishloq aholisining ko'pchiligi dehqonchilik mahsulotlarini o'z hovlisida yetishtiradi, hatto chorvachilik bilan ham shug'ullanishadi. Bu ehtiyojlarni bajarish uchun ham hovlilarga shu ko'chalar orqali kirib chiqiladi. Shunday ekan 14–16 metrli ko'chalar qishloq aholi punktlari uchun kamlik qiladi. Ko'chalarni kamida 18–20 metr qilib loyihalashtirish zarur. Shunda ko'chaning har ikki chekkasida trotuar tashkil qilish va ularni ko'kalamlashtirishga imkoniyat yaratiladi.

### **3.3. Ma'muriy va jamoat binolari, mahalla fuqarolar yig'ini markazi, ta'lim-tarbiya va tibbiyat muassasalari hududlarining me'moriy-rejaviy va landshaft yechimlari**

Ma'muriy va jamoat binolari, mahalla fuqarolar yig'ini markazi oldilarida, odatda, bosh fasadlari tomonidan keng ochiq yashil muhit-parterli skver shakllantirish tavsiya etiladi. Agar buning uchun yetarlicha maydon bo'lmasa bosh fasad va binoga kirish yo'laklari oldida manzarali maysazorlar shakllantiriladi. Ularning yechimi turlicha: parter usulida yoki klumba ko'rinishdagi gulzorlar bo'lishi mumkin.

Binoning otmostkasi va trotuar orasidagi ensiz, odatda, cho'zinchoq joyga 2–3 qator qilib bir yillik yoki ko'p yillik gullardan ekiladi. Bino devoriga yaqin qatorga bo'yи balandroq, trotuarga yaqin qatorga esa pastroq bo'yli gullar, masalan, xushbo'y tabak, bir yillik astra va alissum yoki metelchatiy floks va arabislar ekiladi.

Yo'llar chetidagi kengroq hududlarga ko'p yillik o'simliklardan miks-border gulzor kompozistiyasini yaratish mumkin. Agar buning uchun o'simliklar to'g'ri tanlansa u erta bahordan to kech kuzgacha gullab turish imkonini beradi. Bunday gulzorning tarkibiga primula, floks shilovidniy, arabis alpiyskiy, iris gibriddniy, floks metelchatiy, ko'p yillik astra o'simliklarini kirishi mumkin.

Agar bino qirlikda, atrof muhitdan teparoq joyda qurilgan bo'lsa, uning old qismiga tabiiy toshlar va o'simliklar bilan bezatilgan rokariy yoki tirkak devorlarlarni shakllantirish, zinapoyalar o'rnatish maqsadga muvofiqdir. Agar bino unga ajratilgan hududning quyi qismida, ya'ni qizil chiziqdan ancha ichkarida joylashgan bo'lsa, bino fasadi va trotuar orasidagi keng maydonga maysazor ustida 3–5 ta daraxtdan gurux kompozistiyasi, chiroli gullovchi butalar va ko'p yillik gullar ekiladi. Bu muhitda birorta dekorativ basseyn yoki favvora bo'lishligi unga yana ham samara beradi, muhitda yoqimli mikroiqlim yaratadi.

Ma'muriy binolar, shuningdek mahalla fuqarolar yig'inlari markazlari oldilaridagi hududlarning yechimi ko'pincha muntazam rejaviy uslubda, simmetrik o'q atrofidagi, takrorlanuvchi yashil landshaft kompozistiyalaridan tuzilishi mumkin. Bunday ko'kalamzor muhitlar ma'muriy binolar, MFY markazlari, do'konlar, maishiy xizmat ko'rsatish ob'yektlari va boshqa jamoat binolari oldilaridagi hududlarda bo'lishi zarur.

Agar bino oldidagi maydon yirik beton plitalar bilan qoplangan bo'lsa uni ham manzarali gullar bilan bezatish imkoniyati mavjud. Buning uchun ko'chuvchi gullardan yoki vazalar hamda modulli tuvaklardan foydalanib bir yillik gulzor vazalar yoki modulli bog'-chaman tashkil qilish mumkin. Bunda gullardan begoniya klubnevaya, salviya, maydagulli georginya, pelargoniya, lobeliyalarni qo'llash yaxshi samara beradi. Agar gul tuvaklar katta bo'lsa, ularga ko'p yillik

o'simliklarni ham ekish mumkin. Gul vazalari va tuvaklar bir xil yoki turli o'lchamlarda, biroq bir tip va rangdagi materialdan ishlanishi shart.

Jamoat binolarini ko'kalamzorlashtirishning yana bir oddiyroq, biroq samarali uslublaridan biri-tik ko'kalamzorlashtirishdir. Tirmashib o'suvchi lianlar tik tirkaklar yoki dekorlar bo'ylab ko'kka intilib, binolarga maftunkor manzara berishi mumkin. Tik ko'kalamzorlashtirishda amur toki, Berlande toki, devichiy vinograd pyatilistkoviy, Xitoy glistinyasi, jimolost kaprifol, tekoma va boshqalarini qo'llash mumkin.

**Qishloq yasli va bog'chalarining me'moriy-rejaviy va landshaft yechimlari.** Bolalar bog'chalarining hududi funkstiyasiga ko'ra, bolalar zonasasi, guruhlar maydonlari, sport maydonchalari zonasasi, xo'jalik va manzarali ko'kalamlar zonasiga bo'linadi (*19-rasm*).

Bolalar bog'chalari muassasalarining hududlarini atrofidagi ko'cha va hududlardan qatorlab tig'is ekilgan, eni 5–6 metr bo'lган daraxt va butalar bilan ajratish kerak. Bu bog'cha hududini tashqi shovqin va chang to'zonlardan saqlash imkonini beradi va tashqi muhitdan holilashtiradi. Bog'cha binosi hududining ichki qismidagi ko'kalamzorlar mazkur hudud muhitini sog'lomlashtirish va hududdan qulay foydalanish imkoniyatini yaratishi kerak.

Bolalar bog'chalarida eng avvalo fitonstidga boy quyuq soya beruvchi o'rta kattalikdagi daraxtlar, masalan, dala klyoni, yapon saforasi, virgin mojjevelnigi, tuya, bagryanik, lipa hamda chiroyli va uzoq gullab turuvchi tikoni va zahari yo'q butalar, ko'p yillik yorqin va xushbo'y gullarni ekish maqsadga muvofiqdir.

Bog'chalar hududidagi bolalar guruhlari va umumiyl foydalanuvchi maydonlarni soya qilish maqsadida usti va yon tomonlari yovvoyi tok, puerariya, klematis, tekoma va boshqa chirmashib o'suvchi o'simliklar bilan qoplangan trelyaj va pergolalarni qo'llash ma'quldir.

Bolalar guruhlarining maydonchalari bir-biridan butalardan ekilgan yashil to'siqlar bilan ajratilishi kerak. Yashil to'siqlarga qirtishlash usulida geometrik shakllar ham berilishi mumkin.



*Bolalar bog'chasi hududidagi o'yinchoq mashinalar haydash maydonining ko'rinishi*



*Bolalar bog'chalari hududidagi bolalar o'yingohi zonalari.*



*Bolalar bog'chasi hududini landshaft loyihalash bo'yicha takliflar*



	<i>Ива плакучая</i>		<i>Группа можжевельников</i>
	<i>Клен остролистный</i>		<i>Багрянник канадский</i>
	<i>Дуб черешчатый</i>		<i>Яблоня культурная</i>
	<i>Можжевельник виргинский</i>		<i>Вишня культурная</i>
	<i>Сосна крымская</i>		<i>Виноград амурский</i>

*Bolalar bog'chasi hududini ko'kalamlashtirish bo'yicha loyihaviy taklif*

### **19-rasm.**

Bolalar bog'chalaridagi gulzorlar, asosan, binoga kirish oldida, ota-onalar kutadigan joyda va bino atroflarida bo'lishi mumkin. Gulzorlar bir, ikki va ko'p

yillik gullar va gullovchi butalardan shakllantirilib, ular o'zining chiroysi va qizg'in gullashi, gullarining yorqin ranglari, yoqimli hidi bilan ajralib turishi zarur. Bir yillik gullardan salviya, barxatstilar, petunya, astra, kalendula, xushbo'y tabaklarni qo'llash mumkin. Ikki yillik gullar ichida viola, margaritka, nezabutkalarga ko'proq o'rinni berilishi zarur. Ko'p yillik gullarni maysazorlar fondida manzarali butalar bilan birga ekish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun akvilegiya, liliya, delfinium, iris, pion, floks, ko'p yillik astralar tanlanadi. Trelyaj va pergolalar uchun tirmashib o'suvchi lianlar—klematis, jimolost, kaprifollarni, tik ko'kalamzorlashtirish va devorlarga soya berish maqsadida beshbargli devichiy vinograd, tekomalar, drevogubestlarni qo'llash mumkin.

Bolalar guruhlarining maydonchalari atrofiga va ularga yaqin joylarga mevali daraxtlar ekish maqsadga muvofiq emas. Chunki bolalar ularni pishmasdan, chang holida uzib olishlari va payhon qilish mumkin. Mevali daraxtlarni alohida joylarga, jo'ya olib qatorlab ekish mumkin. Daraxtlar va butalar ekiladigan joylar, gulzorlarning atrofi va bolalar maydonchalari va dam olish joylari maysazor bilan qoplanishi zarur.

**Qishloqlar maktablari hududlarining me'moriy–rejaviy va landshaft yechimlari.** Maktab hududlarini to'g'ri va qulay funkstional zonalarga bo'lib tashkillashtirish landshaft obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishda muhim sanitariya–gigienik va o'quv–tarbiyaviy ahamiyatga egadir (*20-rasm*). Aynan shu maqsadda maktab hududining yarmidan ko'p qismi (55–60 %) ko'kalamzorlashtirilishi zarur.


Tanlanadigan o'simliklar assortimenti nafaqat manzaraviy estetik va biologik talablarga, balki turli xil daraxt va butalardan hamda o'quvchilarga O'zbekiston florasini tanishtirish imkoniyatlariga ham ega bo'lishi kerak. Buning uchun yirik maktablar qoshida o'quv-tajribaviy biologiya va dendrologiya bog'chalarini, o'rta va kichik maktablar hududida mevali bog' va polizlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday hududlarda o'quvchi–yoshlar manzarali va qishloq xo'jalik ekinlarini ekish va o'stirish tajribalariga ega bo'lishi bilan birga tabiatga mehr qo'yish va uni ardoqlash ko'nikmalarini ham egallaydilar.



*Zamonaviy maktab binosi  
hududining landshaft yechimim:  
a—tarxdagi ko'rinishi; b—  
aksonometriyasি*



*Maktab hududidagi dam olish va sport zonalarini ko'kalamlashtirishda soya beruvchi daraxt va butalarini maysa ustuda alohida va guruhlab ekish kompozisiyalari*



Клен остролистный



Можжевельник  
виргинский



Слива Писсардо



Сосна крымская



Тополь  
пирамидальный



Сафора японская



Багрянник канадский



Виноград амурский



Дуб черешчатый

*Maktab hududini  
ko'kalamzorlashtirish bo'yicha  
loyihaviy taklif*

*20-rasm.*

Maktablar hududi quyidagi funkstional zonalarga bo'linishi zarur: o'quvchilarning tanaffus va darsdan keyingi vaqtlarida dam olish zonasasi, jismoniy tarbiya va sport zonasasi, tinch dam olish zonasasi, xo'jalik zonasasi.

Maktab hududi atrofdagi ko'chalardan bir yoki ko'p qatorli tarzda ekilgan daraxtlar bilan ajratilgan bo'lishi kerak. Maktabga kirib kelish yo'llari va ichki yo'laklar keng shox-shabbali daraxtlar bilan ko'kalamzorlashtirilishi zarur. Maktab binosining devorlari janub va janubiy-g'arb kabi quyosh tushuvchi tomonlardan qator ekilgan daraxtlar bilan to'silishi kerak. Boshqa hududlarda va maydonlarda ko'p sonli maktab bolalarining bo'lishi va harakatiga xalaqit bermaydigan daraxtlar ekilishi mumkin. Tinch dam olish zonasida esa daraxtlar tig'isroq ekilishi zarur. Bu yerda chirmashuvchi o'simliklar va toklar bilan o'ralgan pergola va besedkalar o'rnatilishi ma'quldir.

Maktab hududidagi dam olish zonasini ko'kalamzorlashtirish uchun quyuq soya beruvchi eniga keng o'suvchi, shox shabbasi va bargi tig'is daraxtlar tanlanadi. Darsxonalarining derazalari oldini to'sib qo'ymaslik uchun daraxtlar va baland butalarni binodan muayyan masofaga ekish kerak. Daraxtlar oralig'i 5–10 m, butalar orasi 3–5 m bo'lishi kerak. Butalarni maysa ustida alohida yoki guruhlab ekish zarur. Baland bo'yli butalarni (siren, jimolost, kalina, buldanej) maktab uchastkasi chegaralariga yaqin, o'rta va past butalarni (veygela, forzisiya, grebenshik, spireya) binolarga yaqin ekish tavsiya etiladi.

Maktabning old qismi va kirish joylaridagi hududlarni xvoy tipidagi daraxtlar (virgin mojjevelnigi, sharq biotasi, ko'k archa, magnoliya) bezaydi. Maktab hududiga tikonli butalar (boyarishnik, barbaris), mevasi va barglari zaharli bo'lgan o'simliklar (dafna yoki volche liko, jimolostning ayrim turlari, sumaxlar)ni ekish man etiladi.

Gulzorlarni, asosan, ko'p yillik o'simliklardan shakllantirish tavsiya etiladi. Maktab hududidagi dam olish zonasida miksborder gulzorlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Uning tarkibidagi turli o'simliklar yil davomida uzlusiz gullab, yaxshi manzara berishi muqarrardir. Ikki yillik va bir yillik o'tli o'simliklar va gullarni maktab binosi fasadi oldidagi klumbalar va rabatkalarni

shakllantirishda foydalanish mumkin. Maktab hududida bir yillik gullar tuxumi to'g'ridan-to'g'ri gulzor tuprog'iga ekiladi. Shunda uning yoppasiga gullashi maktabdagi o'qishning boshlanish davriga to'g'ri keladi.

**Qishloq sport binolari va davolash muassasalari hududining me'moriy rejaviy va landshaft echimlari.** Sport va davolash muassasalarining hududlarini ko'kalamzorlashtirish, sport bilan shug'ullanuvchilar, davolanuvchilarning sog'ligini tiklashni va dam olishini hamda atrofdagi ko'chalardan kelayotgan transport shovqini va chang-to'zonlardan saqlash uchun ajratishni ta'minlashi zarur.

Sport binolari va shifoxonalar egallab turgan hududning 70–80 % ko'kalamzorlashtirilishi zarur. Ko'kalamzorlarning deyarli barcha qismlarida soya–salqin ta'minlanishi kerak. Ko'kalamzor hududlar ochiq va yopiq yashil maydonlar tizimini yaratishi zarur (*21-rasm*).

Avvalambor, shifoxona hududining chegarasi bo'ylab himoya maqsadida 2–3 qator keng va tig'is shoxli daraxtlardan tuzilgan yashil tasma shakllantirilishi kerak. Yashil tasmaning ichki tarafidan unga yonma-yon tarzda, odatda kuzalmaydigan baland tig'is o'suvchi butalar ekilishi kerakki, ular hududni himoyalashi bilan birga ichki muhit manzarasini yaxshilaydi. Shifoxona hududidagi ichki piyoda yo'laklar soya beruvchi daraxtlar bilan, binolarga kirish qismlari esa tashqi shovqin, chang va gazlardan himoyalanish maqsadida tirik yashil to'siqlar bilan ko'kalamlashtiriladi (*22-rasm*). Shifoxonaning infekstion bo'limi hududini boshqa davolash bo'limlaridan, xo'jalik zonasini esa barcha bo'limlardan yashil o'simliklar yordamida ajratish zarur.

Ichki muhitni ko'kalamzorlashtirishda soliter, guruhlar, parter va gulzorlar kabi tabiiy landshaft kompozistiyalarini qo'llash va yaratish bemorlar uchun katta estetik va ruhiy ahamiyat kashf etadi.

Shifoxonalar bosh korpuslarining oldilarida soya tushuvchi dam olish joylari va manzaraviy ochiq landshaftli ko'kalamzor maydon (parter va gulzorlar, favvoralar) tashkillashtirilishi zarur. Bemorlarni ko'rgani kelganlar uchun chirmashib o'suvchi o'simliklar–lianlar bilan o'ralgan voishlar o'rnatish ham

yaxshi samara beradi. Shifoxona hududidagi ko'kalamlar ko'proq xvoy tipidagi, havo tarkibini fitonstid va ionlar bilan boyituvchi, xushbo'y hidli navlarning tanlanishi maqsadga muvofiq.

Shifoxona palatalarining shimol va shimoli-sharq tomonlaridan daraxt va butalarni binolarga yaqin ekmaslik zarur. Bu joylarga yaxshisi maysazor, butalardan ishlangan guruuhlar va ko'p yillik gulzorlarni shakllantirish kerak. Janub va janubiy g'arb tomonlardan esa, aksincha, binolarni quyoshning issiq oftobidan, palatalarning yozda haddan ziyod isib ketishidan saqlash maqsadida derazalar oldi soyalashtiriladi. Bino devoridan 5–6 metr masofaga quyuq soya beruvchi va baland o'suvchi daraxtlar (lipa, klyon, topol kabilar) ekiladi. Shifoxona hududida bemorlarning tinch dam olishi va ochiq havoda sayr qilishi uchun alohida yo'laklar va maydonlar yaratilishi kerak. Bu yo'laklar bo'y lab ochiq, quyoshli va soyali joylar tashkil etish maqsadga muvofiq. Yo'laklar bo'y lab daraxtlar va butalardan ekilgan erkin o'suvchi peyzajli guruhlarning yaratilgani ma'quldir.

Shifoxonalarda bemorlarda allergiya qo'zg'atuvchi o'simliklarni ekish man etiladi (masalan, tol va leshinalarning ayol navlari).

Shifoxona bosh binosi darvozasi va davolash korpuslarining kirish oldiga parter tipidagi yoki modullashtirilgan gulzorlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Gulzorlardagi gullarning rangi tinchlantiruvchi va yumshoq tonlarda bo'lgani ma'qul. Dam olish joylari oldiga esa hidi xushbo'y gullar (rezed, mattiola, xushbo'y tabak) ekilishi zarur. Xvoy tipidagi daraxt va butalar shifoxona hududini nafaqat yozda, balki qish faslida ham yaxshi bezaydi. Palatalar derazalari oldiga sibir dereni va uning turli shakllarini ekish mumkin. Uning yorqin qizg'ish barglari qishki peyzajlarga o'ziga xos tus berishi bilan ajralib turadi.



- 1. Sport maktabi kompleksini obodonlashtirish loyihasi va hududining landshaft yechimi.*
- 3. Sport binosi hududini landshaft tashkillashtirish tajribasi*
- 4. Sport komplekslari landshaft arxitekturasining tashqi tabiiy muhit, joy relyefi va iqlimiga mos kompozisiyasi*
- 5. Sport kompleksi landshaft arxitekturasining tashqi tabiiy muhit, manzaraviy peyzaj va o'rmonzorlar muhitiga mos tarzda ishlaniishi qo'shilib ketishi*

*2. Sport inshootlari va komplekslari hududlarining zamonaviy me'moriy-landshaft yechimi.*




*21-rasm.*



*Davolash muassasalarining me'moriy-landshaft yechimi.*



*Bemorlarni yo'qlab kelganlar uchun chirmashib o'suvchi o'simliklar-lianlar va voishlar bilan bezalgan suhatgohning ko'rinishi*



*Savdo markazi binosi hududini ko'kalamlashtirish bo'yicha loyihaviy taklif*

*22-rasm.*

### **3.4. Qishloq bog’–parklarining me’moriy–rejaviy va landshaft yechimlari**

2010 yilda O’zbekiston Vazirlar Mahkamasining 322–sonli “2011–2015 yillarda madaniyat va istirohat bog’larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari dasturini tasdiqqlash” to’g’risidagi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan bugungi kunda Respublikamiz shahar, tuman markazlari va qishloqlaridagi mavjud aksariyat istirohat bog’lari qayta qurildi, ta’mirlandi, ularning me’moriy landshaft yechimlari va attrakstionlari yangilandi. Tuman markazlarida “Yoshlar bog’i”, “Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari” tashkil etildi (23-rasm). Biroq, hanuzgacha Respublikamizning ayrim tuman markazlari va qishloqlarida bog’–parklarning me’moriy–rejaviy va landshaft yechimlari, ulardagi attrakstionlar va inshootlarning sifatlari past darajada qolmoqda. Shu sababdan yuqoridagi qarorda belgilangan vazifalar dolzarbligicha qolmoqda. **Quyida tuman markazlari va qishloq bog’–parklarining me’moriy–rejaviy va landshaft yechimlarini takomillashtirish bo’yicha umumlashtirilgan taklif va tavsiyanomalar bayon etiladi.**

Qishloq parklari, odatda, tuman markazlari, shahar yoki shaharcha maqqo-mini olgan qishloq hududida joylashib, shaharcha markazidagi biror nufuzli jamoat binosi (tuman hokimligi binosi, kollej yoki o’rta maktab binosi kabi) binolar yonidagi yoki alohida hududdagi manzarali joyni egallaydi.

Qishloq parklari, odatda, ochiq landshaft muhitida o’tkaziladigan ommaviy madaniy–ma’rifiy tadbirlar, konstertlar, Navro’z va Mustaqillik bayramlari, xalq sayllari, bolalar va sport o’yinlari, attrakstionlar va boshqa ommaviy–madaniy, dam olish va istirohat funkstiyalariga mo’ljallanadi. Aynan shu maqsadlarga moslab park hududi bir nechta **funkstional zonalarga**: ommaviy–madaniy tadbirlar va attrakstionlar, sport, bolalar, tinch dam olish va xo’jalik zonalariga bo’linadi. Park hududida suv havzasasi (tabiiy ko’l yoki prud) bo’lgan hollarda ushbu zonalar qatoriga akvatoriya zonasini ham qo’shiladi. Bu zonalar bir–biri va

parkning bosh darvozasi bilan park xiyobonlari va sayrgoh yo'laklari orqali bog'lanadi. Har bir zona o'z funkstiyasiga mos tarzda park inshootlari, imoratlari, qurilmalari, mebellari va hududning tashqi obodonlashtirish jihozlari bilan ta'minlanishi zarur. Bu zonalarning manzaraviy landshaft yechimlari ham ularga mos tarzda shakllantiriladi. Masalan, parkning bosh darvozasi oldi va bosh xiyobon yashil parterlar va qatorlar bilan ko'kalamzorlashtiriladi. Buning uchun esa, odatda, to'g'ri geometrik shakllar (konus, ustun, piramidasimon) yoki boshqa manzaraviy siluetlarga ega doim yashil xvoyli va bargli daraxtlar, butalar va gullovchi o'simliklardan foydalaniлади. Darvozaga tutash maydonlarda parter tipidagi klumba gulzorlari, bosh xiyobon bo'ylab esa rabatka va bordyurlar shakllantiriladi.

Parklarni loyihalash ishlarining amaliyoti va me'yoriy ma'lumotlarni taqqoslash asosida olingan parkning alohida zonalari maydoni va park yo'laklarining eni 2-jadvalda keltirilgan. Qishloq parklari maydoni uchun agar aholi soni 5 minggacha bo'lsa 2 gettardan kam bo'limgan, aholi soni 5 mingdan ko'p bo'lgan hollarda esa 7 gettargacha bo'lgan hudud ajratilishi maqsadga muvofiqdir.

## **2–jadval. Parkning alohida zonalari maydoni va**

### **park yo'laklarining eni**

Parkning funkstional zonalari	Park umumiyligida isbatan % hisobida, aholi soni		Park yo'laklarining eni, m
	5 minggacha	5 mingdan ko'p	
Ommaviy madaniy tadbirlar va attrakstionlar	6–8	8–10	3–6
Sport zonasasi	18–20	18–20	3–6
Bolalar zonasasi	12–14	10–12	2–4
Tinch dam olish zonasasi	55–60	58–62	1,5–3
Xo'jalik sektori	2–3	2–3	–

Park hududining umumiyligi ko'lamidan yashil maydonlar 67–75 % ni, park maydonlari va maydonchalari – 8–16% ni, xiyobon va yo'laklar – 12–18 % ni egallashlari, parkdagi bino va inshootlar maydoni esa 5 % dan oshmasligi kerak.

**Park markaziy qismining rejasи** ko'pincha muntazam stilda yechilib, shunga mos ravishda gulzorlar va xiyobonlar shakllantiriladi. Doim yashil butalardan oddiy mojjevelnik va kazastkiylarni ekish tavsiya etiladi. Ularning birinchisi piramidasimon tik shaklga ega bo'lsa, ikkinchisi yer bag'irlab sochilib o'sadi. Bunday guruhlar yam–yashil maysazor fonida yana ham yaxshi manzara beradi, agar kazastkiy mojjevelnik yonida atirgullar ekilsa samara yanada oshadi.

Doim yashil tuya zapadnaya o'simligi ham ko'p turli va o'ta ko'rak, uning daraxt shaklidan tortib, to yer ustida sharsimon ko'rinish beruvchi pastqam buta turlarigacha mavjud, uning xvoy rangi esa turli–tuman yashil va sarg'ish tuslarga kiradi. Maysa fonida daraxt va go'zal gullovchi butalar ekiladi. Ularni shunday xillari tanlanadiki, toki ular turlicha gullah davriga ega bo'lsin. Forzistiya, mindal, kinomeles, spereya Van Gutta, siren, gortenziya va boshqalar shular jumlasidandir.

Gul o'simliklaridan eng manzarali va uzoq gullovchilar - kann, salviya, pelargoniya, alissum kabilar tanlanadi. Park markazidagi parter va klumbaga mavsumiy gullar–bahorda tyulpanlar, narstissa, viola, margaritkalar va boshqalar, kuzda esa bir yilliklar ekiladi.

Park markazidan uzoqlashgan sari daraxt va butalardan tuzilgan tabiiy landshaft tusidagi aralash va murakkab guruhlar kompozistiyasini ko'paytirib borish zarur, ularning tarkibi kengayib ularga daraxtlarning mahalliy turlari ham kiradi (majnuntol, g'ujum va boshqalar). Gulzorlarning shakli va turlari ham o'zgarib, soni esa kamaytiriladi. Asosan maysa foniga ekilgan ko'p yillik gullardan tuzilgan guruhlar (rudbekiya, astra, floks, iris) va butalardan shakllangan guruhlar, miksborderlar qo'llaniladi.

Bu yerlarda, ya'ni markazdan chetroq xilvatroq joylarda, odatda, parkning **tinch dam olish zonasи** joylashgan bo'lib, yuqorida aytilgan ko'p yilliklardan tuzilgan yashil guruhlar–landshaft kompozistiyalari shakllantirilib, park skameykalari, pergola, voishlar bilan ta'minlanadi. Bu zonani

ko'kalamzorlashtirganda ochiq va yopiq yashil muhitlar tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqki, buning uchun o'tloq maysazorlar, pastqam butalar va soya beruvchi daraxtlar massivini qo'llashni tavsiya qilish mumkin.

**Bolalar zonasida** uncha katta bo'limgan modulli bog'lar yaratish maqsadga muvofiqli. Ularda turli o'simliklarni o'lchamlari 1x1m yoki 1,5x1,5 m bo'lgan gul qutilarida o'stirish mumkin. Bu bolalarning modulli qutilar orasidagi yo'laklardan quvishib faol va sho'x o'yinlari uchun qulay imkoniyat yaratishi mumkin. Bolalar attrakstionlarini bir-biridan yashil to'siqlar yoki tirik devorlar orqali ajratish tavsiya etiladi.

**Sport zonasiga**, odatda, gulzorlar ekilmaydi. Daraxt va butalardan iborat qatorlar yo'laklar va xiyobonlarni ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladi. Qatorlar esa ko'proq maysa va yeryopar o'simliklar fonida shakllantiriladi.

**Xo'jalik sektori** (park inventarlari jihozlarini saqlash uchun saroy yoki shiypon)ni tirmashib o'suvchi butalar (lianlar) yordamida yopish tavsiya etiladi. Boyarishnikdan ishlangan baland yashil to'siq, qisqa bargli lox yoki oddiy barbarislar nobop xo'jalik imoratlarini to'sish, ko'zdan xolilashtirish imkonini beradi. Xo'jalik hovlisining devori, hojatxonalar va axlatxonalar yoniga yog'och panjaralar o'rnatib, ularga suyantirib vinograd devichiy, pyatilstochkoviy, oddiy xmel kabi tirmashib va chirmashib o'suvchi o'simliklarni ekish mumkin.

Ana shunday manzarali o'simliklar bilan tinch dam olish zonasidagi trelyaj, pergola, voish, shiyponlarni ham bezash tavsiya etiladi. Eng manzarali lianlar (chirmashuvchi atirgullar klematislari, kaprifol va Braun jimolostlari, xushbo'y no'xatsimon)larni parkning markaziy qismida o'rnatilgan maxsus dekorativ tayanchlar yoniga ekish maqsadga muvofiqli. Bunday tayanchlar tekis voishlar, konus, piramida, shar yoki zontiksimon shakllarda bo'lishi mumkin.

Parklar hududiga ekiladigan daraxt va butalar soni hududning tabiiy-iqlim sharoitlari va landshaft tashkillashtirilayotgan park hududining kompozistiyaviy xususiyatlariga bog'liq tarzda me'yorlanadi. Parkning odamlar yig'iladigan markaziy qismida o'rtacha hisobda 1 gettarga 90-100 tagacha daraxt, 1000-1500 ta buta ekish me'yorlangan. Bu hududda daraxtlar asosan xiyobon, bordyur, yashil

to'siqlar ko'rinishida qatorlab ekilishi yetakchi rol o'ynaydi. Parkning sayrgoh hududlarida esa tig'iz yashil guruhlar, krutinalar va massivlar yetakchilik qiladi. Ekilish tig'izligi 1 gektarga 400 ta yoki oraliqlari 5x5m masofa olinib, kattaligi bo'yicha asosan 1- yoki 2-guruhga kiruvchi ko'chatlar ekiladi. Siyrak ekiladigan qismlar uchun 2-guruh ko'chatlari olinib, ularning oraliqlari 6x8m masofada yoki 1 gektarga 230 tadan ko'chat ekiladi. Ochiq muxitli landshaftlar esa soliter kompozistiyali daraxtlar bilan 1 gektarga 50 ta, asosan 3-guruhga kiruvchi, ya'ni yirik o'lchamli ko'chatlardan tanlab ekiladi. Daraxtlar va butalar sonining nisbati 1:4 – 1:10 chegarasida bo'lishligi maqsadga muvofiqli.

Qishloq parklarini tabiiy yoki sun'iy shakllantirilgan suv havzalari ham bezashi mumkin. Ular atrofidan aylanib yurish uchun yo'laklar o'rnatish zarur. Suv havzalarining qirg'oqlarini maysalar bilan, daraxtlar, butalar va ko'p yillik o'simliklardan tuzilgan guruhlarni esa shunday joylashtirish kerakki, ular suv havzalarining chiroyli peyzajlarini to'sib qo'ymasin. Aksincha suv havzalari sohillariga majnuntol kabi manzarali va gullovchi butalardan ekish maqsadga muvofiqli. Uncha katta bo'limgan irmoqlar sohiliga esa toshlar va namlikni yoqtiruvchi turli xil ko'p yillik o'simliklar, shu jumladan veronika prostertaya, nezabudka bolotnaya, paporotniklarni ekish mumkin.

Bog'–park san'atida yangi texnologiyalarni qo'llash, xususan ochiq yashil muhitlarning dekorativ xususiyatlarini yanada oshirish maqsadida zamonaviy "Nur arxitekturasi"ning yangi qirralaridan foydalanish (masalan, o'zidan tunda yorug' chiqaruvchi bordyurlar, girlyandalar, nurlanuvchi soyabonlar, bog'–park san'ati ob'yektlari hududining to'shamalariga yotqiziladigan tunda o'zidan nur chiqaruvchi plitalar, nurlanuvchi geoplastikalarni) qo'llash orqali zamonaviy bog' va parklar arxitekturasiga yangicha sifat bag'ishlashimiz mumkin.

Zamonaviy bog'–park san'ati ob'yektlari, ochiq va yopiq yashil muhitlar manzarasini san'atimizning milliy qadriyatlari asosida shakllantirishda tarixiy va O'rta Osiyo xalqlari uchun an'anaviy hisoblangan "Chorbog", "Chorchinor" va "Chorcharman" uslublarini qo'llashni taklif etiladi.

Amir Temur va Temuriylar davri, so'ngra O'rta Osiyodagi xonliklar davri bog'-parkchilik san'atida "chorbog'" uslubi yetakchi mavqeni egallagan. Chorbog' bu modulli (miqyosiy) bog' bo'lib, hududiy elementlari bosh rejaviy o'qqa nisbatan muntazam simmetrik joylashgan, qismlari to'rt va undan ko'p bo'lган bir-biriga teng "chorchaman" va "chaman"lardan tuzilgan, atrofi devor bilan chegaralangan tartibli bog'dir. Unda kichik modul rolini chamanlar bajarsa, katta modul bu chorhamandir. Chorbog' o'zining rejaviy yechimiga ko'ra inson tafakkurining eng oliv tasavvuridagi jannat bog'iga xos bo'lган xolislik nazariyasiga, handasaviy uyg'unlik va modul tizimiga asoslangan.

Bog'lardagi yashil dunyo tarkibiga manzarali va mevali daraxtlar, butalar, erta bahordan kech kuzgacha birin-ketin ochiluvchi gullar, tok va maysalar kirgan. Manzarali daraxtlar tarkibiga mirzateraklar, tol, chinor, sarv, majnuntol, qayrog'och va shamshotlar kirgan. Ular yordamida bog'da ochiq va yopiq hiyobonlar shakllantirilgan. Mevali daraxtlardan olmalarning turli navlari, o'rik, shaftoli, anor, nok, olcha, anjir, tut va bodomlar ekish, alohida uzumzor tashkil qilish, gullardan hamisha bahor, atirgullar, binafshalar, savsan, gulira'no, nilufar, shabbuy, gulto-jixo'roz, arg'un, sadbarg gullari, hanjariylarni ekish an'ana bo'lган.

Bog'larning suv dunyosi ariqlar, buloqlar, kvadrat, olti va sakkiz burchakli hovuzlar, favvoralar, shalolalar va sharsharalardan tuzilgan. Hayvonot dunyosi esa yovvoyi va xonaki hayvonlar, baliqlar, paranddalar va qushlardan iborat bo'lган.

Chorbog' relyefiga ko'ra maydonining sathi nisbatan tekis va pog'ona-simon turlarga bo'lingan. Pog'onasimon chorbog'lar hududi relyefli, qiyalik va qirlardan iborat bog'larda qo'llanilib, bog' pog'onalarini tirkak devorlar, zinapoyalar va shalolalar bilan bog'langan.

Chorbog' uslubidagi tarixiy bog'larning me'moriy-rejaviy va landshaft yechimlariga xos asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

- bog' hududini atrof-muhitdan darvoza va devorlar orqali holilashtirish;
- bog'larning me'moriy-rejaviy va landshaft yechimini joy relyefiga mos tarzda shakllantirish: tekis hududlarda muntazam rejali simmetrik kompozistiyali bog'lar yaratish; qiyaliklarda esa muntazam rejani erkin tabiat ko'rinishidagi

rejaviy yechimlar bilan uzviy bog’lash va bog’ hududini pog’onalarga bo’lib chiqish;

- har ikkala rejaviy yechimda muntazam tartibli simmetrik chorborg’, chorcharman, hiyobon va chorchnor kompozistiyalarini qo’llash;
- bog’larni ko’kalamzorlashtirishda manzarali va mevali daraxtlarni qo’llash, me’moriy bog’ni xo’jalik bog’i bilan muvofiqlashtirish, sug’orish shohob-chalarining muntazam va tejamli tartibini belgilash;
- bog’lardagi “yashil dunyoni” “suv dunyosi” va “hayvonot dunyosi” bilan uyg’unlashtirish, har bir dunyoning ekzotik turlari va shakllaridan foydalanish;
- bog’ning bosh binosi (saroy yoki ko’shk)ni tabiiy yoki sun’iy ishlangan tagkursi, platforma yoki stilobatga joylashtirish;
- bog’ xiyobonlarining boshi va oxiri, kesishgan joylarini go’zal me’moriy kompozistiyalar (hovuz, favvora, ko’shk, voish va shu kabilar) bilan bezash;
- xiyobonlarni quyosh nurini e’tiborga olib ufq tomonlariga mos holda ko’kalamzorlashtirish va ko’proq soyali muhitlarni tashkil qilish.

Qishloq bog’-parklarida bog’ning o’zi va bog’ inshootlari (imoratlar, ko’shk, saroy, favvora, hovuz, so’ri, chorpoja, yo’lak, ariq) bog’ning muhim tarkibiy qismlari deb qaralib, ularning kompozistiyasi esa tarxi va hajmiga ko’ra o’zaro uzviy va uyg’un bog’lanishda bo’lmog’i kerak. Ana shu me’moriy yaxlitlik, ya’ni bog’ va uning imoratlari yoxud bog’ elementlari orasidagi uyg’unlik bog’ dizaynining bosh tamoyiliga aylanishi zarur. Buning uchun bog’ qismlari, barcha elementlar va imoratlar geometriyasi to’g’ri chiziqli, bir-biriga stilistik o’xshash, muntazam, aksli simmetriya qonuniga asoslangan bo’lishi talab etiladi. ”Chorbog” kompozistiyasi bu tamoyilning me’moriy garovidir. Chorbog’ uslubida bunyod etilgan va bizgacha yetib kelgan va kelmagan barcha bog’lar: Temuriylar va Boburiylar bog’lari, Eron va Damashq, Turkiya bog’lari buni isbotlab turibdi. Bu bog’larning barchasi muntazam geometrik rejaviy yechimga, ya’ni ”Chorbog” uslubiga asoslangan bog’lardir. Ularning yaratilish konsepstiyasida yuqoridagi me’moriy yaxlitlik, geometrik muntazamlik va simmetriyadan tashqari ”suv va soya qonuni” muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, qishloq bog’-parklarida ham ana shu qonuniyatlar, ya’ni tamoyillar yetakchi o’rinni egallashlari zarur. Bu asosiy me’moriy tamoyillarga manzarali va mevali daraxtlar, kuzalib sun’iy shakllar berilgan manzarali daraxtlar, tokzor (uzum), gulzor va sabzavotlar hamda qo’lga o’rgatilgan hayvonot dunyosiga ham tegishli joy va o’rin berilishini shart deb qabul qilinish kerak.

Qishloq bog’-parklaridagi ariq suvlari chorpojalar, ko’shklar va daraxtlar soyasi tagidan jildirab oqib o’tmog’i, hovuzdagi suv sahni esa sayr qilish yo’laklaridan past bo’lib, ularning yuzasiga quyuq soya tushmog’i zarur. Chorbog’dagi favvoralar va suv qurilmalariga yuborilayotgan suv bosimini shunday ta’minlash kerakki, suv favvora chetidan yengilgina toshib chiqib doim oqib tursin, toki bu sizga jannat bog’idagi uzluksiz oqib turuvchi va doim bisyor jannat bulog’i va favvorasini eslatsin.

Qishloqdagi bog’-parklar ham bunday sifatlarga tom ma’noda ega bo’lmog’i, to’g’rirog’i bu sifatlar uning eng muhim me’moriy-landshaft tamoyillaridan biri bo’lmog’i kerak. Bu sifatlar bog’da suv dunyosining turli me’moriy shakllari (ariqlarda jildirab oqayotgan suv, favvoralardan tizillab otilayotgan suv, sokin hovuz suvi, agar bog’ qiyalikda joylashgan bo’lib, sahni tekis pog’onalarga bo’lin-gan bo’lsa shalolarlardan shildirab oqayotgan suv)ga xos muhim xususiyatlardan bo’lishi kerak. Ana shunday me’moriy tafakkur va tamoyillar asosida yaratilgan har qanday an’anaviy sharqona bog’ juda katta ijtimoiy-madaniy va badiiy estetik imkoniyatlarga ega bo’lishi muqarrardir.

Zamonaviy qishloq bog’-parklarini birinchi navbatda, albatta istirohat bog’i tarzida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Lekin qanday istirohat bog’i? Ko’p funkstiyalimi yoki uning maxsus biron-bir istirohat funkstiyasiga mo’ljallangani ma’qulmi? Har qalay undan faqat tomosha ob’yekti sifatida foydalanish maqsadga muvofiq bo’lmas. Keljakda barpo etilajak qishloq bog’-parklari ularga tashrif buyuruvchilarda ham shaklan, ham mazmunan haqiqiy o’zbek bog’i haqida tasavvur hosil qilish kerak. Buning uchun ushbu bog’larning me’moriy-rejaviy, manzaraviy landshaft yechimlari va sifatlari nafaqat an’anaviy ”Chorbog” uslubida ishlanishi, balki uning arxitekturasi o’zbek xalqining milliy sayl va

bayramlariga, milliy-ommaviy o'yinlari va folklor tomoshalari o'tkaziladigan maxsus joy, maydon va qurilmalarga (masalan, Navro'z, Mustaqillik kuni bayrami, Hosil bayramlari va hokazolar), o'zbek xalqining bog'-park san'atiga doir eksponatlar ko'rgazmasiga, Nigoriston, ya'ni badiiy-tasviri san'at asarlari ko'rgazma zaliga, o'zbek xalqining milliy liboslari va kelin to'yi (chimildiq) marosimlari ko'rgazmasiga, o'zbek millik taomlari va sharbatlari bilan mehmon qiluvchi oshxonalar va choyxonalarga, milliy musiqa va konstert zallari, milliy oranjereya, yoshlar ijodiy markazi va qo'g'irchoq teatri kabi funksiyalarga moslashtirilishi mumkin. Bularning barchasi, o'ylaymizki, o'zbek xalqining zamonaviy bog'-parklarini shaklan to'ldiruvchi va ularga mazmunan mos keluvchi zamonaviy funksiyalardir. Bu funksiyalar bizga Amir Temur va temuriylar davri bog'lari va umuman O'rta Osiyoning tarixiy bog'larida amalga oshirilgan istirohat funksiyalarini ham eslatib turishini unutmasligimiz zarur.

Zamonamizning hozirgi tezkor rivojlanayotgan globallashuvi sharoitida O'zbekiston qishloqlarining bog'-park san'atini identifikasiyalash maqsadida nafaqat mavjud muammolarni ta'kidlash va ko'rsatib berish zarur, balki Respublikada bog'-park san'ati taraqqiyotining yangi yo'nalishlarini aniqlashtirish va bu masalaga mintaqaviy yondashish konstepsiyasini ishlab chiqib, uni fan, amaliyot va ta'lim tizimlariga ham joriy qilmoq kerak.

## **Nazorat savollari**

1. Tabiiy va antropogen landshaftlar haqida nimalarni bilasiz?
2. “Landshaft” va “peyzaj” tushunchalarining o’zaro farqi?
3. Park kompozistiyasi elementlarini ayting va ularga izoh bering.
4. Bog’lar va parklar tashkil etishda tabiiy muhitning o’rni qanday?
5. Gullar bilan bezashning asosiy turlarini ayting.
6. Qaysi qonunlarga asosan daraxt va butalar turlari tanlanadi?
7. Parklar oyektlarining shakllanishida kompozitsion savollarni yoriting.
8. Bog’ – parklar uslublariga tavsif bering.
9. Qanday turdagи parklarni bilasiz?
10. “Shahar bog’i” degan tushunchaga qanday tavsif berasisiz?
11. Skver bu nima?
12. “Xiyobon” so’zini tushuntirib bering.
13. Sport parklarini loyihalashda asosiy qonuniyatlar.
14. Botanik park va bog’lar oddiy parklardan nima bilan farq qiladi?
15. Park landshafti elementlarini ayтиb bering.
16. Dam olish va istirohat bog’i oddiy parklardan nima bilan farq qiladi?
17. O’rmonzor parkning park va o’rmondan farqi nimada?
18. Qo’riqxona bu nima?
19. Skverni qanday loyihalash kerak?
20. Xiyobonni loyihalashning asosiy o’ziga xos xususiyatlarini ayting.
21. Mikrorayon va turar – joy kvartallarini ko’kalamzorlarini loyihalashda nima ta’minlanishi kerak?
22. Kichik bog’ kompozistiyasining o’ziga xos xususiyatlarini ayting.
23. “Yapon bog’i” nimani ta’riflaydi?
24. Maktab maydonida ko’kalamzorlashtirish obyektlari va inshootlar ro’yxatini ayting.

25. Shifoxona maydonida ko'kalamzorlashtirishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
26. Ishlab chiqarish korxonalarini ko'kalamzorlashtirishda daraxt va butalar navlari qanday tanlanadi?
27. Yashil ko'kalamlarni tashkil etishda asosiy bosqichlarga ta'rif bering.
28. Maxsus maqsadda foydalanishga mo'ljallangan ko'kalamzorlar tarkibiga nimalar kiradi?
29. Umumiy foydalanishga mo'ljallangan yashil ko'kalamlarga nimalar kiradi?
30. Park loyihalashda Qanday boshlang'ich materiallar zarur?

## **Test savollari**

### **1. Shahar parklarining quyidagi keltirilgan qaysi klassifikatsiyasi to'g'ri?**

- \*Botanik parklar, madaniyat va istirohat parklari
- Ko'ngil ochar attraksion parklar, sport parklari
- Tematic va notematic parklar
- Ko'p funksiyali, monofunksiyali va maxsus paklar

### **2. Monofunksiyali parklar uchun keltirilgan quyidagi misollardan qaysi biri to'g'ri?**

- \*Madaniyat va istirohat parklari
- Dendroparklar va gullar bog'i
- Tematic parklar, botanik parklar
- Disneylendlar va bolalar parki

### **3. Shaharning magistral ko'chalarini ko'kalamzorlashirishda qanday daraxtlar tanlanadi?**

- \*Gazga, changga, shovqinga chidamli hamda trotuarga soya beruvchi daraxtlar
- Shovqinga, shamolga chidamli, baland o'suvchi daraxtlar
- Suvsizlikka va gazga chidamli baland o'suvchi daraxtlar
- Soya beruvchi, chiroyli gullovchi daraxtlar

### **4. Bolalar bochalari hududining qancha foizi ko'kalamzorlashtirish kerak?**

- \*60 %
- 65 %
- 70 %
- 75 %

### **5. Ko'p funksiyali parklar hududi qanday funksional zonalarga ajratiladi?**

\*Ommaviy tadbirlar va attraksionlar, sport, bolalar tinch dam olish va sayr qilish, xo'jalik zonalari

Ommaviy o'yinlar, tomoshagohlar, sayrgohlar va xo'jalik zonalari

Ommaviy o'yin va tomoshalar zonasi, attraksionlar sport va sayr qilish zonasi

Ma'naviy dam olish, sayr qilish, bolalar va xo'jalik zonasi

## **6. Ko'p funtsiyali parklar hududining balansi qanday bo'lishi kerak?**

\*Ko'kalamzorlar- 70-75 %, yulaklar, xiyobonlar, maydonlar-20-25 %, bino va inshootlar- 5-10 %

Ko'kalamzorlar – 80 %, yo'lak, xiyobon, maydonlar – 15 %, bino va inshootlar- 5 %

Ko'kalamzorlar- 60-70 %, yo'lak, xiyobon, maydonlar 30 %, bino va inshootlar- 20%

Ko'kalamzorlar- 85 %, yo'lak, xiyobon, maydonlar 10 %, bino va inshootlar- 5 %

## **7. Bog'-parklar kompozisiyasini shakllantirishda qanday tarixiy milliy stillari mavjud?**

\*Fransuzcha, italyancha, inglizcha bo stillari, yaponcha, xitoycha stil, Chorbo stili, ispan-mavritan stili

Yunoncha, misr, yeron, xindcha bo stillar

Gollandcha, nemischa, turkcha, ispancha stillar

Ruscha, fincha, yestoncha, arabcha bo stillari

## **8. O'zbekiston sharoitida shaharlar hududining ko'kalamzorlashtirilgan qismi necha foizdan kam bo'lmasligi kerak?**

\*65 %

70 %

60 %

55 %

## **9. Dendrologiya deb nimaga aytildi?**

\*Tanlangan daraxt va o'simliklar, ularning joylashish va ekilish tartibi ko'rsatilgan loyiha

Sug'orish suv ta'minoti tarmoqlari ishlab chiqilgan loyiha

Yer arxitekturasi ishlab chiqilgan loyiha

Tashqi obodonlashtirish jihozlari ishlab chiqilgan loyiha

### **10. Landshaft so'zining lug'aviy ma'nosini to'g'ri ko'rsating?**

\*Yer manzarasi

Yer tuzilishi

Yerdagi o'simliklar

Yer geografiyasi

### **11. Quyidagi javoblardan landshaftning turlarini to'g'ri ko'rsating?**

\*Tabiiy va sun'iy landshaftlar

Tabiiy va madaniy landshaftlar

Shahar va qishloq landshaft

Cho'l va sahro landshafti

### **12. Landshaft arxitekturasining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?**

\*O'simlik dunyosi, suv dunyosi va uning qurilmalari, hudud relyefi va uning shakllari, tashqi obodonlashtirish elementlari

O'simlik va suv dunyosi, mo'jaz me'moriy shakllar

O'simliklar, hovuz va favvoralar, tashqi obodonlashtirish elementlari

O'simliklar, hudud relyefi, mo'jaz me'moriy shakllar

### **13. “Chorbog” uslubining ilk kelib chiqish asoslarini to'g'ri ko'rsating**

\*“Chor unsur” falsafasiga asoslangan

Bir yo'la to'rtta boni vujudga keltirish fikriga asoslangan

“Chor unsur” falsafasi va bu hududini tejamli suorish tizimiga asoslangan

Qur'oni Karimdag'i bolar sifatiga asoslangan

### **14. Quyidagi qaysi javobda manzarali o'simliklardunyosi to'g'ri ko'rsatilgan?**

\*Daraxtlar, butalar, lianlar, gullar, maysalar, yer yopar o'simliklar.

Daraxtlar, butalar, suv ostida va suv ustida o'suvchi o'simliklar  
Daraxtlar, daraxt-butalar, buta-daraxtlar, lianlar, tikonli o'simliklar  
Daraxtlar, butalar, maysalar, o'tlar, suv usti gullari va manzaralar.

**15. O'zbekiston hududi daraxt va butalarning o'sish imkoniyatlariga qarab qanday zona va rayonlarga bo'linadi?**

\*Shimoliy-g'arbiy, markaziy, janubiy, sharqiy zonalarga va 11 ta rayonga  
Shimoliy, sharqiy janubiy zonalarga va ularga tegishli 11 ta rayonga  
Shimoliy-g'arbiy, markaziy, g'arbiy va sharqiy zonalarga va 14 ta rayonga  
Markaziy, sharqiy, arbiy zonalarga va 12 ta rayonga

**16. Gullardan shakllantiradigan landshaft kompozisiyalarini to'g'ri ko'rsating:**

\*Soliter, klumbalar, rabatkalar, miksborderlar, massivlar  
Klumbalar, segmentlar, freskalar, rozariyalar  
Miksborderlar, guruhlar, buketlar, kurtinalar  
Massivlar, rabatkalar, kurtinalar, freskalar

**17. Daraxtlardan tuziladigan landshaft kompozisiyalarini to'g'ri ko'rsating?**

\*Guruhlar, soliterlar, qatorlar, massivlar, kurtinalar  
Guruhlar, rabatkalar, miksborderlar, soliterlar  
Katorlar, klumbalar, massivlar, bosketlar  
Rabatkalar, qatorlar, kurtinalar, bosketlar

**18. Shabada samarasini nima?**

\*Tabiiy ravishda iliq havo oqimini hosil qilish va undan muhitni sog'lomlashtirishda foydalanish

Ochiq va yopiq yashil muhitlar orasida tabiiy ravishda sovuq havo oqimini hosil qilish va undan foydalanish

Sun'iy ravishda iliq havo oqimini hosil qilish va undan foydalanish

Sun'iy ravishda sovuq havo oqimini hosil qilish va undan foydalanish

**19. Umumiy foydalanishga mo'ljallangan ko'kalamzorlar soni O'zbekistan shaharlarida aholi boshiga qanchadan kam bo'lmasligi zarur?**

\*15 kv.m

30 kv.m

24 kv.m

40 kv.m

**20. Barcha ko'kalamzorlarning umumiy soni O'zbekistonda har bir shahar aholisiga qanchadan kam bo'lmasligi zarur?**

\*60 kv.m

30 kv.m

75 kv.m

90 kv.m

**21. Ko'kalamzorlarni loyihalashning asosiy tamoyillarini to'g'ri ko'rsating:**

\*Ko'kalamlarni shahar hududi bo'ylab teng taqsimlash, ularning uzviyligini ta'minlash, shahar ichi va shahar cheti ko'kalamzorlar tizimini yaratish va o'zaro bog'lash

Mikrorayon bog'i, tuman bog'i va umumshahar bog'-parklarini shakllantirish

Tuman bog'i, sshahar bog'i, zavod bog'i va shahar cheti bog'-parklarini shakllantirish

Xiyobonlar, skverlar, bulvarlar, bog'-parklar tizimini shakllantirish

**22. Ochiq yashil muhitlar ko'rsatilgan qatorni to'g'ri belgilang:**

\*Klumbalar, rabatkalar, rozariyalar, miksborderlar, dekorativ maysazorlar

Xiyobonlar, rabatkalar, maysazorlar, guruhlar

Bulvarlar, klumbalar va miksborderlar

Guruhlar, qatorlar, maysazorlar

**23. Daraxt va butalar qanday tamoyillarga asoslanib tanlanadi?**

\*Funksional vazifasiga, badiiy-dekorativ, sanitariya-gigienik, biologik xususiyatlari va sifatlariga ko'ra

Suvsizlikka, issiq va sovuqqa chidamlilik darajasiga ko'ra

Tuproqning holati va hosildorligiga ko'ra

Chang-to'zon, gaz, tutunlarga chidamliligiga

**24. Landshaft obyektlarini shakllantirishda qanday kompozitsiyaviy vositalar va usullar qo'llaniladi?**

\*Muhit va uning elementlari masshtabiga rioxalish, kontrast, nyuans, metr, ritm va mutanosiblik qoidalarini qo'llash

Kompozisiyaviy markaz, bosh va yordamchi o'qlar va aksentlarni bo'rttirish

Ranglar yaxlitligi va koloristik uyg'unlikka erishish

Landshaft dizayni va fitodizayn elementlari

**25. Ko'kalamzorlar foydalanishi va vazifasiga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?**

\*Umumiy foydalanuvchi, foydalanishi cheklangan va maxsus ko'kalamzorlar

Chang-to'zonlar va shamollar oldini to'suvchi ko'kalamzorlar

Sanitariya-gigienik zonalardagi ko'kalamzorlar

Xo'jalik va manzarali ko'kalamzorlar

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
- 2.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihibar bo'yicha arzon uy-joylar qurish to'g'risida"gi PQ-2639-son Qarori.
- 3.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 26 yanvar PQ-1046-sonli "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturi to'g'risidagi Qarori – Toshkent, 2009.
- 4.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 martdag'i 59-sonli "Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish qoidalarini tasdiqlash" to'g'risidagi Qarori – Toshkent, 2009.
- 5.** O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi. 4yanvar 2011 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
- 6.** Zamonaviy arxitektura–shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarni tashkil qilish qoidalari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori–T., 2009.
- 7.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrdagi chiqarilgan 322–sonli "2011–2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari dasturini tasdiqlash" to'g'risidagi Qarori.–T., 2010.
- 8.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 13 avgustdag'i 223–sonli "O'zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish Dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori. –T., 2013.
- 9.** QMQ 2.01.01-94 "Loyihalashtirish uchun iqlimiylar va fizik – geologik ma'lumotlar" qurilish me'yorlari va qoidalari. – Toshkent, 1994.

- 10.** ShNQ 2.07.04–06. “Qishloq xo’jalik korxonalari hududlarini rejalashtirish va tashqil qilish” shaharsozlik normalari va qoidalari.–Т., 2006.
- 11.** ShNQ 2.07.01–03\*. “Shahar va qishloq aholi punktlari va hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalri.–Т., 2009.
- 12.** ШНҚ 2.07.04-12 “Архитектурно-планировочная организация территории сельских сходов граждан и сельскохозяйственных предприятий”. – Ташкент, 2012.
- 13.** Архитектурно–планировочная организация селитебной зоны сельского поселка в условиях Узбекистана. Методические рекомендации.–Самарканд: СамГАСИ, 1988.
- 14.** Axmedov M.Q. O’rta Osiyo me’morchiligi tarixi.–Т., 1996.
- 15.** Аскаров Ш.Д. Регион–пространство–город.–М.: Стройиздат, 1988.
- 16.** Адилова Л.А. Ландшафтное планирование.–Т.: ТАСИ, 2007
- 17.** Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi. O’quv qo’llanma.–Т., 2009.
- 18.** Алимов У. История садово-паркового хозяйства Самарканда XIV–XV вв. Автореферат канд. дисс.–Т., 1974.
- 19.** Alimov O’. O’rta asrlarda Movarounnahrda bog’chilik xo’jaligi tarixi.–Т., 1984.
- 20.** Ветлугина А.В. Функционально-планировочная организация малых городов-структурных элементов территориальных градостроительных систем Узбекистана. Автореферат дисс. канд.арх.–Ташкент, 2011.стр.22.
- 21.** Винщу И.А. Архитектурно–планировочная организация сельских населенных пунктов.–М.: Стройиздат, 1986.
- 22.** Казанский А. Проблемы районной планировки и расселения в Узбекистане.–Архитектура и строительство Узбекистана, 1988, № 11.
- 23.** Карабаев А.А., Ян Б.Д. Проектирование поселков для экспериментально–показательного строительства в Кашкадарьинской области.–Строительство и архитектура Узбекистана, 1971, № 9.

**24. Кончуков Н.П.** Планировка сельских населенных мест. Учебник для строительных ВУЗов.—М.: Высшая школа, 1979.

**25. Кончуков Н.П.** Планировка сельских населенных мест. ЦНИИЭП градостроительства.—М.: Стройиздат, 1980.

**26. Махкамов А.А.** Сельские жилые дома юга страны.—М.: Стройиздат, 1984.

**27. Мирзаахмедов К.М., Салахуддинов Х.А.** Развитие архитектуры села в Узбекистане.—Архитектура и строительство Узбекистана, 1984, № 9.

**28. Мирзаахмедов К.М., Закирова Н.А.** К проблеме совершенствования структуры сельскохозяйственных поселений в оазисах Узбекистана.—Архитектура и строительство Узбекистана, 1986, № 4.

**29. Немировский В.И.** Особенности планировки и застройки совхозных поселков на осваиваемых землях в районах нового орошения Узбекской ССР. Автореф. дисс. канд.арх.—М., 1986.

**30.** Рекомендации по учету природно–климатических факторов в планировке, застройке и благоустройстве городов и групповых систем населенных мест в условиях Узбекистана.—Ташкент: УзНИИП градостроительства, 1981.

**31. Турсунов Х.К.** Формирование архитектурно-планировочной структуры райцентров в перспективных системах расселения (на примере орошаемых районов Узбекистана). Автореферат дисс. канд.арх.—Ленинград, 1973.

**32. Uralov A.S., Jonuzoqov A.E., Balgaeva Sh.A.** O'zbekiston qishloqlarida landshaft arxitekturasini rivojlantirishning zamonaviy yo'naliishlari (Samarqand viloyati misolida). Monografiya—Samarqand: "Zarafshon", 2015.

**33. Uralov A.S., Balgaeva Sh.A.** Qishloq turar joy hududlarining me'moriy landshaftini takomillashtirish masalalari.//Me'morchilik va qurilish muammolari ilmiy–texnik jurnali.—Samarqand: SamDAQI, 2009, №3.—B. 16–19.

**34. Uralov A.S., Balgaeva Sh.A.** Samarqand viloyati qishloqlarining landshaft me'morchiligidagi muammolari.//Me'morchilik va qurilish muammolari ilmiy–texnik jurnali.–Samarqand: SamDAQI, 2012, №2.–B. 14–17.

**35. Кияткин А.К., Зиновьевна Н.Ф., Кравченко Л.К. и др.** Цветы Узбекистана.–Т.: Узбекистан, 1979.

**36. Balgaeva Sh.A.,** Qishloq landshaftlarining o'ziga xos tuzilishi.–Oliy ta'lif muassasalariaro ilmiy–amaliy konferenstiyasi materiallari “Zamonaviy qishloq aholi punktlarini loyihalashning dolzarb masalalari”.–Toshkent, TAQI, 2014.–B. 42–45.

**37. Balgaeva Sh.A.** O'zbekiston qishloq landshaftlari arxitekturasida ko'kalamzorlar tizimini tashkillashtirishning shaharsozlik asoslari.–Respublika ilmiy–amaliy konferenstiyasi materiallari “Arxitektura ta'limi va innovastiya”.–Toshkent, TAQI, 2015. – B. 60-63.

**38. Balgaeva Sh.A.** Ko'kalamzorlashtirish tizimida “Shabboda samarasi” va undan foydalanishning asosiy tamoyillari.–Respublika ilmiy–nazariy va amaliy konferenstiyasi materiallari “Binolarning energiya samaradorligini oshirish va qurilish fizikasining dolzarb muammolari”.–Samarqand, SamDAQI, 2014.–B. 17–18.

**39. Balgaeva Sh.A.** O'zbekiston qishloqlari landshaftini rejalashtirish xususiyatlari.–XIII respublika ilmiy–amaliy konferenstiyasi materiallari “Ta'lif, fan va ishlab chiqarish integrastiyasida intellektual salohiyatli yoshlar–mamlakat taraqqiyotining muhim omili”.–Samarqand, SamDAQI, 2016.–B. 41-44.

**40. Balgaeva Sh.A.** Samarqand viloyati qishloqlarida landshaft arxitekturasi va dizaynini yaratishning samarali yo'llarini shakllantirish.–xalqaro ilmiy–texnik konferenstiya materiallari “Arxitektura va qurilish sohalarida innovastion texnologiyalarni qo'llash istiqbollari”.–Samarqand, SamDAQI, 2016.–B. 185–187.

**41. Uralov A.S., Balgaev A.B., Balgaeva Sh.A.** O'zbekiston qishloqlarida landshaft arxitekturasi elementlarini loyihalash. //“O'zbekistonda shaharsozlik va landshaft arxitekturasini rivojlantirishning dolzarb muammolari”. Respublika

ilmiy–amaliy konferenstiyasi materiallari.–Samarqand:SamDAQI, 2013.–B. 318–321.

**42. Uralov A.S., MuxammadievE.M., Balgaeva Sh.A.** Samarqand viloyati sharoitida qishloq landshaftlari arxitekturasi va dizaynini yaratishning samarali yo’nalishlarini shakllantirish bo'yicha ilmiy–amaliy takliflar va tavsiyanomalar.– Samarqqand: SamDAQI, 2012.

**43. Булатов М.С.** Сады и парки Темура и Темуридов//Маскан журнали, №2. 1993.

**44. Бородина М.Р., Максумова М.** Акватехнология в современном ландшафтном пространстве//Архитектура муҳитининг бионик дизайнини лойиҳалашда экологик таълим мавзудаги илмий–амалий анжуман материаллари.–Т.: ТАҚИ, 2015.

**45. Вергунов А.П., Денисов М.Ф., Ожегов С.С.** Ландшафтное проектирование.–М., 1991.

**46. Воронова О.** Ландшафтный дизайн: шаг за шагом.–М., 2011.

**47. Гарнizonенъко Т.С.** Справочник современного ландшафтного дизайнера.–Ростов–на–Дону, 2005.

**48. Горохов В.А.** Городское зеленое строительство.–М., 1991.

**49. Горбачов В.Н.** Архитектурно–художественные компоненты озеленения городов.–М., 1998.

**50. Гурулев О.К.** Традиции и современность в архитектуре села.–М.:Стройиздат, 1982.

**51. Дормидонтова В.В.** История садово–парковых стилей.–М., 2004.

**52. Забелина Е.В.** Поиск новых форм в ландшафтной архитектуре.–М., 2005.

**53. Isamuxammedova D.U., Adilova L.A.** Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi.Darslik. II–qism.–T., 2010.

**54. Камалова Д.З.**Основы формирования и принципы комплексного решения световой архитектуры архитектурных памятников и ансамблей

исторических городов Узбекистана. Автореферат дисс. на соис. учен. степени канд архитектуры.–Т., 2012.

**55. Камилова Л.А.** Принципы формирования ландшафтов городов, расположенных в сухом жарком климате Узбекистана. Канд. дисс.–Ленинград, 1984.

**56. Киреева М.Ф., Грязева В.П.** Цветоводство в сельской местности.–М., 1999.

**57. Кларк Э.** Искусство исламского сада./Пер. с англ.–М.: “Ниола–Пресс”, 2008.–208 с.

**58. Крижановская Н.Я.** Основы ландшафтного дизайна.–Ростов–на–Дону: Феникс, 2008.

**59. Кузьмичев И., Печеницын В.** Озеленение городов и сел Узбекистана.–Т., 1989.**Mamatmusaev T.Sh.** Ulug’bek davrida bog’sozlik san’ati. // O’zbekiston arxitekturasi va qurilishi №6, 2009.

**60. Машинский В.Л.** История ландшафтной архитектуры. Возникновение и развитие декоративного садоводства на Ближнем Востоке и Индии.–М., 2006.

**61. Nozilov D.A.** Chorbog’.–Т., 1998.

**62. Ожегов С.С., Уралов А.С., Рахимов К.Ж.** Ландшафт архитектураси ва дизайн.–Самарқанд, 2003.

**63.** Озеленение населённых мест. Справочник.–М., 1987.

**64. Пугаченкова Г.А.** Среднеазиатские сады и парки./Из художественной сокровищницы Среднего Востока.–Т., 1987.–С.185-214.

**65. Raximov K.D., Uralov A.S.** Sharq mamlakatlarining bog’–park san’ati.–Т., 2012.

**66. Raximov K.D., Uralov A.S.** Landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash.–Toshkent: “Sano–standart” nariyoti, 2015.

**67. Raximov K.D.** Bog’–parklarni loyihalashning zamonaviy yo’nalishlari.–Т., 2016.

- 68. Русанов Ф.Н.** Озеленение в архитектуре городов Узбекистана.–Т., 1979.
- 69. Саттарова К.Д.** Декоративная дендрология и цветоводство.–Т.: ТАҚИ, 2010.
- 70. Славкина Т.И., Подольская О.Ч.** Декоративное садоводство. Озеленение населенных мест.–Т., 1987.
- 71. Сычева А.В.** Основы ландшафтного дизайна.–Минск: Высшая школа, 2004.
- 72. Тахтаходжаева М.С.** Рекомендация по проектированию зеленых насаждений общего пользования в городах Узбекистана.–Т., 1973.
- 73. Теодоронский В.С., Сабо Е.Д., Фролова В.А.** Строительство и эксплуатация объектов ландшафтной архитектуры.–М., 2008.
- 74. Tursunov X.K., Umarov M.U., Achilov Sh.D.** O'zbekiston qishloq aholi punktlarini me'moriy-rejali tashkillashtrish.–Toshkent, 2012.
- 75. Умаров М.У.** Градостроительные аспекты развития сельских населенных пунктов в системе расселения Узбекистана. Автореферат диссертации на соискании учёной степени кандидата архитектуры.–Ташкент, 2010.
- 76. Uralov A.S., Adilova L.A.** Landshaft arxitekturasi.–Т., 2014.
- 77. Uralov A., Nozilov D., Farmonov A., Matyazov S.** Qishloq uylarini rejalashtirish va qurish asoslari.–Т., 1994.
- 78. Qayumov A.** Landshaft qurilishi.–Т., 2005.
- 79. Qayumov A.** Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish.–Т., 2013.
- 80. Юсупова М.А.** Садово-парковые ансамбли Бухарского оазиса IX-начала XX вв.//O'zbekistonda an'anaviy bog' va bog'dorchilik san'ati mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari.–Т., 2016.-92-105 b.

## **Xorijiy adabiyotlar:**

- 81.** Abraham Russell, Rural Modern. Rural Residential Architecture, USA,2013, p.224.
- 82.** Emma Clark. The Art of the Islamic Garden.- Crowood Press Ltd, U.K., 2004, p.208.
- 83.** G. Crandell. Tree gardens: Architecture and the Forest. Abrams, USA, 2013, p.176.
- 84.** G. Lamming Landscape design UK. Pace Publishing limited, London, UK, ,2007, p.272.
- 85.** Kassler, E.B. Modern Gardens and the Landscape Museum of Modern Art New York 1964 [One of the first, clearest and best accounts of the Abstract Style of International Modernist garden design] USA, p.96.
- 86.** Marsh, William, Landscape planning environmental applications [ McHars *Design with Nature* provides a basic framework for regional design and Marsh's book begins to fill in the details.] John Wiley and Sons. Ltd, LTD, 2005, p.472.
- 87.** Michael A.Dirr. Dirr's Encyclopedia of trees and shrubs.Timber Press, U. K., p.952.
- 88.** Wines, James. Green architecture. Berlin:Taschen, 2008, p.128.

## **Internet saytlari**

- 145.** <http://www.Landstyle.ru>
- 146.** <http://www.land-design.ru>
- 147.** <http://www.flora-design.ru>
- 148.** <http://science-bsea.bgita.ru/2010>
- 149.** <http://mebfine.ru>
- 150.** <http://www.Landscape design.ru>
- 151.** [sad@sad.ru](mailto:sad@sad.ru)

**152.** [http:// www.sadtorg.ru](http://www.sadtorg.ru)

**153.** [www\\_uznature\\_uz.htm](http://www_uznature_uz.htm)

**154.** [http:// www.housebeautiful.com.](http://www.housebeautiful.com)

**155.** [http:// www.smart-digital.com.](http://www.smart-digital.com)

**156.** [www.Gardener.ru](http://www.Gardener.ru)

**157.** [http://www.architecto.ru\txt\2ravz16.shtml.](http://www.architecto.ru\txt\2ravz16.shtml)

**158.** [http://www.glazychev.ru\books\mir architecture\glava8glava08-01.htm.](http://www.glazychev.ru\books\mir architecture\glava8glava08-01.htm)

**150.** <http://www.a\clovarik.shtml> - Архитектурная энциклопедия

**160.** <https://ru.wikipedia.org> Материал из Википедии — свободной энциклопедии

**161.** [http://www.thevillage.ru.](http://www.thevillage.ru)

**162.** <https://www.dexigner.com/directory/cat/Landscape-Design/Companies>

## **ILOVALAR**

## O'zbekiston hududi tabiiy sharoitlarining tavsifi

Shimoliy zona	Zonalar	Tumanlar	Shahar va qishloqlar	Dengiz sathidan balandligi, m	Tabiiy iqlim sharoitlari								Tuprog'i va topografik sharoitlari		
					Havo harorati, S°		Yoqimsiz haroratlari kunlar soni	Mavsum ning davomiyligi		Yog'ingarchilik, mm		Yer osti suvlari ning sahni, m			
Maks.	Minim.	Mo'tadil havoli kunlar	Jazirama issiq kunlar	Vegetasiya mavsumida	Yil davomida o'rta hisobda	Yoqimsiz shamolli kunlar soni	Tuproq tipi	Sho'rxokligi							
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	
Ustyurt va Qizilqum tumanlari	Ustyurt–Qizilqum	46–49	38–37	500–1000	160–180	66–103	48–36	122–108	24	Sahro tuprog'i	Sho'rxok	0–10			
	Mo'ynoq	42	28	500–750	180	27			34	Taqir t.	Sho'rxok	0–3			
	Qo'ng'irot	44	30	500–750	180	50			34	Qum.cho'l t.	Sho'rxok	0–3			
Orol atrofi tumanlari	Chimboy	63	44	500–750	180	72	38	82	34	Qum.cho'l t.	Sho'rxok	0–6			
	Nukus	103	46	500–750	180	72			34	Qum.cho'l t.	Sho'rxok				
	Xojeqli			500–750	180	72			34	Qum.cho'l t.	Sho'rxok				
Amudaryo tumani	Taxiatosh			500–750	180	72			34	Qum.cho'l t.	Sho'rxok				

Sharqiy zona	Beruniy													
	Urgench	118	46	32	250–500	195	75	23	93	10	Qum.cho'l.t.	Sho'rxok		
	To'rtkul tumani	To'rtkul	104	47	31	250–500	195	87	30	97	10	Qum.cho'l.t.	Sho'rxok	
		Xiva	97	46	31	250–500	195	87	22	79	10	Qum.cho'l.t.	Sho'rxok	
	Tog'oldi tumanlari	Gazalkent			100–250	180				3	Sur tusli q.	Sho'rxok emas		
		Toshkent	480	44	30	100–250	206	78	134	367	3	Sur tusli q.	Sho'rxok emas	
		Yangiyo'l	338	43	32	100–250	195		130	268	3	Sur tusli q.	Sho'rxok emas	
		Qo'qon	405	44	27	100–250	218	84	31	98	50	Cho'l sur t. q.	Sho'rxok	0–3
		Namangan	450	44	29	100–250		87	77	188	3	Cho'l sur t. q.	Sho'rxok emas	1–5
		Marg'ilon			100–250		68			3	Sur tusli q.	Sho'rxok emas		
Mirzacho'l tumanlari	Farg'ona	578	43	28	100–250	227	68	72	174	3	Sur tusli q.	Sho'rxok emas	0–10	
	Andijon	495	44	29	100–250	229	85	108	226	3	Sur tusli q.	Sho'rxok emas	1–30	
	Samarqand	780	45	27	100–250	210	61	128	328	3	Sur tusli q.	Sho'rxok emas	2–20	
	Guliston	276	45	34	100–250	195		115	295	10	Sur tusli q.	Sho'rxok	0–2	
	Bekobod		46	34	100–250	195	77			30	Sur tusli q.	Sho'rxok	4–7	

<b>Janubiy zona</b>	Adirli tumanlar	Yangiyer Jizzax	356 392	47 47	32 32	100–250 100–250	195 195	100 93	110	312 425	64 12	Sur tusli q. Sur tusli q.	Sho'rxok Sho'rxok	
		Chirchiq	40	29	100–250	180	69			3	To'q tusli q.	Sho'rxok emas	0–60	
		Olmaliq	43	34	100–250	180		131	420	3	To'q tusli q.	Sho'rxok emas	8	
		Angren	42	32	100–250	180		131	420	3	To'q tusli q.	Sho'rxok emas		
		Yangiobod			100–250	180		131	420	3	To'q tusli q.	Sho'rxok emas		
		Quvasoy			100–250					3	To'q tusli q.	Sho'rxok emas		
	Buxoro–Qarshi tumanlari	Navoiy	347	47	24	100	210	94	59	177	10	Qum.cho'l t.	Sho'rxok	
		Buxoro	222	46	25	100	210	94	59	125	10	Qum.cho'l t.	Sho'rxok	1–10
		Kagan	48	26	100	210	94	59	125	10	Qum.cho'l t.	Sho'rxok		
		Qarshi	378	49	28	100	210	114	117	225	22	Cho'l. sur t. q.	Sho'rxok	1–5
	Zarafshon vohasi tumanlari	Shaxrisabz	650	47	26	100	210	94	288	545	22	Sur tusli q.	Sho'rxok emas	
		Kattaqo'rg'on	485	49	35	100	210	89	142	282	52	Cho'l. sur t. q.	Sho'rxok emas	1–5
	Surxondaryo Adirli tumanlar	Termez	302	50	25	100	246	132	78	133	34	Sahro tupr.	Sho'rxok emas	
		Denau	523	47	25	100	239	105	131	360	2	Sur tusli q.	Sho'rxok emas	1–5
		Adirlar				100						To'q tusli q.	Sho'rxok emas	

**Ассортимент деревьев и кустарников для зеленых насаждений населенных пунктов по зонам и районам Узбекистана**

Название растений	величина	Декоратив.качества				Отношение к факторам среды										Применение	Рекомендуется для районов по зонам									
		крона		Окр.лист		Почвенным				Механ.соп.	плодорие	влага	засоление	свету	морозу	жаре	долговечность	Характер роста	Восточная		Южная		Северная			
		форма	плотность	летом	осенью	8	9	10	11										II-А	II-Б	II-В	III-А	III-Б	III-Г	I-А	I-Б
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27
<i>Хвойные деревья и кустарники</i>																										
Биота восточная	Д <sub>1</sub>	ШП	С	С	С	разл.	НТ	Т	С	СВ	М	У	Д	М	О-ГР	+	+	+	+	+	+	+	-	-	-	
Ель колючая	Д <sub>1</sub>	П	С	3	3	глин.	Т	Т	Н	СВ	М	У	Д	М	О-ГР	+	-	+	+	+	-	+	-	-	-	
Кипарис аризонский	Д <sub>1</sub>	К	П	С	С	сугл.	Т	Т	Н	СВ	Н	У	Д	С	О-ГР	+	-	-	-	-	+	-	-	-	-	
К.болотный обыкновенный	Д <sub>1</sub>	ШР	С	ТЗ	ТЗ	аллюв.	Т	Т	Н	СВ	М	У	Д	С	О-ГР	+	-	+	+	-	+	-	-	-	-	
Можжевельник виргинский	Д <sub>1</sub>	Р	П	ТЗ	ТЗ	разл.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	Д	С	О-ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	-	-	
М.зарафшанская	Д <sub>2</sub>	ШР	С	С	С	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	Д	М	О-ГР	+	-	+	-	+	+	+	-	-	-	
М.казацкий	Д <sub>4</sub> К	Р	С	3	С	сугл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	Д	М	О-ГР	+	-	+	-	+	+	+	-	-	-	
М.туркестанский	Д <sub>2</sub> К	П	П	ТЗ	ТЗ	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	Д	М	О-ГР	+	-	+	-	+	+	+	-	-	-	
Сосна крымская	Д <sub>1</sub>	Р	С	ТЗ	ТЗ	разл.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	Д	Б	Г-СП	+	+	+	+	+	+	+	+	-	-	
С.эльдарская	Д <sub>1</sub>	Р	С	С	С	сугл.	НТ	НТ	С	СВ	С	У	Д	Б	ГР-СП	-	-	-	-	-	+	-	-	-	-	
С.черная австрийская	Д <sub>1</sub>	Р	С	ТЗ	ТЗ	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	Д	С	Г-СП	+	+	+	+	+	+	+	-	-	-	
Тuya западная	Д <sub>1</sub> К	ШР	С	ТЗ	ТЗ	сугл.	НТ	Т	Н	ТВ	М	С	Д	М	ГР-ПД	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	
<i>Листственные деревья</i>																										
Абрикос обыкновенный	Д <sub>3</sub>	ШР	С	3	ЖК	разл.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	Д	Б	Г-ГР-СП	+	+	+	+	+	+	+	+	-	+	
Айлант высочайший	Д <sub>1</sub>	ШР	С	3	ЖЗ	разл.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	Д	Б	Г-СП	+	+	+	+	+	+	+	-	-	-	
Альбиция ленкоранская	Д <sub>3</sub>	ШР	Р	3	ЖЗ	сугл.	Т	Т	Н	СВ	С	У	М	С	О-ГР	+	-	-	-	-	+	-	-	-	-	
Багряник канадский	Д <sub>3</sub>	ШР	С	ТЗ	ЖБ	сугл.	Т	НТ	Н	ТВ	М	У	М	М	О-ГР-ПД	+	-	+	-	+	+	+	-	-	-	
Береза бородовчатая	Д <sub>1</sub>	ШР	Р	Св3	ЖК	сугл.	Т	Т	Н	СВ	М	С	Д	С	ГР-О-СП	+	-	+	-	+	-	+	-	-	-	
Б.пушистая	Д <sub>1</sub>	ШР	Р	Св3	ЖБ	сугл.	НТ	Т	Н	СВ	М	С	Д	С	ГР-СП	+	-	+	-	+	+	+	-	-	-	
Боярышник гиссарский	Д <sub>4</sub>	ШР	С	3	ЖБ	глин.	НТ	НТ	Н	СТ	М	У	М	М	ГР-СП	+	-	+	-	+	+	+	-	-	-	
Б.крупноплодный	Д <sub>4</sub>	Ш	П	ТЗ	ЖБ	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	С	С	ГР-СП	+	+	+	+	+	+	+	-	-	-	
Б.Максимовича	Д <sub>4</sub>	ШР	С	3	Ж	сугл.	НТ	НТ	С	СТ	М	У	М	М	ГР-СП	+	-	+	+	+	+	+	+	-	-	
Б.однокосточковый	Д <sub>4</sub>	ШР	П	ТЗ	ЖК	глин.	НТ	НТ	С	СТ	М	У	М	М	ГР-СП	+	-	+	+	+	+	+	+	-	-	
Б.летучьшапора	Д <sub>4</sub>	Ш	П	ТЗ	ЖБ	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	С	С	ГР-СП	+	+	+	+	+	+	+	-	-	-	
Б.туркестанский	Д <sub>4</sub>	ШР	П	3	ЖБ	сугл.	НТ	НТ	Н	СТ	М	У	М	М	ГР-СП	+	-	+	-	+	+	+	-	-	-	
Бундук канадский	Д <sub>1</sub>	ШР	Р	Св3	Ж	глин.	Т	НТ	Н	СВ	М	У	М	С	Г-СП-ГР	+	-	+	+	+	+	+	-	-	-	
Вяз листоватый, карагач	Д <sub>1</sub>	ШР	П	ТЗ	Ж	сугл.	НТ	Т	С	ТВ	М	У	С	Б	Г-СП	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
Вяз густой, мелколистный	Д <sub>1</sub>	Ш	П	ТЗ	ЖБ	глин.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	С	Г-О-ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
В.обыкновенный	Д <sub>1</sub>	Ш	П	ТЗ	ЖБ	сугл.	НТ	Т	С	СВ	М	У	С	С	Г-О-ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
В.перистоветвистый	Д <sub>2</sub>	ШР	С	ТЗ	ЖК	глин.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	С	Г-О-ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	



## *Кустарники лиственые*

Магония падуболистная	К <sub>С</sub>	Р	С	Тз	ЗБ	глин.	Т	Т	Н	ТВ	С	У	С	М	О-ГР	+	-	-	+	-	+	+	-	-	-
Миндаль бухарский	К <sub>С</sub>	Р	С	З	ЖБ	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	М	С	ГР	+	-	+	+	+	+	+	-	-	-
Миндаль колючий	К <sub>С</sub>	Р	Р	Св3	Ж	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	С	С	ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
М. Петунникова	К <sub>С</sub>	ШР	С	Св3	Ж	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	М	С	ГР	+	-	+	+	+	+	+	-	-	-
Мушмула кавказская	К <sub>С</sub>	ШР	С	З	Ж	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	С	У	М	С	ГР	-	-	-	-	+	+	+	-	-	-
Облепиха куршиноподобная	К <sub>В</sub>	ШР	С	С	ЖК	песч.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	С	О-ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Пузырник восточный	К <sub>С</sub>	Р	Р	З	ЖЗ	песч.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	С	ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Ракитник Золотой дождь	К <sub>В</sub>	ШР	Р	Тз	Ж	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	С	У	С	Б	ГР	+	-	+	-	+	+	+	-	-	-
Роза краснолистная	К <sub>С</sub>	ШР	П	Кз	Кз	разл.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	Б	О-ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Р. Коричная	К <sub>С</sub>	Р	С	З	ЖБ	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	С	Б	О-ГР	+	-	+	+	+	+	+	-	-	-
Р. Собачья	К <sub>С</sub>	ШР	П	Тз	КБ	разл.	НТ	Т	С	ТВ	М	У	С	Б	ПД-ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Саксаул белый	К <sub>В</sub>	Р	Р	Св3	ЗБ	песч.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	Б	ГР	-	-	-	+	-	-	-	+	+	+
С. Черный	К <sub>В</sub>	Р	Р	Св3	ЗБ	разл.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	Б	ГР	-	-	-	+	-	-	-	+	+	+
Самшит вечнозеленый	К <sub>С</sub>	Р	П	Тз	Тз	сугл.	НТ	Т	Н	ТВ	С	У	Д	М	О-ГР	+	+	+	+	+	+	+	-	-	-
Сирень венгерская	К <sub>С</sub>	ШР	С	Тз	ЖЗ	сугл.	Т	Т	Н	ТВ	М	У	С	С	ПД-ГР	+	-	+	-	+	-	+	-	-	-
С.обыкновенная	К <sub>В</sub>	ШР	П	Тз	ЖЗ	глин.	Т	Т	Н	СТ	М	У	С	Б	О-ГР	+	-	+	+	+	+	+	-	-	-
С.персидская	К <sub>В</sub>	ШР	С	З	ЖБ	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	С	Б	О-ГР	+	-	+	-	+	-	+	-	-	-
Скумпия	К <sub>ВД</sub>	ШР	С	З	ЖБ	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	Д	Б	О-ГР	+	-	+	-	+	-	+	-	-	-
Смородина золотистая	К <sub>С</sub>	Р	С	З	Ж	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	Д	Б	О-ГР	+	+	+	-	+	-	+	-	-	-
Снежноягодник белый	К <sub>Н</sub>	Р	С	З	ЖЗ	разл.	Т	Т	С	СТ	М	У	М	Б	ГР	+	+	+	-	+	-	+	+	+	+
Спирея Бумальда	К <sub>Н</sub>	ШР	П	Св3	ЖК	разл.	НТ	НТ	Н	СТ	М	У	М	Б	ПД-ГР	+	-	+	+	+	+	+	-	-	-
С. Вангутта	К <sub>С</sub>	ШР	С	Тз	ЖК	разл.	НТ	НТ	Н	СТ	М	У	М	Б	ПД-ГР	+	-	+	+	+	+	+	-	-	-
С. иволистная	К <sub>С</sub>	Р	С	Св3	ЖК	разл.	НТ	НТ	С	СТ	М	У	М	Б	ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
С.ниппонская	К <sub>С</sub>	ШР	С	Тз	ЖБ	разл.	НТ	НТ	Н	СТ	М	У	М	Б	ГР	+	-	+	+	+	+	+	-	-	-
С.сливолистная	К <sub>С</sub>	Р	С	Тз	ЖК	разл.	НТ	НТ	Н	СТ	М	У	М	Б	ГР	+	-	+	+	+	+	+	-	-	-
С.средняя	К <sub>С</sub>	ШР	С	Св3	ЖБ	разл.	НТ	НТ	Н	СТ	М	У	М	Б	ГР	+	-	+	+	+	+	+	-	-	-
С.японская	К <sub>Н</sub>	ШР	П	Св3	ЖК	разл.	НТ	НТ	Н	СТ	М	У	С	Б	ГР	+	-	+	+	+	+	+	-	-	-
Сумах ароматный	К <sub>С</sub>	Р	Р	З	КБ	разл.	НТ	НТ	Н	ТВ	М	У	С	С	Д-ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
С.дубильный	К <sub>С</sub>	ШР	Р	Тз	ЖК	разл.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	С	ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
С.иллинойский	К <sub>С</sub>	ШР	Р	Тз	ЖБ	разл.	НТ	НТ	Н	ТВ	М	У	С	С	ПД-ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
С.уксусный	К <sub>ВД</sub>	Р	Р	Тз	ЖК	разл.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	С	ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Тамарикс ветвистый	К <sub>В</sub>	Р	Р	Св3	ЖЗ	разл.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	С	О-ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Т.изящный	К <sub>С</sub>	Р	Р	Св3	З	разл.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	С	ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Т.четырехтычиночный	К <sub>В</sub>	ШР	Р	Св3	ЖЗ	разл.	НТ	НТ	С	СВ	М	У	С	Б	О-ГР	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Форзиция зеленая	К <sub>С</sub>	ШР	Р	З	ЖЗ	разл.	НТ	НТ	Н	СВ	М	У	С	Б	О-ГР	+	-	+	-	+	+	+	-	-	-

## **Список сокращений к приложению 2**

### **Г р а ф а 2 – величина:**

$D_1$  – дерево первой величины, высота более 20 м.

$D_2$  – дерево второй величины, высота 15- 20 м

$D_3$  – дерево третьей величины, высота 10-15 м.

$D_4$  – дерево четвертой величины, высота до 10 м

$D_K$  – дерево может иметь форму кустарника.

$K_B$  – кустарник высокий, высота более 3 м.

$K_C$  – кустарник средний, высота 2-3 м.

$K_H$  – кустарник низкий, высота до 2 м

$K_D$  – кустарник может иметь форму дерева.

### **Г р а ф а 3 – форма кроны**

$K$  – колоннавидная                            $Ш$  - шаровидная

$P$  – пирамиальная                            $ШП$  – широко - пирамиальная

$R$  – раскидистая                            $ШР$  – широко - рискидистая

### **Г р а ф а 4 – плотность кроны:**

$P$  - плотная

$R$  - редкая

$C$  - сквозистая

### **Г р а ф а 6 - 7 – окраска листьев:**

$B$  – бурая                                    $Cv$ - светлая

$Ж$  – желтая                                    $СЕР$  – серебристая

$Z$  – зеленая                                    $T$  – темная

$K$  – красная                                    $\Phi$  – фиолетовая

$C$  – сизая

### **Г р а ф а 8 – механический состав почви:**

разл.- различный                                   сугл. – суглинистые

глин. - глинистые

песч. – песчаные

аллюв. - аллювиальные

**Г р а ф а 9 - 10– плодорие почв, влага:**

НТ – нетребовательные

Т - требовательные

**Г р а ф а 11 – отношение к засолению почвы:**

С – переносит среднее засоление

Н – не переносит засоление

**Г р а ф а 12 – отношение к свету**

ТВ – теневыносливые

СВ – светолюбивые

СТ – среднесветолюбивые

**Г р а ф а 13 – отношение к морозам:**

Н - неморозоустойчивое

М - морозоустойчивое

С – среднеморозоустойчивое

**Г р а ф а 14 – отношение к жаре:**

С – среднеустойчивое У – устойчивое

**Г р а ф а 15 – долговечность:**

Д – долговечное (более 100 лет)

М – малодолговечное (до 50 лет)

С – среднедолговечное (50-100 лет)

**Г р а ф а 17 – применение:**

Г – главная порода

ГР – группы ПД - подлесок

О – одиночно СП – сопутств.порода

**Г р а ф а 16 – быстрота роста:**

Б – быстрорастущее ( прирост в высоту более 75 см в год)

М – медленнорастущее ( прирост в высоту до 25 см в год)

С – среднерастущее ( прирост в высоту 25- 75 см в год)

### 3–ilova

**Daraxt va butalarni ekishda ular va qatorlar orasidagi masofalar,  
metrda.**

Nº	Ekiladigan o’simliklar turi	Qatorlar	Qatorlar orasi
1	Birinchi kattalikdagi shox–shabbasi yonlariga taraqaylagan daraxtlar	8–10	10–12
2	Birinchi kattalikdagi ko’rinishi piramida va konussimon daraxtlar	3–5	5–8
3	Ikkinci kattalikdagi shox–shab-basi yonlariga taraqaylagan da-raxtlar	5–8	6–8
4	Ikkinci kattalikdagi ko’rinishi piramida va konussimon daraxtlar Uchinchi kattalikdagi daraxtlar Baland butalar	2–3	4–6
5	O’rta bo’yli butalar	4–6	4–6
6	Pakana butalar	2–3	2–3
7		1,0–2	1,0–2
8		0,5–1,0	0,5–1,0

### 4–ilova

**O’QUV QO’LLANMADA NOMLARI KELTIRILGAN DEKORATIV  
DARAXT, BUTA, GUL VA MAYSALARNING O’ZBEKCHA, RUSCHA VA  
LOTINCHA TURLARI(A.E. Jonuzoqov bo'yicha)  
IGNABARGLI DARAXTLAR**

Nº	Dekorativ o’simlikning o’zbekcha nomi	Dekorativ o’simlikning ruscha nomi	Dekorativ o’simlikning lotincha nomi
1	<b>Archa:</b> Turkiston a-si Zarafshon a-si Qozoq a-si Virjin a-si Oddiy archa	<b>Можжевельник:</b> М.туркестанский М. Зарафшанский М. Казацкий М. Виргинский М. обыкновенный	<b>Juniperus:</b> J. turkestanica J. serawschanica J. Sabina J. virginiana J. communis
2	<b>Zarnob:</b> Rezavor z-b	<b>Тис:</b> Т. ягодный	<b>Taxus:</b> T. baccata
3	<b>Yolg’ontsuga:</b>	<b>Лжетсуга, псевдотсуга:</b> Л.Мензиса или	<b>Pseudotsuga</b>

	Menzis yo-si	тиссолистная	P.menziesii
4	<b>Kedr:</b> Livan k-ri	<b>Кедр:</b> К. ливанская	<b>Cedrus:</b> C. libani
5	<b>Metasekvoyya:</b> Metasekvoyya	<b>Метасеквойя:</b> М.глиптостробусовая	<b>Metesequoia</b> M.glyptostroboides
6	<b>Mikrobiota:</b> Chorjuftli m-ta	<b>Микробиота:</b> Микробиота перекрестнопарная	<b>Microbiota:</b> M.decussata
7	<b>Oqqarag'ay:</b> Birrangli o-y	<b>Пихта:</b> П. одноцветная	<b>Abies:</b> A. concolor
8	<b>Pterokariya :</b>  Qanot mevali p-ya	<b>Птерокария или лапина:</b> П. крылоплодная	<b>Pterocarya</b>  P.pterocarpa
9	<b>Sarv:</b> Orizon s-vi,  Doim yashil s-v	<b>Кипарис:</b> К. оризонский или голый К. вечнозеленый	<b>Cupressus:</b> C. arisonica C.semperfiriens
10	<b>Saurarcha, biota:</b> Sharq s-si	<b>Биота:</b> Б. восточная	<b>Biota:</b> B. orientalis
11	<b>Taksodiy:</b> Botqoq sarvi	<b>Таксодий:</b> Болотный кипарис	<b>Taxodium:</b> T.distichum
12	<b>Tilog'och:</b> Sibir tilog'ochi	<b>Лиственница:</b> Л. сибирская	<b>Larix:</b> L. sibirica
13	<b>Tuyya:</b> G'arb t-si G'arb t-si, ustunsimon f-si	<b>Тuya:</b> Т. западная Т. западная, ф. колонновидная	<b>Thuja:</b> E. occidentalis E. occidentalis, f. fastigiata
14	<b>Qarag'ay:</b> Oddiy q-y Qrim q-yi  Eldor q-yi Veymutov q-yi Madaniy q-y	<b>Сосна:</b> С. обыкновенная С. крымская или Палласа С. Элдарская С.Веймутова С.калабрийская, домашняя, культурная	<b>Pinus:</b> P. sylvestris P. pallasiana  P. eldarica P. strobus P. pinea
15	<b>Qoraqarag'ay:</b> Oddiy q-y  Tikonli q-y Sibir q-yi Tikonli q-y, kumushrang f- si	<b>Ель:</b> Е. обыкновенная или европейская Е. колючая Е. сибирская Е. колючая, ф.серебристая или голубая	<b>Picea:</b> P. abies  P. pungens P. obovata P. pungens, f.glaucia

## YAPALOQBARGLI DARAXTLAR

### 1.Manzarali daraxtlar

№	Dekorativ o'simlikning o'zbekcha nomi	Dekorativ o'simlikning ruscha nomi	Dekorativ o'simlikning lotincha nomi
1	<b>Aylant, xitoy shumtoli, sassiq daraxt:</b>  Ulkan a. yoki xitoy	<b>Айлант:</b>	<b>Ailanthus:</b>

	shumtoli,	А. высочайший или китайский ясень	Ailanthus altissima
2	<b>Akas:</b> Oq a., yoki robiniya yolg'onakasi Daraxtsimon qorag'an, yoki sariq a.	<b>Акация:</b> А. белая, или робиния лжеакация Карагана древовидная, или желтая акация	<b>Acacia:</b> Robinia pseudoacacia Caragana arborescens
3	<b>Albistiya:</b> Lenkoran akasi, shoyi akas	<b>Альбиция:</b> Альбиция ленкоранская, акация шелковистая	<b>Albizia:</b> Albizia julibrissin
4	<b>Amur baxmaldaraxti</b>	<b>Феллодендрон, или бархат амурский</b>	<b>Phellodendron amurense</b>
5	<b>Arg'uvon:</b> Kanada a-ni	<b>Багряник:</b> Б. канадский	<b>Cercis</b> Cercis canadensis
6	<b>Bunduq:</b> Ikki uyali yoki Kanada bundug'i	<b>Бундук:</b> Б. двудомный, или канадский	<b>Gymnocladus:</b> G. dioicus
7	<b>Grab:</b> Oddiy g.	<b>Граб:</b> Г. обыкновенный	<b>Carpinus:</b> C. betulus
8	<b>Dafna:</b> Ulug'vor d.	<b>Лавр, дафна:</b> Л.благородный	<b>Laurus:</b> L. nobilis
9	<b>Jo'ka:</b> Kattabargli j. Maydabargli j.	<b>Липа:</b> Л. крупнолистная Л. мелколистная или сердцевидная	<b>Tilia:</b> E. platyphyllos E. cordata
10	<b>Zarang:</b> Dala z-gi Tatar z-gi, qora z.  Oq z., yavor  Qirrabargli, yoki chinorsimon z. Kumushrang yoki shakarli z. Ginnal z-gi Shumtolbargli, yoki amerika z-gi	<b>Клен:</b> К. полевой, паклен К. татарский, неклен, черноклен  К.ложноплатановый, явор, белый клен  К. остролистный, или платановидный К. серебристый или сахаристый К. Гиннала К. ясенолистный, или американский	<b>Acer:</b> A. campestre A. tataricum  A. pseudoplatanus  A. platanoides  A. saccarinum  A. ginnala A. negundo
11	<b>Kameliya:</b> Yapon k-si	<b>Камелия:</b> К. японская	<b>Camellia:</b> C.japonica
12	<b>Katalpa:</b> Go'zal k.	<b>Катальпа:</b> К. прекрасная	Catalpa: C. speciosa
13	<b>Lola daraxti</b>	<b>Лириодендрон, или тюльпанное дерево</b>	<b>Liriodendron</b> L.tulipifera
14	<b>Magnoliya:</b> Yirik gulli m.	<b>Магнолия:</b> М. крупноцветковая	<b>Magnolia:</b> M. grandiflora
15	<b>Maklyura:</b> Apelsinrang m.	<b>Маклюра:</b> М. оранжевая	<b>Maclura:</b> M.aurantica
16	<b>Marjondaraxt :</b> Qora m.	<b>Бузина:</b> Б. черная	<b>Sambucus:</b> S. nigra
17	<b>Sovundaraxti</b>	<b>Мыльное дерево</b>	<b>Sapindus ёки Koelreuteria</b>

		<b>иликолъррейтерия метельчатая</b>	<b>Paniculata</b>
18	<b>Soxtakashtan:</b> Oddiy s.k.	Каштан конский: К.к. обыкновенный	Aesculus: <i>A.hippokastanum</i>
19	<b>Terak:</b> Oq yoki kumushrang t.  Mirzaterak Qora t., mirzaterak  Kanada t. Bolle t-gi Balzam t-gi Tog' t-gi, ansol Turanga t-gi	<b>Тополь:</b> Т. белый, или серебристый Т. пирамидальный Т. черный, или осокорь Т. канадский Т. Болле Т. балзамический Т. горный, осина Т. туранга	<b>Populus:</b> <i>P. alba</i>  <i>P. pyramidalis</i> <i>P. nigra</i>  <i>P.canadensis</i> <i>P.bolleana</i> <i>P. balsamifera</i> <i>P. tremula</i> <i>P. turanga</i>
20	<b>Tikondaraxt :</b> Oddiy yoki uchtikonli t.	<b>Гледичия:</b> Г. обыкновенная, или трехколючковая	<b>Gleditsia:</b> <i>Gleditsia triacanthos</i>
21	<b>Tol :</b> Oqtol Majnuntol, yoki bobil t-i Oq majnuntol	<b>Ива:</b> И. белая, ветла И. вавилонская  И. белая, ф.плакучая	<b>Salix:</b> <i>S. alba</i> <i>S. babylonica</i>  <i>S.alba'Pendula'</i>
22	<b>Tuxumak:</b> Yapon t-gi	<b>Софора:</b> С. японская	<b>Sophora:</b> <i>S. japonica</i>
23	<b>Chinor:</b> Sharq ch-i	<b>Платан:</b> П. восточный, или чинар	<b>Platanus:</b> <i>P.orientalis</i>
24	<b>Shumtol:</b> Dudamabargli yoki yashil sh. Amerika sh-li Oddiy sh. Gulli yoki oq sh.  Pensilvaniya sh-li	<b>Ясень:</b> Я. ланцетнолистный, или зеленый Я. американский Я. обыкновенный Я. цветочный, манновый или б-й я. Я. пенсильванский, или пушистый	<b>Fraxinus:</b> <i>F. lanceolata</i>  <i>F. americana</i> <i>F.exelsior</i> <i>F. ornu</i>  <i>F. pensilvanica</i>
25	<b>Evkalipt:</b> Xivichsimon e.	<b>Эвкалипт:</b> Э.прутовидный	<b>Eucalyptus:</b> <i>E.viminalis</i>
26	<b>Eman:</b> Bandli yoki oddiy e.  Qo'ng'ir e., piramidasimon f.	<b>Дуб:</b> Д. черешчатый, или обыкновенный Д. черешчатый, ф. пирамидальный	<b>Quercus:</b> <i>Q. robur</i>  <i>Q. robur, f.</i> “Fastigiata”
27	<b>Qayin:</b> Mo'ynali q. Egik yoki majnunq.	<b>Берёза:</b> Б. пушистая Б. повислая или плакучая, бородавчатая	<b>Betula:</b> <i>B. pubescens</i> <i>B. verricosa ёки</i> <i>B. pendula</i>
28	<b>Qayrag'och:</b> Silliq, yoki oddiy q-ch. Sada q-ch Bujun q-ch	<b>Вяз, карагач:</b> В. гладкий, или обыкновенный В. густой	<b>Ulmus:</b> <i>U. laevis</i>  <i>U.densa</i>

		В.узбекистанский	U.uzbekistanica
29	<b>Qandag'och:</b> Qora q-ch	<b>Ольха:</b> О. черная, или клейкая	<b>Alnus:</b> <i>A. glutinosa</i>
30	<b>Qoraqayin:</b> Sharq q-ni	<b>Бук:</b> Б.восточный	<b>Fagus:</b> <i>F.orientalis</i>

## 2.Mevali daraxtlar

№	Dekorativ o'simlikning o'zbekcha nomi	Dekorativ o'simlikning ruscha nomi	Dekorativ o'simlikning lotincha nomi
1	<b>Gilos:</b> Qush olchasi, g.	<b>Черешня,вишня:</b> В. птичья, черешня	<b>Cerarus:</b> <i>C. avium</i>
2	<b>Do'lana:</b> Sibir d-si	<b>Боярышник:</b> Б. сибирская	<b>Grataegus:</b> <i>G. sanguinea</i>
3	<b>Yong'oq:</b> Yunon yo-g'i Kulrang yo-g'i Qora yo.	<b>Орех:</b> О. гречкий О. серый О. черный	<b>Juglans:</b> <i>J. regia</i> <i>J. cinerea</i> <i>J. nigra</i>
4	<b>Zaytun:</b> Evropa z-ni	<b>Маслина, оливковое дерево:</b> М. европейская	<b>Olea:</b> <i>O. europaea</i>
5	<b>Nok:</b> Oddiy n.	<b>Груша:</b> Г.обыкновенная	<b>Pyrus:</b> <i>P. communis</i>
6	<b>Olma:</b> Sibir o-si	<b>Яблоня:</b> Я. сибирская, или ягодная	<b>Malus:</b> <i>M. baccata</i>
7	<b>Olcha:</b> Pissarda o-si Tikonli o.	<b>Вишня, слива:</b> С. Писсарда С.колоющая, тёрн	<b>Prunus</b> <i>P. pissardii</i> <i>P. spinosa</i>
8	<b>Pista:</b> Haqiqiy p.	<b>Фисташка:</b> ф.настоящая	<b>Pistacia:</b> <i>P. vera</i>
9	<b>Xurmo, safsan:</b> Virjin x-si	<b>Хурма:</b> Х.виргинская	<b>Diospyros</b> <i>D. virginiana</i>
10	<b>Shaftoli:</b> Oddiy, yoki jaydari sh.	<b>Персик:</b> П.обыкновенный	<b>Persica:</b> <i>P. vulgaris</i>
11	<b>Tatun:</b> Mo'ynali t.	<b>Сумах:</b> С.пушистый, или уксусное дерево	<b>Rhus:</b> <i>R. typhina</i>
12	<b>Tog'jumrut:</b> Murt t.	<b>Крушина:</b> К.ломкая или ольхавидная	<b>Frangula:</b> <i>F. alnus</i>
13	<b>Tut:</b> Oq t. Oq majnuntut Yapon majnuntuti	<b>Шелковица, тут:</b> Ш. Белая Ш.белая, ф.плакучая Ш. японская, ф.плакучая	<b>Morus:</b> <i>M. alba</i> <i>M. alba, f. pendula</i> <i>M. multicaulis</i>
14	<b>O'rik:</b> Oddiy o'.	<b>Абрикос:</b> А.обыкновенный	<b>Armeniaca:</b> <i>A. vulgaris</i>

## YAPALOQBARGLI BUTALAR

№	Dekorativ o'simlikning o'zbekcha nomi	Dekorativ o'simlikning ruscha nomi	Dekorativ o'simlikning lotincha nomi
---	--	---------------------------------------	---

1	<b>Amorfa:</b> Butasimon a.	<b>Аморфа:</b> Аморфа кустарниковая	<b>Amorfha:</b> <i>A.fruticosa</i>
2	<b>Anor:</b> Oddiy a.	<b>Гранат:</b> Г.обыкновенный	<b>Punica:</b> <i>P.</i>
3	<b>Atirgul yoki na'matak, ra'nogul:</b> Vixurayan a-li Dag'al a. Oddiy a. yoki itburun	<b>Роза или шиповник:</b> Р. Вихураяна Р. Шероховатая Р. обыкновенная или шиповник	<b>Rosa:</b> <i>R. wixurayanii</i> <i>R.rugosa</i> <i>R.canina</i>
4	<b>Behi:</b> Oddiy, yoki cho'zinchoq b.	<b>Айва:</b> А.обыкновенная, или продолговатая	<b>Gydonia:</b> <i>G. oblonga</i>
5	<b>Biryuchina:</b> Oddiy b. Yaltiroq b.	<b>Бирючина, лигустра:</b> Б.обыкновенная Л.блестящая	<b>Ligustrum:</b> <i>L. vulgare</i> <i>L.lucidum</i>
6	<b>Bodom:</b> Pakana b.	<b>Миндаль:</b> М. низкий	<b>Amugdalish:</b> <i>A.nana</i>
7	<b>Bodrezak:</b> Oddiy b., qor shari yoki buldenej f.	<b>Калина:</b> К. обыкновенная, ф. снежный шар или бульденеж	<b>Viburnum:</b> <i>V.opulus,</i> <i>f. sterilis</i>
8	<b>Bog' yasmini:</b> Tojli bog' ya-ni	<b>Садовый, или дикий жасмин, чубушник:</b> Ч.венечный	<b>Philadelphus:</b> <i>P. coronarius</i>
9	<b>Buddleya:</b> David b-si	<b>Буддлея:</b> Б. Давида	<b>Buddleia:</b> <i>B.davidii</i>
10	<b>Bo'ritaroq:</b> Suriya atirguli, b.	<b>Гибискус:</b> гибискус сирийский	<b>Hibiscus:</b> <i>H.syriacus</i>
11	<b>Veygela:</b> Gullovchi v. Gibrid v.	<b>Вейгела:</b> В.цветущая В.гибридная	<b>Weigela:</b> <i>W.florida</i> <i>W.hybrida</i>
12	<b>Gortenziya:</b> Daraxtsimon g.	<b>Гортензия:</b> Г. древовидная	<b>Hydrangea:</b> <i>H. arborescens</i>
13	<b>Deystiya:</b> Nozik d.	<b>Деция:</b> Д. изящная	<b>Deutzia:</b> <i>D. gracilis</i>
14	<b>Deren:</b> Oq d.	<b>Дерен, свидина,корнус:</b> Д. белый	<b>Cornus (Swida)</b> <i>C. alba</i>
15	<b>Drok:</b> Bo'yoqli d.	<b>Дрок:</b> Д. красильный	<b>Genista:</b> <i>G.tinctoria</i>
16	<b>Jiyya:</b> Kumushrang j. Ingichkabargli j.	<b>Лох:</b> Л. Серебристый Л. узколистный	<b>Elaeagnus:</b> <i>E.argentea</i> <i>E.angustifolia</i>
17	<b>Zirk, qoraqand:</b> Oddiy z. Tunberg z-ki	<b>Барбарис:</b> Б. обыкновенный Б. Тунберга	<b>Berberis:</b> <i>B.vulgaris</i> <i>B.thunberii</i>
18	<b>Irg'ay:</b> Yaltiroq i.	<b>Кизильник:</b> К. блестящий	<b>Cotoneaster:</b> <i>C. lucidus</i>

19	<b>Magoniya:</b> Padubbargli m.	<b>Магония:</b> М.ладуболистная	<b>Mahonia:</b> <i>M.aquifolium</i>
20	<b>Nastarin:</b> Oddiy n. Venger n-ni	<b>Сирень:</b> С. Обыкновенный С. венгерский	<b>Syringa:</b> <i>S.vulgaris</i> <i>S.josikaea</i>
21	<b>Normushk:</b> Yapon n-ki Maydabargli yapon n-ki Yirikbargli yapon n-ki	<b>Бересклет:</b> Б. японский Б. японский, ф.мелколистный Б. японский, ф.крупнолистный	<b>Euonymus:</b> <i>E.japonica</i> <i>E.japonica, f. cordata</i> <i>E.japonica, f. platyphyllos</i>
22	<b>Pirakanta:</b> Och-qizil p.	<b>Пираканта:</b> П. ярко-красная	<b>Pyracanta:</b> <i>P. coccinea</i>
23	<b>Rakitnik:</b> Rus r-gi	<b>Ракитник:</b> Р.русский	<b>Cytisus:</b> <i>C.ruthenicus</i>
24	<b>Saksovul:</b> Oq s.	<b>Саксаул:</b> С.белый	<b>Haloxylon:</b> <i>H.persicum</i>
25	<b>Sallagul:</b> Daraxtsimon s.	<b>Пион:</b> П.древовидный	<b>Peonia:</b> <i>P.arborea</i>
26	<b>Sambitgul, tolgul:</b> Xushbo'y s.	<b>Олеандр:</b> О. душистый	<b>Nerium:</b> <i>N.odorum</i>
27	<b>Skumpiya:</b>	<b>Скумпия, желтинник</b>	<b>Cornus coggygria</b>
28	<b>Tobulg'i:</b> Yapon t-si Van Gutta t-si	<b>Спирея, таволга:</b> С. Японская С. Ван Гутта	<b>Spiraea:</b> <i>C.japonica</i> <i>C.vanhouttei</i>
29	<b>Forzistiya:</b> Egik f.	<b>Форзиция:</b> Ф.пониклая, свешивающаяся	<b>Forsittia:</b> <i>F. suspensa</i>
30	<b>Xenomeles yoki yapon behisi:</b> Mauley xenomelesi yoki past bo'yli b.	<b>Хеномелес или айва японская:</b> Х. Маулея или айва низкая)	<b>Chaenomeles:</b> <i>C.maulei</i>
31	<b>Chakanda, jirqanoq:</b> Itshumurtsimon ch.	<b>Облепиха:</b> О. крушиновая	<b>Hippophae:</b> <i>H. rhamnoides</i>
32	<b>Ching'il :</b> Kumush ching'il	<b>Чингиль или чемыш:</b> Ч.серебристый	<b>Halimadendron:</b> <i>H.halodendron</i>
33	<b>Shamshod:</b> Doim yashil sh.	<b>Самшит:</b> С. вечнозеленый	<b>Buxus:</b> <i>B. sempervirens</i>
34	<b>Shilvi, uchqat:</b> Maydagulli sh. Tatar sh-si Ko'kimtir sh. Oddiy sh.	<b>Жимолость:</b> Ж. Мелкоцветная Ж. Татарская Ж. Синеватая Ж. обыкновенная	<i>Lonicera:</i> <i>L.micrantha</i> <i>L.tatarica</i> <i>L.coerulea</i> <i>L.xylosteum</i>
35	<b>Yulg'un:</b> Archasimon yu.	<b>Гребенщик, или тамарикс:</b> Можжевельниковидный г.	<b>Tamarix:</b> <i>T.arceuthoides</i>
36	<b>O'rmon yong'og'i:</b> Oddiy o'rmon yo-g'i	<b>Лещина:</b> Л. обыкновенная	<b>Corylus:</b> <i>C.avellana</i>
37	<b>Qorag'at:</b> Tillorang q.	<b>Смородина:</b> С. золотистая	<b>Ribes:</b> <i>R.aureum</i>

38	<b>Qormevachi:</b> Oq qormevachi	<b>Снежноягодник:</b> белый с., или кистевой	<b>Symporicarpus:</b> S. albus
----	-------------------------------------	---	-----------------------------------

LIANLAR

№	Dekorativ o'simlikning o'zbekcha nomi	Dekorativ o'simlikning ruscha nomi	Dekorativ o'simlikning lotincha nomi
1	<b>Daraxtxo'r pechak:</b>  O'rmalovchi d.p. Yumaloq bargli d. p.	Древогубец или краснопузырник, целяструс: Д.лазящий Д. круглолистный	<b>Celastrus:</b>  C. scandens C. orbiculata
2	<b>Puerariya:</b> Popukli p.	<b>Пуэрария:</b> П. волосистая	<b>Pyeraria:</b> P.hirsuta
3	<b>Tok, uzum:</b> Amur toki	<b>Виноград:</b> В. амурский	<b>Vitis:</b> V.anurensis
4	<b>Partenostissusyoki yovvoyi tok:</b> Beshbargli yo. t.	Партоциссус или дикий виноград:  Девичий виноград пятилистичковый	<b>Partenocissus:</b>  P.quinquefolia
5	<b>Plyush:</b> Oddiy p. Kolxida p-shi	<b>Плющ:</b> П. обыкновенный П.колхидский	<b>Hedera:</b> H. helix H.colchica
6	Kaprifol shilvisi Braun sh-si	Жимолость Каприфола  Ж. Брауна	Lonicera caprifolium L.brownii
7	<b>Ilonpechak:</b> Jakman i-gi	<b>Ломонос, клематис:</b> Л.Жакмана	<b>Clematis:</b> C.jakmani
8	<b>Tekoma:</b> Tomir yoygan t.	<b>Текома, кампсис:</b> Т. укореняющаяся	<b>Campsis:</b> C. radicans
9	<b>Pechakgul:</b> Xitoy p-li	<b>Глициния, вистерия:</b> Глициния китайская	<b>Wistaria:</b> W.sinensis

BIRYILLIK VA KO'PYILLIK GULLI O'SIMLIKLER

№	Dekorativ o'simlikning o'zbekcha nomi	Dekorativ o'simlikning ruscha nomi	Dekorativ o'simlikning lotincha nomi
1	<b>Agava:</b> Amerika a-si Viktoriya a-si	<b>Агава:</b> А.американская А.королевы Виктория	<b>Agave:</b> A.americana A.Victoria
2	<b>Alternantera:</b> Chirolyi a.	<b>Альтрантера:</b> А.красивая	<b>Alternanthera:</b> A.amoena
3	<b>Andiz:</b> Qilichbargli a.	<b>Девясил, инуля:</b> Д. мечелистний	<b>Inula:</b> I.lensifolia
4	<b>Armeriya:</b> Sohil armeriyasi	<b>Армерия:</b> А.приморская	<b>Armeria</b> A.maritima
5	<b>Binafshagul, kapalakgul:</b> Xushbo'y b.	<b>Виола, фиалька,</b> <b>анютины глазки:</b> В.душистая	<b>Viola:</b>  V.odorata
6	<b>Boychechak, qor guli:</b> Qordek oq b.	<b>Подснежник, галантус:</b> П.белоснежный	<b>Galanthus:</b>

			G.annus
7	<b>Bo'rigul:</b> Katta b. Mayda b.	<b>Барвинок:</b> Б. большой Б. малый	<b>Vinca:</b> V. major V. minor
8	<b>Gaylardiya:</b> Chirolyi yoki ikkirangli g.	<b>Гайлардия:</b> Г. красивая или двухцветная	<b>Gaillardia:</b> G.pulchella
9	<b>Gulibeor, semizo't:</b> Yirikgulli g.	<b>Портулак:</b> П. крупноцветковый	<b>Portulaca:</b> P.grandiflora
10	<b>Gulidavid, duxobagul:</b> Tiko'suvchi g. Oddiy g.  Nozikbargli g.	<b>Бархатцы, шапочки, тагетес:</b> Б.прямостоячий Б.обыкновенный или отклоненный Б.тонколистный	<b>Tagetes:</b>  T.erecta T.patula  T.tenuifolia
11	<b>Gulsapsar:</b> Duragay yoki bog' g-ri	<b>Ирис или касатик:</b> И. гибридный, касатик садовый или бородатый и.	<b>Iris:</b> I.hibrida
12	<b>Gultojixo'roz:</b> Taroqsimon g., xo'roz toji	<b>Целозия:</b> Ц.гребенчатая, петуший гребешок	<b>Celosia:</b> C.gristata
13	<b>Dastargul:</b>  Ko'pyillik d.	<b>Маргаритка, беллис:</b> М.многолетняя	<b>Bellis:</b>  B.perennis
14	<b>Dekorativ loviya:</b>  Turk dekorativ l-si	<b>Фасоль декоративная, бобы турецкие, фазеолюс:</b> Ф.д.турецкая	<b>Phaseolus:</b>  Ph.multiflorus
15	<b>Yorongul:</b> Xushbo'y yo. Plyushbargli yo.	<b>Пеларгония, герань:</b> Г.душистая П. плющелистная или ползучие	<b>Pelargonium (Geranium):</b> P.roseum P.peltatum
16	<b>Zarringul, xrizantema:</b> Mayda gulli z.	<b>Хризантема, златоцвет, ромашка:</b> Х.мелкоцветковая	<b>Chrysanthemum:</b>  C.indicum
17	<b>Zag'chako'z:</b>  O'rmon z-zı Botqoq z-zı	<b>Незабудка, миозотис:</b> Н.лесная Н.болотная	<b>Myosotis:</b>  M.sylvatica M.palustris
18	<b>Isparak:</b>  Yirikgulli i.	<b>Шпорник или живокость,дельфиниум:</b> Ш.крупноцветковый или китайский	<b>Delphinium:</b>  D.grandiflorium
19	<b>Itgunafsha:</b> Virjin i-si Cho'zinchoq i.	<b>Вероника:</b> В.виргинская В. простертая	<b>Veronica:</b> V. virginiana V. prostrata
20	<b>Ixcham nashagul:</b> Duragay i xcham n.	<b>Петуния:</b> П.гибридная	<b>Petunia:</b> P.hybrida
21	<b>Karnaygul:</b> Qirmizi k.	<b>Ипомея, выюнок:</b> И.пурпурная	<b>Ipomoea:</b> I.purpurea
22	<b>Kartoshkagul:</b>	<b>Георгина, далия,</b>	<b>Dahlia:</b>

	O'zgaruvchan k.	<b>петушок:</b> Г.изменчивая	D.variabilis
23	<b>Koleus:</b> Durvgay k.	<b>Колеус, крапивка:</b> К гибридный	<b>Coleus:</b> <i>C.gibridum</i>
24	<b>Kupena:</b> Ko'prangli k.	<b>Полиганатум,</b> <b>Соломонова печать:</b> К.многоцветковая	<b>Polygonatum:</b> <i>P.multiflorum</i>
25	<b>Lola:</b> Greyg l-si	<b>Тюльпан:</b> Т.Грейга	<b>Tulipa:</b> <i>T.greigu</i>
26	<b>Mavruk, Marmarak,</b> <b>zig'irak:</b> Yaltiroq m.	<b>Сальвия, шалфей:</b> С.блестящая	<b>Salvia:</b> <i>Ssplendens</i>
27	<b>Momoqaltiroqgul:</b> Kumushrang m.	<b>Алиссум, каменник,</b> <b>бурачок:</b> А.серебристый	<b>Alissum</b> <i>A.argenteum</i>
28	<b>Navro'zgul:</b> Oddiy n.	<b>Пимула, первоцвет или</b> <b>баранчики:</b> П.обыкновенная, бесстебельная	<b>Primula:</b> <i>P.vulgaris</i>
29	<b>Namozshomgul:</b> Surgi n-li	<b>Мирабилис, ночная</b> <b>красавица:</b> М.слабительная	<b>Mirabilis:</b> <i>M.jalapa</i>
30	<b>Nargisgul:</b> Jyul Vern n-li	<b>Нарцисс:</b> Н.Жюль Верн	<b>Narcissus:</b> <i>N.Jul Vern</i>
31	<b>Nashagul:</b> Qirmizi n-li	<b>Рудбекия, золотой шар:</b> Р., эхинацея пурпурная	<b>Rudbeckia:</b> <i>R.purpurea</i>
32	<b>Naqshgul:</b> Alp n-li	<b>Арабис, резуха:</b> А.альпийский	<b>Arabis:</b> <i>A.alpina</i>
33	<b>Nilufar:</b> Kasbiy n-ri	<b>Лотос:</b> Л.каспийский	<b>Nelumbium:</b> <i>N.nuciferum</i>
34	<b>Perilla:</b> Butasimon p.	<b>Перилла:</b> П.кустарниковая	<b>Perilla:</b> <i>P.frutescens (P.ocymoides)</i>
35	<b>Piyozgul:</b> Daur p.	<b>Лилия:</b> Л.даурская	<b>Lilium:</b> <i>L.dauricum</i>
36	<b>Rayxon:</b> Tog'rayxon	<b>Душица:</b> Д.мелкоцветная	<b>Origanum:</b> <i>O.tyinthanthum</i>
37	<b>Sallagul:</b> Dorivor s.	<b>Пион:</b> П.лекарственный	<b>Paoenia:</b> <i>P.officinalis</i>
38	<b>Sariqbosh, stinerariya:</b> Sohil s-shi	<b>Цинерария, крестовник:</b> Ц. или к.приморский, пепельный	<b>Senecio (Cineraria):</b> <i>S.cineraria (Cineraria maritima)</i>
39	<b>Sarsabil:</b> Dorivor s. Shpringer s.	<b>Аспарагус, спаржа:</b> А.лекарственная А.Шпрингера	<b>Asparagus:</b> <i>A.officinalis</i> <i>A.sprengeri</i>
40	<b>Suvyig'ar:</b> Oddiy s.	<b>Аквилегия, орлик,</b> <b>водосбор:</b> А.обыкновенная	<b>Aquilegia:</b> <i>A.vulgaris</i>
41	<b>Tamakigul:</b> Xushbo'y t.	<b>Табак:</b> Т.душистый	<b>Nicotiana:</b> <i>N.affinis</i>

42	<b>Tizimgul:</b> Chamandagul Dorivor t.	<b>Вербена:</b> В. садовая или гибридная В. лекарственная	<b>Verbena:</b> V.hibrida V.officinalis
43	<b>Tirnoqgul :</b> Dorivor t.	<b>Календула, ноготки:</b> К.лекарственная, ноготки	<b>Calendula:</b> C.officinalis
44	<b>Tradeskanstiya:</b>  Qirmizi t.	<b>Традесканция, сеткреазия:</b> Т. пурпурная	<b>Tradescantia:</b>  T.purpurea
45	<b>Floks:</b> Bigizsimon f. Popuksimon f. To'shama f.	<b>Флокс:</b> Ф. шиловидный Ф.метельчатый Ф.стеляющая	<b>Phlox:</b> P.subulota P.panikulata P.subulata
46	<b>Fukstiya:</b> Nafis f.	<b>Фуксия:</b> Ф. изящная	<b>Fuchsia:</b> F.gracilis
47	<b>Xina:</b>  Uoller x-si	<b>Бальзамин, недотрога:</b> Б. Уоллера	<b>Impatiens</b>  I.walleriana
48	<b>Xlorofitum:</b>  Po'pakli,tutamli x.	<b>Хлорофитум, венечник живородящий:</b> Х. хохлатый, пучковатый	<b>Chlorophytum:</b>  C.comosum
49	<b>Chinnigul:</b> Patli ch.	<b>Гвоздика:</b> Г. перистая	<b>Dianthus:</b> D.plumarius
50	<b>Shabbo'ygul:</b> Oqish sh.	<b>Маттиола, левкой:</b> М.седая, левкой	<b>Matthiola:</b> M.incana
51	<b>Shoyigul :</b> Valentina Tereshkova Sh-li	<b>Канна:</b> К. Валентина Терешкова	<b>Canna:</b> C.V.Tereshkova
52	<b>Qalampirgul:</b> Xushbo'y q.	<b>Резеда:</b> Р.душистая	<b>Reseda:</b> R.odorata
53	<b>Qashqargul:</b> Xitoy q-li Alp q-li Italiya q-li	<b>Астра:</b> А.китайская А.альпийская А.итальянская	<b>Aster:</b> A.chinensis A.alpinus A.amellus
54	<b>Qizlargul, begoniya:</b> Tuganakli qq.	<b>Бегония:</b> Б. клубневая	<b>Begonia:</b> B.hybrida tubtrosa
55	<b>Qulmoq:</b> Oddiy q.	<b>Хмел:</b> Х.обыкновенный	<b>Xumulus:</b> X.lupulus
56	<b>G'ozpanja:</b> To'q qirmizi g'.	<b>Лапчатка:</b> Л.темнокровавая	<b>Potentilla:</b> P.atrosanguinea

### MAYSA O'SIMLIKLARI

No	Dekorativ o'simlikning o'zbekcha nomi	Dekorativ o'simlikning ruscha nomi	Dekorativ o'simlikning lotincha nomi
1	<b>Ajriq:</b>  Panjali a.	<b>Пальчатник, свинорой:</b> С. пальчатый, собачий зуб, бермудская трава	<b>Gynodon:</b> G.dactylon
2	<b>Axirantes:</b> Vershaffelt a-si	<b>Ахирантес:</b> А.Вершффельта	<b>Achiranthes:</b> A.verschaffelii

3	<b>Ayuga:</b> Urmalovchi a.	<b>Живучка:</b> Ж. ползучая	<b>Ajuga:</b> A.teptans
4	<b>Betaga:</b> Qizil b. O'tloq b-si	<b>Овсяница, фестука:</b> О. красная О. луговая	<b>Festuca:</b> F.rubra F.pratensis
5			
6	<b>Plevel, raygras:</b> Yaylov yoki o'tloq p-li	<b>Плевел:</b> П.многолетний, райграс пастищный	<b>Lolium:</b> L.perenne
7	<b>Sebarga:</b> O'tloq s-si	<b>Клевер:</b> К.луговой	<b>Trifolium:</b> T.pratense
8	<b>Цоysiya:</b> Nozikbargli st.	<b>Цойсия:</b> Ц.тонколистная, Маскаренская трава	<b>Zoysia:</b> Z.tenuifolia
9	<b>Qo'ng'rbosh:</b> O'tloq q-shi	<b>Мятлик:</b> М. луговой	<b>Poa:</b> P.pratensis

## 5–ilova

### QISHLOQ HOVLI BOG'LARIDA EKISHGA TAVSIYA ETILGAN O'SIMLIKLER

**Mevali daraxtlar.** Olma navlari: Renet, Smerenko, Jonatan, Oq rozmarin, Delishes, vaynsep, “Spur” tipi. Nok navlari: Lastochka, Lyubimina, Klappa, Bere royal, Lesnaya krasavista, Olive de Serr, qishki nashvati. Behi navlari: Yirik Quva behisi, Nok behi, Izobilnaya, Sovxoznaya. O’rik navlari: Ko’rsodiq, Arzami, Zarya Vostoka, Mirsanjali, Subhoni Isfarak, Xurmoy. Shaftoli navlari: Vatan, Lola, Oq shaftoli, Start, Farhod, Elberta. Olxo’ri navlari: Kurortnaya, Pioner, Berton, Ispolinskaya. Gilos navlari: Pushti napoleon, Volove serdste, qora gilos, Drogana jeltaya. Olcha navlari: Podbelskaya, qora shponka, Samarqand olchasi.

Anor navlari: qizil anor, Qozog’i anor, Oq dona (tuya tishi), Achchiq dona. Anjir navlari: O’zbekiston sariq anjiri, Smirin qora anjiri, Chapla, Kadota. Xurmo navlari: Tamunan, Zenji-Maru, O’zbekiston pioneri, Xiakume. Yong’oq navlari: Gvardeyskiy, Ideal, Pioner, O’zbekiston ertagi yong’og’i. Bodom navlari: Kosonsoy, Bo’stonliq, Ugom, Chidamli. Jiyda navlari: Mayda mevali nordon nav, Ta Yan-Tszaao.

**Manzarali daraxtlar.** Virgin archasi: ustunsimon va piramida shaklidagi turlari, G’ujanoq archa: past bo’yli turlari. Uchqur bargli zarang: shoxlab ketgan va shar shaklidagi turlari, Mirzaterak–piramida shaklidagi terak, Yapon saforasi, qayrag’och.

**Manzarali butalar:** atirgul navlari. Yapon behisi, Veygela: oq, pushti, qizil guli navlari. Do'lana, Deystiya izyashnaya: oq pushti, qizil gulli navlari. Shilvi:

gullovgchi uchqat, Bodzerak, Shamshod venger sireni: binafsha va oq gulli navlari, Ligustrum.

## 6–ilova

### O'ZBEKISTON QISHLOQLARI LANDSHAFT ARXITEKTURASIDA FOYDALANILADIGAN O'SIMLIKLAR VA ULARNI QO'LLASh BO'YICHA KO'RSATMALAR\*

*Xvoy tipidagi daraxt va butalar, ularni qo'llash bo'yicha tavsiyalar*

***Oddiy archa.*** Bo'yi 12–18 m, diametri 25–40 sm, shox-shabbasi tuxumsimon daraxt. Po'stlog'i qizg'ish sariq rangda yoki qo'ng'ir kulrang, yupqa po'st tashlab turadi. Kurtaklari 0,3 sm bo'lib, tangachasimon ninabarglar bilan qoplangan. Novdalari ingichka, uch qirrali.

U sovuqqa va qirg'oqchilikka chidamli daraxt. Qisman soyasevar. Qumli, ohakli sernam tuproqda yaxshi o'sadi. Tuproq sho'riga, havoning ifloslanishiga chidamsiz. Asosan MDH ning Yevropa qismidagi o'rmon mintaqasida va Sibirda tarqalgan. U Qarag'ayzorlarda ikkinchi va uchinchi yarusda o'sadi.

Tuproqni yog'in suvlari bilan yuvilishdan saqlashda va uning sitfatini yaxshilashda archaning roli katta. Chiroyli shakllari qishloq va shaharlarda, parklarga, ko'chalarga ekiladi. Uning turli shakllari ko'kalamzorlashtirish ishlarida katta rol o'ynaydi.

- *Ushbu ilovani tayyorlashda A.Q.Qayimovning “ Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ” (Toshkent, 2013) kitobida keltirilgan materiallardan foydalanildi.*

***Virgin archasi-mojjevelnik virginskiy.*** Bo'yi 15–30 m ga yaqin daraxt. Shox-shabbasi tor tuxumsimon yoki yoyiq. Bu archa tanasining tubidan shoxlaydi, keyinroq bu shoxlari qurib tushib ketadi. Ninabarglari qarama-qarshi joylashadi. Yon novda yoki shoxchalaridagi barglar mayda, tangachasimon bo'lib, uzunligi 1–2 mm dan oshmaydi. Barglarida uzunchoq smola bezlari bor. Qubbalari 5 mm uzunlikda, shar shaklida bo'lib, birinchi yili yetiladi.

Shimoliy Amerikaning g'arbiy va sharqiy shtatlarida tarqalgan.

Tuproq tanlamaydi. Quruq toshli, qumli botqoq hamda nam sho'rtob tuproqlarda o'saveradi. Qurg'oqchilikka, havoning ifloslanishiga, soyaga chidamli. Uni yashil to'siq sifatida, yakkaxon (soliter) yoki guruhlar tarkibida ekish tavsiya etiladi.

***Kazak archasi-mojjevelnik kazastkiy.*** Bu archa turi O'rta Osiyodagi archazorlarning yuqori tarqalish chegaralarida dengiz sathidan 2800–3200 m balandliklarda ham o'sadi. Balandligi 1,5 m gacha, ba'zan 5 metrgacha o'sadigan kichik daraxt bo'lib, ko'p hollarda yer bag'irlab o'suvchi shox-shabba hosil qiladi.

Ninabarglari tangachalar bilan qoplangan, 1–2 mm uzunlikda bo’lib, novdada 3 yilgacha o’sadi.

Aprel may oyida gullaydi. Qubbalari 8 mm, eniga kulrang–qora rangda oqish–ko’kish g’ubor bilan qoplangan 2–6 mm meva bandida osilib turadi. Bu archa tuproqqa va namga kam talabchan. Urug’idan va qalamchalaridan ko’payadi.

Ninabargli, qubbasi va shoxlarida zaharli xossalarga ega efir moyi mavjud. Bu archa turi boshqa turlar bilan archazorlar hosil qiladi, ular suvni saqlash, tuproqni himoyalash kabi muhim funksiyalarni bajaradi.

***Doim yashil sarvi.*** Bo’yi 25–30 m gacha etadigan keng shox–shabbali daraxt. Soyaga chidamli, ayniqsa yoshlik davrida boshqa daraxtzorlarning shox–shabbalari ostida ham o’sa oladi. Uzoq vaqt davom etgan qurg’oqchilikka hamda qisqa davomli–20<sup>0</sup> Sgacha haroratga chidaydi. Tuproqqa kam talabchan, toshloq, ohakli, hamda quruq yengil tuproqlarda ham o’sadi, ammo tuproq kuchli sho’rlanmagan bo’lishi zarur. Ortiqcha namli tuproqlarda ko’p yashamaydi va shamoldan zarar-lanadi.

Shahar sharoitiga chidamli. Uning shox–shabbalarini kesib har xil yashil sun’iy shakllarni hosil qilish mumkin. Juda ko’p yil yashaydigan tur.

***Gliptostrobussimon metasekvoya.*** Katta daraxt bo’lib, bo’yi 50 metrga etadi. Shox–shabbasi tuxumsimon. Novda va barglari qarama–qarshi joylashadi. Metasekvoyaning novdalari uzun va kalta bo’lib, yon kalta novdalari yashil rangda, qishda barglari bilan birga to’kilib ketadi.

Metasekvoya daraxt simpodial tipda shoxlanadi. Shunga ko’ra uning shox–shabbasi yon tomonga qarab o’sadi. Ninabarglari 0,8–1,25 sm gacha, mayin, nozik bo’lib novdada joylashadi. Metasekvoya urug’idan ko’payadi. U oq ildiz va yon il-dizlar chiqaradi. Uni qishgi qalamchasidan ko’paytirish mumkin. Metasekvoya tabiatda soyaroq, nam yerlarda, tog’ qiyaliklarida, daryo qirg’oqlarida, qumoq kislotali tuproqlarda o’sadi. Sovuqqa va qurg’oqchilikka chidamli.

***G’arb tuyasi–tuya zapadnaya.*** Bo’yi 10–12 m, diametri 1 m keladigan daraxt. Ayrim turlarining bo’yi 30 m gacha ham etadi. Shox–shabbasi zich joylashgan. Barglari yozda to’q yashil, qishda yashil–qo’ng’ir rangda bo’ladi. Yuqori novda-lardagi barglari o’tkir uchli, qattiq, yon novdalaridagisi to’mtoq va oval shaklda bo’lib, novdaga yopishib joylashadi. Ular daraxtda 2–3 juft tangachadan iborat bo’lib, cho’ziqroq-tuxumsimon, bo’yi 10–15 mm.

Tuya urug’idan yaxshi ko’payadi. Sekin o’sadi, soyasevar daraxt bo’lib, unumdar yerlarda yaxshi o’sadi. Unumsiz yerda barglari sarg’ayadi. qurg’oqchilikka, sovuqqa ham chidaydi.

G’arb tuyasi havoning ifloslanishiga chidamli, yashil to’siq yaratishda qulay daraxt hisoblanadi. Uning chiroyli xillari bor. Tuyani yakka–yakka, guruhlab yoki

qatorlab ekish tavsiya etiladi. Lekin nihollari yosh vaqtida issiqdan zararlanadi, shuning uchun uni soya joylarga ekish mumkin.

**Sharq biotasi–biota vostochnaya.** Daraxt yoki buta, bo’yi 10 m, shox–shabbasi piramida shaklida bo’lib, vertikal o’sadigan novdalardan tuzilgan. Novdalari yassi, pishiq. Barglari ninasimon, tangachasimon bo’lib, uchi o’tkir, bezli, tiniq yashil rangda. Sharq biotasi asosan urug’idan ko’payadi, qalamchadan ham ko’paytirish mumkin. U sekin o’sadi, soyasevar, issiqsevar, qurg’oqchilikka, katta yoshida esa sovuqqa va gazlarga ham chidamli. Tuproq tanlamaydi. Lekin ohakli, qumloq tuproqlarda yaxshi o’sadi. Ildizi baquvvat. Shoxlari egiluvchan bo’lib, shamol ta’siri va qor bosib qolishidan zararlanmaydi. Sharq biotasining qalin, sharsimon, shox–shabbali va egilib o’suvchi shakllari bor. Ba’zilari pakana, boshqalari baland bo’yli, yashil zangori rangda bo’lib, juda chiroyli manzarali o’sadi.

Sharq biotasi O’zbekistonning janubiy tumanlaridagi shahar va qishloqlar, parklarda yaxshi o’sadi, uni yakka–yakka yoki guruh qilib ekish tavsiya qilinadi. U ko’kalamzorlashtirishda keng miqyosda foydalanilmoqda.

**Oddiy qarag’ay–sosna obiknovennaya.** Bo’yi 30–40 m, diametri 1 m bo’lgan daraxt. U qulay sharoitda 600 yil yashaydi. Tanasining po’stlog’i qalin va vertikal yorig’li bo’lib ostki tomoni qo’ng’ir, yuz tomoni sariq yoki qizg’ish rangda. Voyaga yetgan qarag’ayning shox–shabbasi tuxumsimon bo’ladi.

Novdalari tuksiz, g’isht yoki sarg’ish rangda. Kurtaklari 6–12 mm uzunlikda, cho’zinchoq tuxumsimon, qizg’ish rangda bo’ladi. Qishda smola bilan qoplanadi. Qarag’ay bahorda o’sa boshlab, ikki xil novda chiqaradi: ulardan biri uzun bo’lib, qo’ng’ir rang tangachalar bilan qoplangan, ikkinchisi tanga bo’lib, uchidan bir juft ninabarg chiqaradi, barglari 3–7 sm, qattiq, cheti tishli kul rang, ular daraxtda 3–6 yil saqlanadi. O’sishdan to’xtashi bilanoq novdaning ichki va yon qismlarida kurtaklar hosil bo’ladi. Barglarida smola va efir moylari bor. Ular daraxtning sovuqqa chidamligini oshiradi.

Qarag’ay faqat urug’dan ko’payadi. Qarag’ay 10 yoshdan 40 yoshgacha tez o’sadi. Yaxshi iqlim va tuproq sharoitida 80 yoshlik qarag’ayning bo’yi 30 m gacha yetadi. Quruq, sernam yoki botqoq tuproqlar va qora tuproqli mintaqalar da u yaxshi o’smaydi. Tog’li mintaqalarda yaxshi o’sadi.

Oddiy qarag’ay sovuqqa va issiqqa chidamli daraxtdir. Shox–shabbasining siyrakligi uning yorug’sevar o’simlik ekanligidan darak beradi. Qarag’ay botanika bog’ida o’stirilganda 10 yoshida bo’yi 4,5 mga etgan, har yili o’rtacha 55 smdan o’sgan. Qarag’ay o’zidan havoni turli mikroblardan tozalaydigan fitonsid moddasini chiqarib turadi, havoning ifloslanishidan qattiq zararlanadi. Shuning uchun yo’l bo’ylarini ko’kalamzorlashtirishda undan foydalanish tavsiya etilmaydi.

***Qrim qarag’ayi–sosna krimskaya.*** Bo’yi 35 m, diametri 50 sm ga etadigan daraxt. Tanasining po’stlog’i to’q kul rangda, shoxlariniki esa qizg’ish rangda bo’ladi. Kurtaklari konussimon, uchi o’tkir, smola bilan qoplangan. Barglari to’q yashil, qattiq, yaltiroq, uchi o’tkir, bo’yi 15–16 sm bo’lib, oddiy qarag’ayniga nisbatan ikki marta uzun. Ular novdada 2 tadan to’da bo’lib joylashadi.

Urug’idan ko’payadi va ochiq yerlarda yaxshi o’sadi. 500–600 yil yashashi mumkin. Oq va yon ildizlari yaxshi rivojlanadi. Bu qarag’ay sovuqqa ham, issiqliqqa ham chidamli. U soyasevar bo’lib, oddiy qarag’ayga nisbatan unumdon tuproqni xohlaydi, quruq ohakli, qumli va qumloq tuproqli yerlarda ayniqsa yaxshi o’sadi.

Qarag’ay ihota daraxtzorlari barpo qilish va ko’kalamzorlashtirish maqsadlarida ekiladi. U Qrim, Kavkaz tog’larida uchraydi. Bu hududlarda oddiy qarag’ay va eman bilan birgalikda o’sadi yoki ayrim hollarda tabiiy daraxtzorlar hosil qiladi. O’zbekistonda Samarqand, Toshkent, Andijon viloyatlari hamda Pskent o’rmonzorlarida ekiladi. Aholi turar joylarini ko’kalamzorlashtirishda ham keng qo’llaniladi.

***Eldor qarag’ay–sosna eldarskaya.*** Bu qarag’ayturing yagona tabiiy tarqalgan joyi Ozarboyjonning Gruziya bilan chegaradosh joylashgan bepoyon Eldor dashtidir. Eldor qarag’ayi toshloq yerlarda o’sib, shu yerlardagi 200 mm yog’ingarchilik bilan qanoatlanadi. Qarag’ay daraxti alohida yoki kichik guruhlar ko’rinishida uchraydi. Quruq tog’ yon bag’irlarida o’stirish uchun tavsiya etiladi. Qarag’ay shox–shabbasi piramidal shaklda bo’lib, ninabarglari 8–12 sm uzunlikda, 0,9–1,0 mm qalinlikda, juft ko’rinishdadir. Ninabarglari 2 yil yashaydi, 3- yil qurib to’kiladi. Aprelda gullaydi.

2007–2008 yili O’zbekistonda bo’lib o’tgan qaxraton qishda ( $-28^{\circ}\text{S}^0$ ) Eldor qarag’ayi 70–80 % saqlanib qoldi. Yoz issig’i va qurg’oqchiligidan zararlanadi. Ko’kalamzorlashtirish uchun istiqbolli turdir.

***Oddiy qarag’ay.*** Daraxt o’simligi bo’lib, katta yoshida bo’yi 40–45 m ga, diametri 1,5 m ga etadi. Tanasining tubigacha doira shaklida shoxlanib, keng piramidasimon qalin shox–shabba hosil qiladi. Qobig’i yoshligida silliq, qo’ng’ir rangda bo’lib, undan yupqa po’st ajralib turadi. Keyinroq yoshiga qarab qobig’i vertikal yoriladi. U 40 yoshga yetgach, tanasining tub qismida tangachalar paydo bo’ladi. Ular dastlab mayda bo’lib, keyinroq yiriklashib, dag’allashadi, jigar rang qavatlar hosil qiladi. Bu vaqtida tanasi g’adir–budir yoriqlarda suv o’simliklari, zamburug’lar va bakteriyalar tarqaladi, shunga ko’ra tanasi qizg’ish rangga kiradi. Shuningdek, bu daraxtda lishayniklarni uchratish mumkin. Havoning sernam bo’lishi lishaynik, zamburug’ va bakteriyalarning tarqalishi uchun qulaylik tug’diradi.

Qorag’ay issiqliq va qurg’oqchilikka chidamsiz. U turli–tuman tuproqlarda o’sa oladi. Qumli va qumloq, bo’z tuproqli hamda qora tuproqli yerlarda juda

yaxshi o'sadi. Botqoq va zax tuproqlarda o'smaydi. Qora va oq qarag'ay, eman, qora qayrag'och, shum daraxtlari bilan birga daryo qirg'oqlarida ham o'sadi. Qorag'ayning egilib o'suvchi, ustunsimon, pakana, yumaloq-piramidasimon, shar-simon va boshqa bir necha shakllari bor. Ayrim shakllarining qubbasi yashil va qizil rangda.

Qorag'ay to'siq sifatida temir yo'llar bo'y lab ekiladi. Havoning ifloslanishiga chidamsiz bo'lganidan shaharlarda ekish tavsiya qilinmaydi. Bu qarag'ay O'zbekiston sharoitida yaxshi o'smoqda.

### ***Yaproqli (bargi tushuvchi) daraxt va butalar***

**Kashtan.** Bo'yi 40 mga etadigan manzarali daraxt bo'lib, tanasi kam shoxlangan, po'stlog'i qalin, qo'ng'ir-jigar rangda. Novdalari qirrali, avval tukli, yashil-qizg'ish rangli, so'ng qo'ng'ir-qizg'ish rangga kiradi, barglari spiral shaklda joylashadi, kuzda to'kiladi. Bandi kalta, barg plastinkasi keng lansetsimon, dag'al, chetlari yirik tishchali, patsimon tomirla. Yon barglari ingichka, cho'zinchoq bo'lib, tez to'kilib ketadi. Barglari to'liq yozilib bo'lganda (yozning o'rtalarida may-iyun oylarida) gullaydi. Gullari yig'ilib, 35 sm uzunlikda bo'lgan boshoq hosil qiladi.

Mevasi oktyabr oyining boshlarida yetiladi va noyabr oyi davomida yerga to'kiladi. Bu vaqtda qattiq tikanli sharsimon o'ramasi 4 qismga ajraladi. Mevasi yupqa yog'ochlangan, dag'al, jigar rang, yaltiroq, tub qismida rangli dog'i bor. Yong'og'i sharsimon, tuxumsimon bo'lib, yonidan egik.

Kashtan yosh vaqtida tez o'sadi. Ildizi o'q ildiz bo'lib, yerga chuqur kirib boradi. To'nkasidan ko'karadi, ko'p yil yashaydi, 1000–3000 yillik turlari bor. U nihoyatda yorug'sever va issiqsevar daraxt.

Kashtan navlari ko'p bo'lib, ular mevasining yetilish muddati, yirik-maydaligi, tarkibidagi qand va kraxmal miqdoriga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Sovuqqa chidamsiz daraxt. Daraxtlardan guruhlar tuzishda, soliter kompozistiyasini yaratishda ko'chalar bo'y lab qatorlab ekishda qo'llaniladi.

**Oddiy eman.** Bo'yi 35–40 m, diametri 1–1,5 mga yetadi. Tanasi to'g'ri o'sadi, shoh-shabbasi qalin. Ochiq yerda shoxlari yon tomonga o'sib, keng shox-shabba hosil qiladi. Emanning piramidasimon, sharsimon, shox-shabbalari, majnuntol singari xillari bor. Yosh shoxlari va novdalari qo'ng'ir-qizg'ish rangda, qirrali. Kurtaklari oval shaklda, yirik bo'lib, novdaning uchida doira bo'lib joylashadi. Yuqoridagi kurtaklari o'tkir uchli, yonidagisi yirikroq. Barglari oddiy tuzilgan, spiral shaklda, kuzda to'kilib ketadi. Barg plastinkasi teskari tuxumsimon, patsimon bo'lakli, bo'laklari yumaloq, uchi to'mtoq. Barglarining tubida "qulinqchalar" bor.

Yong'oq mevalari uzun bandli bo'lib, sentyabr oyidan boshlab, ayniqsa, kuz-gi sovuqdan keyin to'kila boshlaydi. Eman har xil shaklda va yirik-mayda bo'lishi mumkin.

Oddiy emanning ildizi baquvvat o'q ildiz bo'lib, yerga 10–12 mga yaqin kirib boradi. Shamolga chidamli, 500–600 yil yashaydi. Sovuqqa chidamli, yorug'sevlar va hir xil tuproqda o'sa oladi, lekin nam tuproq uning o'sishi uchun eng qulay sharoitdir.

**Kashtan bargli eman.** Katta daraxt bo'lib, bo'yi 25 mga yaqin, yosh novlari, kurtaklari chiziqli, yonbarglari, yosh barglarining orqa tomoni qalin, sariq tukli, keyinchalik tuki yo'qoladi. Shoxlarining po'stlog'i silliq, kulrangda. Barglari cho'ziq, oval shaklda bo'lib, 10–12 juft yirik, o'tkir tishchali, ular kashtanning bargiga o'xshaydi. Urug'idan ko'payadi. Kashtan bargli eman nihoyatda chiroyli manzarali daraxt bo'lganligidan joylarni ko'kalamzorlashtirish uchun tavsiya etiladi.

**Oddiy shumtol.** Katta daraxt bo'lib, bo'yi 25 m, diametri 1–1,5 mgacha, tik o'sadi, shox-shabbasi tuxumsimon, tanasining po'stlog'i kulrang, katta yoshida bo'yiga yoriladi. Novdasi tuksiz, yashil kulrang, kurtaklari yirik, qora. Barglarining bo'yi 40 sm, toq patsimon, 3–6 juft yonbargchalari bor, qarama-qarshi joylashadi. Bargchalari bandsiz, oval shaklda, uchi o'tkir, tuksiz, orqa tomoni tukli, cheti tishchali. Oddiy shumtol aprel-may oylarida gullaydi. Urug'idan ko'payadi, tez o'sadi.

Yorug'sevlar, havoning issiqligi va quruqligidan zararlanmaydi. Oddiy shumtol juda keng tarqalgan daraxt. U chiroyli o'simlik bo'lib, joylarni ko'kalamzorlashtirish maqsadida ko'p ekiladi. O'rmon meliorastiyasi ishlarida ham keng qo'llaniladi.

**Zarang (klyon) daraxti.** Zarangning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular orasida O'zbekistonda baland bo'yli turlari: bargi o'tkir zarang, yavor (chinor bargli), dala zarangi, kumush zaranglari alohida guruhni tashkil qiladi. Ular yozda chiroyli shakllardagi to'q yashil barglarga, kuzda esa turliche tusdagi yorqin ranglarga kiruvchi barglarga ega bo'lib, tanasi va shox-shabbalari tig'is, shakli aylanasisimon, soyaga chidamli, bo'yi 15–20 metrgacha bo'lgan daraxtdir. Ular ko'kalamzorlashtirishda nafaqat baland bo'yli daraxtlar tarzida, balki soyaga chidamliligi uchun o'zidan baland daraxtlar (dub, chinor, yasen, soforalar) soyasida ham yaxshi o'sa olish qobiliyatiga ega.

Zaranglarning past bo'yli turlari ham mavjud bo'lib, ularga tatar zarangi va unga yaqin bo'lgan Semenov zarangi, daryo bo'yi va Turkiston zaranglari kiradiki, bular o'zining o'ta soyaga chidamliligi tufayli parklar va yashil massivlarda ikkinchi qavat daraxtlari va tuproqni mustahkamlovchi daraxtlar hisoblanadi.

**Dala zarangi.** O'zbekiston shaharlarini ko'kalamzorlashtirishda keng qo'llanilgan daraxt bo'lib, balandligi 15–25 metrga etadi. O'ta manzarali, soyaga chidamli, qomatining shakli deyarli sharsimon, tanasi va shox–shabbalarining tuzilishi juda tig'is ko'riishga ega. Qirtishlab sun'iy shakl bersa bo'ladi, nisbatan sekin o'suvchi daraxt.

Bargi uchqir zarang–30 mgacha o'sadigan katta qomati keng, shox–shabbalari juda tig'is, barglari katta, to'q yashil, yaltiroq soyaga va O'zbekiston sharoitida sovuqqa chidamli daraxt. Namlikka va hosildor tuproqqa talabchan, quruq va sho'rxok tuproqni yoqtirmaydi. Ko'kalamzorlashtirishda dub daraxti bilan qo'shni tarzda uning soyasida joylashishi mumkin.

**Yavor zarangi.** Zaranglarning ichida eng manzaralisi, bo'yи 40 m, diametri 1 mga yetadigan yirik soya beruvchi daraxt. Tanasi tik, shox–shabbasi qalin tig'is, keng oval va piramida–yumaloq shakllarda. Barglari besh panjali chinor barglariga o'xhash, biroq to'q yashil tusda, fakturali ko'rinishda. Novdalari qo'ng'ir kul rang. Bu zarang aprel–may oylarida gullaydi, gullari yig'ilib shingilcha hosil qiladi, sariq–yashil rangga kiradi. Kuzda barglari yorqin qizg'ish–binafsha rangga kiradi. Sovuqqa childamsizroq, qisman soyaga chidamli, namlikka va hosildor tuproqqa talabchan. Toshkent, Samarqand, Andijon shaharlarida 100 yillik yavor zaranglari o'sadi. Ularni parklardagi yashil massivlarni, xiyobonlarni, shifoxonalar va dam olish sanatoriyalarini, namli va hosildor yerlarni ko'kalamzorlashtirishda qo'llash tavsiya etiladi. Qishloqlarga borish yo'llari va tuman shaharchalari ichidagi yo'llarni ko'kalamzorlashtirishda tavsiya etilmaydi.

**Madaniy zarang.** Bo'yи 30 mga etadigan katta daraxt. Shox–shabbasi qalin, keng yumaloq shaklda, barglari yirik panjali, besh bo'lakli, bo'laklarining uchi yumaloq–to'mtoq. Bu zarang barg yozishdan oldin–aprel oyida gullaydi, gullari sariq–yashil, ayrim jinsli bo'ladi.

Mevasi sentyabr oyida yetilib uzoqq vaqt daraxtda saqlanadi. Madaniy zarang yosh vaqtida tez o'sadi, asosiy ildizi yerga chuqur kirmaydi, biroq baquvvat yon ildizlari nihoyatda sertarmoq bo'ladi. Bu daraxt to'nkasimon ko'karadi, parxish yo'li bilan ko'payadi, u 150–200 yil yashaydi.

Madaniy zarang yaproQli va aralash o'rmonlarda va boshQa daraxtlar bi-lan birga o'sadi. Bargi va shox–shabbasining Qalin bo'lishi uning soyaga chidam-lilagini bildiradi. U er tanlaydi, sho'rtob tuproQda o'sa olmaydi. Nam tup-roQni xoxlaydi, Qurg'oQchilikka chidamsiz.

Madaniy zarang joylarni ko'kalamzorlashtirishda katta rol o'ynaydi, chunki uninng qizil bargi va yumaloq shox–shabbasi unga chiroqli tus beradi. O'rmon meliarastiyasi ishlarida ham muhim o'rinni egallaydi. Qatorlab ekishga, ihota o'rmon qatorlariga va ko'kalamzorlashtirish uchun ekishga tavsiya qilinadi.

***Qandli zarang.*** Bo'yi 40 m, diametri 1,5 mga etadi. Po'stlog'i kulrang, barglari uch bo'lakli bo'lib, uzunligi 14 sm, tub tomoni o'roqsimon tuzilgan. Guli qo'ng'iroq shaklda, bo'yi 5 mm, yashil sariq bo'lib, yig'ilib soyabonsimon to'pgul hosil qiladi. Mevasi qanotchali bo'lib, yong'oqchasi bilan birgalikda 4 sm keladi, tuksiz. Bu zarang urug'dan yaxshi ko'payadi. Ildiz tizimi yer yuziga yaqin joylashadi. Soyasevar daraxt. Kuzda barglari tiniq sariq, pushti, qizil rangga kirganda juda chiroqli ko'rindi. U 300 yil yashaydi.

Zarangning yana bir qancha turlari bo'lib, ular ko'kalamzorlashtirishda va o'rmon meliorastiyasi ishlarida hamda o'rmon xo'jaligining har xil tarmoqlarida keng qo'llaniladi. Ularning ko'pi Botanika bog'ida o'stirilib, sinovdan o'tkazilgan va o'rmonchilik hamda ko'kalamzorlashtirish ishlarida foydalanish uchun tavsiya qilinadi.

***Dala qayrag'ochi.*** Bo'yi 15–16 mga, diametri 60–70 smga yetadi. Tanasi sershox bo'lib, sharsimon shox–shabba hosil qiladi. Novdalari qo'ng'ir qizil, xira–rangda, ayrim shakllari qizil–sarg'ish rangda. Barglari oddiy tuzilgan, keng lansetsimon, yon tomonlari notejis. O'tkir uchli. Tubi yuraksimon, cheti ikki qator tishchali, yuz tomoni to'q yashil tuksiz, silliq yoki gadir–budir, orqa tomoni so'galli bo'ladi. Plastinkasining bo'yi 10 sm, eni 6 smga yaqin. Barg bandi ingichka, bo'yi 1 sm, tuksiz yoki tukli.

Dala qayrag'och qurg'oqchilikka va issiqliq chidamli, uni ko'cha va parklarga ekish tavsiya etiladi.

***Bujun qayrag'och.*** Bo'yi 25mga, diametri 40–50 smgacha bo'lgan daraxt. Tanasining po'stlog'i to'q o'ng'ir rangda, bo'yiga yorilgan. Shoh–shabbasi siyrak, oval yoki yumaloq shaklda. Shoxlari sariq–qo'ng'ir rangda.

Bu qayrag'och urug'dan yaxshi ko'payadi, ildizidan bachkilaydi. Qurg'oqchilikka chidamli. Uning shox–shabbasi ancha chiroqli. Uni joylarni ko'kalamzorlashtirishda, ayniqsa, qurg'oqchil hududlarda ekish tavsiya etiladi. Shaharlarda, parklarda uchraydi.

***Sa'da qayrag'och.*** Katta daraxt, shox–shabbasi keng, qalin piramida shaklida, po'stlog'i yorilgan, cheti qora rangda, barglari qalin, cho'zinchoq. O'rta Osiyoda tog' daryolari vodiysida o'sadi. U bog'larda, katta ariqlar bo'yiga ekiladi. Qurg'oqchilikka chidamli daraxt.

***Kavkaz qayrang'isi.*** Daraxt yoki buta o'simligi bo'lib, bo'yi 4–7 mga yetadi. Po'stlog'i silliq kulrang. Novdasi qo'ng'ir, qizil. Barglari qalin po'stli, tuxumsimon tishchali. Mevasi sentyabr–oktyabr oylarida yetiladi. U sariq–qizg'ish rangda. Hozir Ukrainada, Kavkazda va boshqa hududlarda o'sadi. U Toshkent Botanika bog'ida yaxshi o'smoqda, qurg'oqchilikka juda chidamli, suv kam bo'lgan yerkarni ko'kalamzorlashtirishda juda mos keladi.

***Ipak akastiya–akastiya shelkovaya.*** Bo'yi 10–12 smga, diametri 40 smga yetadi. Shox–shabbasi soyabon shaklda bo'lib, nihoyatda chiroyli. Shoxlari kulrang, yasmiqchalari ko'p, bir yillik novdalari yashil, mayda kulrang yasmiqchali, tuksiz. Barglari qush patsimon murakkab tuzilgan, lansetsimon, bo'yi 8–12 mm, eni 0,5–0,6 mm, har ikkala tomoni yashil, tuksiz. Mevasi yassi dukkak. Ipak akastiyaning tavsifli belgilaridan biri shuki, kechqurun quyosh botgandan keyin barglari yig'iladi va osilib turadi, ertalab kun yorishgach yana o'z holiga qaytadi.

Ipak akastiya tropik o'simligidir. U bizda keng tarqalmagan. Chunki yosh vaqtida qattiq sovuqdan zararlanadi. Bizning sharoitda qattiq sovuq kam bo'ladi, shuning uchun uni keng miqyosda ekish tavsiya qilinadi. Uni yakka–yakka yoki guruh–guruh qilib ekish maqsadga muvofiq.

***Gledichiya – tikon daraxt.*** Bo'yi 25–30 smga, diametri 0,7 smga yetadigan katta daraxt. Shox–shabbasi katta, yoyiq, siyrak, po'stlog'i silliq, qo'ng'ir–kulrang, yosh novdalari va shoxlarining po'stlog'i kulrang. Novda va shoxlaridagi barglari qo'lting'ida shoxlanib ketgan tikanlar bo'ladi, Barglari uzun bandli, novdalarining pastki qismidagilari juft patsimon, o'rta qismidagilari qush patsimon tuzilgan. Bargchalari mayda, oval shaklda, cheti tekis. Gledichiya may oyida gullaydi. Gullari kichik shingilsiomn to'pgul hosil qiladi. Ular mayda, tukli, gulqo'rg'oni yashil rangda, xushbo'y, nektarli bo'ladi.

Gledichiya tez o'sadi, 120 yil yashaydi. Yon va o'q ildizlari yerga 1,5 m chuqur kiradi, atrofga 20 m gacha tarqaladi. U ildizdan bachkilaydi va to'nkasidan o'sadi. Tanasidagi tinim holatidagi kurtaklardan bo'yi 15–20 smga yetadigan tikanlar o'sib chiqadi. Ular shoxlanib ketadi va tananing hamma qismini qoplaydi. Ularda barg va gullar rivojlanishi mumkin. Ayrim turlarida tikan mutlaqo bo'lmaydi. U har xil yerlarda o'sa oladi. Yorug'sevar, sovuqqa chidamsiz daraxt, janubiy tumanlarda va Markaziy Osiyo respublikalarida yaxshi o'sadi. O'rmon–dasht mintaqasida sovuqdan zararlanadi. Lekin tikansiz shakli sovuqqa biroz chidamli. Gledichiya ihota o'rmon qatorlarini barpo qilishda muhim ahamiyaga ega.

***Bunduk.*** Katta daraxt bo'lib, bo'yi 30 m, diametri 1 smga yetadi. Tanasi to'g'ri o'sadi, po'stlog'i tiniq kulrang, shox–shabbasi keng, yoyiq. Novdasi yo'g'on, ko'k–kulrang. Barglari qush patsimon, bo'yi 5 sm, eni 4 smga yetadi. Gullari to'g'ri, ko'p yig'ilib shingilcha hosil qiladi, oq–sariq rangda bo'lib, limon hidi kelib turadi. May oyida gullaydi. Bunduk urug'idan yaxshi ko'payadi, lekin urug'ini sepishdan oldin issiq suvda ivitish zarur. Ildizi baquvvat bo'lib, ular bir yilda 1 m. gacha o'sadi, to'nkasidan yaxshi ko'karadi.

Bunduk shimoliy Amerikada tarqalgan. Bizda manzarali daraxt sifatida parklarga ekiladi. U kech kuzgacha o'sadi, shuning uchun yog'ochlanmagan yosh novdalarini sovuq uradi. Bunduk yorug'sevar o'simlik. Unum dor tuproqli yerlarda yaxshi o'sadi. Qurg'oqchilikka chidamli. Issiqdan va havoning quruqligidan anchagina bargini to'kadi, suvni kam bug'latadi, bu uni qurib qolishdan saqlaydi. U joylarni va ko'chalarni ko'kalamzorlashtirishda ko'p ekiladi. U nihoyatda chiroyli daraxt.

**Bagryannik kanadskiy – kanada arg'uvoni.** Daraxt o'simligi bo'lib, barglari oddiy, keng, butun, o'yqli yoki ikki bo'lak, uchta yoki ko'p tomirli bo'lib tuzilgan. Yon bargchalari tangachasimon bo'lib, tez to'kilib ketadi. Gullari pushti rangda. Daraxti barg yozishdan oldin gullaydi, gullari yig'ilib, buyraksimon shingilcha hosil qiladi. Mevasi dukkak, cho'zinchoq, yassi-ezik, ingichka, ikki pallali. Bogryannikning 3 ta turi bo'lib, ular G'arbiy Yevropada, Osiyoda, Yaponiyada va Shimoliy Amerikaning mo'tadil iqlimli hududlarida tarqalgan. Markaziy Osiyoda uning bitta turi **Kanada bagryannigi** tarqalgan. Bo'yi 5–10 mgacha bo'lib, shakli oval ko'rinishida. Mart–aprel oylarida o'ta manzarali gullaydi. Novdasi silliq, qo'ng'ir rangda, barglari navbat bilan joylashadi. Ular oddiy, yumaloq yoki buyraksimon.

Bu daraxt sekin o'sadi, urug'idan ko'payadi. Manzarali daraxt sifatida Qrimda ko'p ekiladi. Sovuqdan qisman zararlanadi. Issiqla, quruqchilikka juda chidamli.

**Yapon soforasi–sofora yaponskaya.** Bo'yi 10–20 m, shox–shabbasi yoyiq, sharsimon, nihoyatda go'zal daraxt. Po'stlog'i katta yoshida bo'yiga yorilgan bo'ladi va qoramtilusga kiradi, shoxi va novdalarining po'stlog'i silliq va to'q yashil bo'lib, yasmiqchalari bor. Barglari navbat bilan joylashadi, to'q patsimon tuzilgan bo'lib, 7–17 ta tuxumsimon bargchalardan iborat.

Sofora iyun oyidan avgust oyigacha gullaydi, gullari oq sariq, kapalaksimon bo'lib, novdasining uchida shingil ro'vak hosil qiladi. U nektar chiqarib turadigan o'simlik. Dukkagi oktyabr oyida yetiladi, u daraxtda osilib turadi. O'q va yon ildizlari baquvvat bo'lib rivojlanadi, to'nkasidan ko'karadi. Daraxt tarkibida zaharli modda bor, ammo undan hayvonlar zararlanmaydi.

Sofora yorug'sevar o'simlik, yer tanlamaydi, sho'rtob tuproqda ham o'saveradi, qurg'oqchilikka chidamli. Chiroyli gullaydi. Tuproqni yomg'ir yuvib ketishdan saqlash uchun uni qiyaliklarga ekish muhim ahamiyatga ega. Ko'kalamzorlashtirish ishlarida keng qo'llash tavsiya etiladi.

**Qayin.** Daraxt yoki buta o'simligi bo'lib, tanasi va shoxlarining po'stlog'i silliq, oq va jigar rangda bo'lib, yupqa po'st tashlab turadi. Tanasining tubidagi po'stlog'i bo'yiga ingichka yoriladi, rangi qorayadi. Kurtak va barglari navbat bilan joylashadi. Barglari oddiy tuzilgan bandli, tez to'kiladigan yonbargchalari

bor, kuzda to'kilib ketadi. Barg plastinkasi butun, yumaloq va lanset shaklida, cheti tishchali, patsimon tomirlidi.

Qayin erta bahorda gullaydi va shu paytda barg ham yozadi. Mevasi yetilganda o'rama tangachasi dag'allashadi. Ildizi yuza joylashadi. To'nkasidan ko'karadi, katta yoshida bu xususiyati yo'qoladi. Qayin 40 yoshgacha yaxshi o'sadi, so'ng o'sishi susayadi. U 100–120 yil yashaydi, ko'kalamzorlashtirishda ko'p ekiladi, chunki chiroyli manzarali daraxt.

**Go'zal katalpa-katalpa krasivaya.** Katta daraxt bo'lib, bo'yи 25–30 m, diametri 1,5 mغا etadi. Tanasi tik o'sadi, shox-shabbasi piramida shaklida yoki keng. Tanasi va shoxlarining po'stlog'i qizil-qo'ng'ir. Bo'yiga enli yorilgan. Barglari keng-oval shaklida, goho cho'ziq, bo'yи 15–30 smga yetadi, uchi o'tkir, tubi to'mtoq, cheti tishchali. Yuz tomoni tiniq yashil, tuksiz, orqa tomoni sertuk hidsiz.

Katalpa juda chiroyli o'simlik, u parklarga va ko'chalarga ko'p ekiladi. Chiroyli daraxt bo'lganidan ko'kalamzorlashtirishda ko'p ekiladi.

**Magnoliya.** Magnoliya barglari doim yashil yoki to'kilib turadigan nihoyatda go'zal daraxtdir. Uning bo'yи 25–30 mغا yetadi. Barglari oddiy, cheti tekis bo'ladi. Gullari bittadan, yirik, diametri 10–25 smga yaqin, oq yoki pushti, nihoyatda xushbo'y. Gulqo'rg'onda barglari 8–12 ta bo'lib, har qaysi doirasida 3 tadan joylashadi. U shimoliy Amerikadan keng tarqalgan. Bizning sharoitimidza magnoliya qurg'oqchilikdan va qishki sovuqdan zararlanadi. Magnoliya chiroyli daraxt bo'lganligidan respublikamizning janubiy tumanlarida turar joy kvartallarini bezash uchun ekish maqsadga muvofiqdir.

**Lola daraxti-tyulpannoe derevo.** Bo'yи 40 mغا, diametri 2 mغا yetadigan daraxt, shox-shabbasi oval yoki keng piramida, konus shaklida. Novdalari qo'ng'ir kul rangda, ikki yoshidan boshlab, oqish po'st tashlab turadi. Barglari odiiy lirasimon shaklida, yashil zangori rangda, navbat bilan joylashadi. Gullari lolaning gultojisiga o'xshaydi, bo'yи 5 sm, och sariq yoki pushti yashil rangda. Mevasi qubba shaklida bo'lib, kuzda yetiladi. Kuzda barglari sarg'ayib to'kiladi. Bu daraxt 250 yil yashaydi. May oyida gullaydi, tez o'sadi, muntazam sug'orib turishga va yaxshi tuproqqa muhtoj. Sovuqqa chidamli.

Lola daraxti nihoyatda chiroyli daraxt bo'lganligi uchun ko'kalamzorlashtirishda keng qo'llaniladi.

**Qora qayin.** Qora qayin baland bo'yli daraxt bo'lib, shox-shabbasi keng tuxumsimon shaklida. Kurtakalari duksimon bo'lib, bo'yи 1,5 sm, jigar rangda, tangachalari cherepistasimon. Barglari navbat bilan joylashadi, oval, tuxumsimon, butun, patsimon, tomirlangan, plastinkasining cheti kiprikli.

Qora qayin yoshligida sekin o'sadi. 40–60 yoshidan boshlab tez o'sa boshlaydi. Ildizi baquvvat bo'lib, yerga chuqur kirmaydi. Soyaga chidamli daraxt,

shox-shabbasi qalin bo'lib, yorug'ni o'tkazmaydi. Ular mo'tadil iqlimli viloyatlarda tarqalgan. Unumdar yerda yaxshi o'sadi. Juda chiroyli daraxt bo'lганligidan parklarga ekish tavsiya etiladi.

**Aylant yoki xitoy shumtoli.** O'zbekistonga introdukstiya qilingan. Aylant daraxti qish sovuqlariga bardosh beradi va yirik daraxtga aylanadi, 20–30 m balandlikkacha o'sadi. Barglari patsimon, 41 donagacha bargchalari mavjud bo'lib, barg bandi 1,0 mgacha bo'lishi mumkin.

Iyun oyida gullaydi, gullari sariq-yashil to'plam ko'rinishida, 2 jinsli. Mevasi sentyabrda pishgib yetiladi va daraxtda bahorgacha to'kilmay turadi. Aylantning vatani Xitoy va Yaponiyadir. O'zbekistonda XIX–asrdan boshlab ekilmoeqda, ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanadigan daraxt turi hisoblanadi. Sovuqqa chidamsiz, MDH ning Kavkaz, Qrim, janubiy Ukraina, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan, qurg'oqchilikka, gazga chidamli.

**Gingko bilova.** Gingko bilova monopodial tipda shoxlanadigan siyrak shoxshabali daraxt, bo'yi 30–40 m, diametri 1,5–4,5 m, qobig'i oqish, kulrang tusda. Novdasi uzun, shoxchalari kalta, oqish kulrang. Kurtagi konussimonshaklda, qo'ng'ir rangda.  $-30^{\circ}\text{S}$  gacha sovuqqa chidaydi. Gingko urug'idan va qalamchaside, to'nka-sidan bachki novda chiqarib ham ko'karadi. Kavkazning ko'p tumanlarida qator qilib ekilib, xushmanzara daraxt sifatida foydalaniladi. U o'rtacha iqlimda, havosi sernam mamlakatlarda ekilsa, yaxshi o'sadi. Ayrim joylarda 2000 yoshga kirgan tuplari uchraydi.

**Skumbiya.** Turkumning vakillari bo'yi 4,5 metrga yetadigan butta yoki kichik daraxtdir. Shoxlarining po'stlog'i ajralib turadi, novdalari yashil, shoxlari tiniq kulrangda, ular zararlansa, hidli shira chiqaradi. Barglari oddiy bo'lib, navbat bilan joylashadi. Cheti butun, tuxumsimon yoki yumaloq shaklda, bandi uzun, yuz tomoni to'q yashil, orqa tomoni yashil, kuzda qizil rangda kiradi. Gullari mayda, sariq, yashil. Iyun oyida gullaydi, gullari yig'ilib to'p gul hosil qiladi. Gullab bo'lgach gulbandi uzayadi va unda qizg'ich yoki yashil tuklar paydo bo'ladi. Mevasi avgust–sentyabr oylarida yetiladi. Baquvvat ildiz otadi, ko'pincha ildizi yuzada joylashadi, uning po'stlog'i sariq rangda. Asosiy turi bo'lган skumbiya soyada o'sa oladi. Sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli, yer tanlamaydi, lekin ohakli tuproqda yaxshi o'sadi. Skumbiyaning bargida 15–25 % tannidoshlovchi modda bor. Skumbiya manzarali o'simlik sifatida ekiladi. O'rmon meliorastiyasi ishlarida skumbiya katta o'rin tutadi. Joylarni ko'kalamzorlashtirish uchun ekish tavsiya etiladi.

**Grek yong'og'i.** Bo'yi 25–30 m ga, diametri 1–2 m ga etadigan daraxt. Shox-shabasi keng, sharsimon. Shox va novdalarining po'stlog'i silliq, oqqish po'st tashlab turadi. Barglari to'q patsimon, bo'yi 40 sm gacha yetadi, 7–9 ta

bargchalari bor, uchidagisi eng yirik, tubidagisi ancha mayda bo'ladi, barglari hidli efir moyi chiqarib turadi. Barg yozish bilan bir vaqtida (aprel oyida) gullaydi.

Yong'oq urug'idan yaxshi ko'payadi. Ekishdan oldin urug'ini stratifikatsiya qilish zarur. Ildizi yog'on o'q ildiz bo'lib, yerga chuqur kirib borpadi. To'nkasidan, parxish yo'li bilan ham ko'payadi. Uni yashil qalamchadan ko'paytirish mumkin, lekin sekin ko'karadi. U tez o'sadi, 400 yil yashashi mumkin. Sovuqqa chidamsiz. Hozir uning sovuqqa chidamli navlari chiqarilmoxda. Yong'oq yorug'sevlar o'simlik, tuproq tanlaydi, unumdar va ohakli yerlarda yaxshi o'sadi. Yong'oq daraxti ko'kalamzorlashtirish maqsadida va mevali daraxt sifatida bog'larda juda ko'p ekiladi.

**Oddiy chetan.** Bo'yi 5–15 m ga yetadigan daraxt, ba'zan buta. Tanasining po'stlog'i silliq, shox–novdalari tukli, barglari to'q patsimon, 9–15 bargchali, tiniq yashil rangli. May–iyun oylarida gullaydi, gullari oq, xushbo'y bo'lib, yig'ilib to'pgul hosil qiladi. To'pguli kalta novdalarning uchida joylashadi. Unumdar yerda yaxshi o'sadi. Tog' qiyaliklaridagi toshli yerlarda ko'p uchraydi. Sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli.

Oddiy chetan o'rmon melliorastiyasida foydali daraxt, ixota o'rmon qatorlarida pastki yarusda yaxshi o'sadi. MDH da o'rmon, o'rmon–dasht mintaqasida hamda Qrimda, Kavkazda tarqalgan. U yana Shimoliy va O'rta Evropada, Bolqon mamlakatlarida hamda Kichik Osiyoda o'sadi. Havoning quruqligidan zararlanmaydi.

**Antirka shumurti.** Bo'yi 8–10 m li daraxt, ba'zan buta tanasi va novdalarining po'stlog'i silliq, katta yoshida bo'yiga yorilgan bo'ladi. Shoxlari ingichka, novdalari qo'ng'ir kulrang, barglari tiniq yashil, yatiroq, keng tuxumsimon. Bu shumurt barg yorishdan oldin yoki u bilan bir vaqtida aprel oyida gullaydi. Gullari shingilsimon bo'lib, kalta shoxlarining ichida joylashadi. Ular mayda xushbo'y hidli, mevasi sharsimon, diametri 8–10 mm, avval sariq–yashil, keyinroq qizil, yetilish oldidan qora rangga kiradi. Danagi silliq, tuxumsimon. Mevasi nordon va achchiq. Ularni qushldar yaxshi iste'mol qiladi. Ukrainianing g'arbiy viloyatlarida, Moldaviyada, Qrimda, Kavkazda va O'rta Osiyoda yovvoyi holda o'sadi.

Antirka shumurti manzarali daraxt sifatida ekiladi. Bundan tashqari unga olcha yoki gilos payvand qilish mumkin. O'rmon-dasht va dasht mintaqalarida sovuqqa chidamli, yer tanlamaydi. Qumli va sho'rtob tuproqli yerlarda o'sa oladi. Ildizidan bachkilaydi. Qurg'oqchilikka, kasallik va hasharotlar ta'siriga chidamli. Uni ixota o'rmonlari qatoriga, o'rtacha soya yerlarga ekish mumkin. Shumurtning yana: R. Serotina, R. Maasku, R. Virginiana, R. Pensyivanika turlari diqqatga sazovordir. Ular selekstiya ishida katta ahamiyatga ega.

**Oqtol.** Boshqa tollar ichida eng kattasidir. Bo'yi 30 m diametri 2 mga yetadi. Po'stlog'i kulrang, bo'yiga yorilgan bo'ladi. Shox shabbasi keng va yumaloq, kurtaklari yotiq, tukli. Novdasi ipaksimon tukli, shoxlari esa tuksiz. Barglari lansetsimon tuzilib, cheti mayda tishchali, o'tkir uchli bo'lib, asosiy tomonlari yonida ipaksimon tuklar bor. Ular yozning o'rtalarida to'kilib ketadi, biroq pastki tomonida biroz saqlanib qoladi. Oqtol barg yozish bilan bir vaqtda yoki biroz keyinroq gullaydi. Gullari kuchala hosil qilib, siyrak joylashadi, gulpoysi tukli uning tubida kulrang bargchalar bor.

Bu tol daryo qirg'oqlarida, ko'l bo'ylarida, botqoq yerlarda o'sadi, ko'p yerlarda ekiladi. Oqtol qurg'oqchilikka, issiqqa va suvuqqa hamda tuproqning sho'rida chidamli, chiroyli daraxt. Shaharlarda aholi yashaydigan deyarli hamma joylarda ko'p ekiladi. Uning majnuntol singari shakllari bo'lib, ular ko'kalamzorlashtirish uchun juda mos keladi. Uni istirohat bog'larida, suv havzalari bo'yiga ko'p ekish tavsiya etiladi.

**Majnuntol.** Bo'yi 8–10 m, diametri 50–60 sm bo'lган daraxt. Shoxlari uzun, ingichka bo'lib, ko'pincha pastga osilib turadi. Novdasi sariq-yashil yoki qizg'ish rangda. Kurtaklari mayda, o'tkir uchli, yashil Qo'ng'ir rangda barglari tor lansetsimon, bo'yi 10–16 sm, eni 1–1,5 sm, uchi o'tkir, cheti mayda tishchali, ayrim vaqtarda tishsiz butun yosh novdasidagi barglari tukli, yuz tomoni tiniq yashil, yaltiroq, orqa tomoni oqish yoki zangori rangda.

Manzarali o'simlik sifatida ariqlar, hovuzlar bo'yida ko'p ekiladi. Shoxshabbadasi egilib o'sganligidan juda chiroylidir. Uning yana bir turi Xitoydan keltirilgan matsudan tolidir. Uning barglari to'q-yashil rangda bo'lib, shoxshabbadasi pastga osilib o'sganligidan nihoyatda chiroyli.

**Qoraterak.** Bo'yi 30 m, diametri 1,5 m, shox-shabbasi keng, piramida va tuxumsimon daraxt bo'lib, tanasi bitta yoki shoxlangan bo'ladi. Shoxlari kul yoki novvoti rang. Barglari tuxum yoki deltasimon, bo'yi 3–5 sm, eni 3,5 sm, eni 3,5 sm, o'tkir uchki, cheti tishchali, bargi bandli, bir oz tukli. Novdasi yumaloq, sariq, pushti, yashil, bir oz kalta tuklari bor yoki tuksiz.

Suv bosishiga va sovuqqa chidamli. Qora terakning ko'p xili bo'lib, ular barg plastinkasining tuzilishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Qoraterak urug'dan hamda qalamchadan yaxshi ko'payadi, tez o'sadi. Kuchsiz sho'rtob tuproqli yerlarda o'sa oladi.

**Mirzaterak.** Baland bo'yli daraxt bo'lib, bo'yi 40 m, diametri 1 m, shoxshabbasi piramidasimon shaklda. Shoxlari yumaloq, yashil-kul rang, bargi romb shaklida bo'lib, uchburchakka o'xshaydi. Barg bandi 2 sm uzunlikda, tuksiz. Bargning bo'yi va eni 5–7 sm, keng uchburchaksimon, tubi keng ponasimon, kalta o'tkir uchli, cheti tishchali, yuz tomoni yashil, orqasi och sariq.

Bu terak qalamchadan yaxshi ko'payadi. Tez o'sadi. Shurtoqli yerlarda ham o'sadi, issiqqa va qurg'oqchilikka chidamli. Juda chiroyli daraxt. Aholi yashaydigan joylarni ko'kalamzorlashtirishda juda katta ahamiyatga ega.

**Chakanda (jirg'anoq).** Kichik daraxt yoki buta o'simlik bo'lib. Bo'y 6–8 m, diametri 20–30 sm keladi. Tanasi va novdalarning po'stlog'i sariq–qo'ng'ir yoki qora. Ko'p bo'g'imli novdalari zikh tikan bilan tugaydi.

Jirg'anoq erta bahorda (aprel–may oylarida) barg yozishdan oldin yoki bir vaqtda gullaydi. Mevasi soxta danakcha, pushti novvoti yoki qizil rangda sentyabr oyida yetiladi.

Chakanda daryo, ko'l va dengiz qirg'oqlarida o'sadi. Tog'li hududlarda dengiz sathidan 1000–1500 m balandlikka ko'tariladi. Terakzor va tolzorlarda o'sadi. U yorug'sevar, sovuqqa havoning quruq kelishiga chidamli. Har xil tuproqli yerlarda o'sa oladi.

U parklarda manzarali o'simlik sifatida ko'p ekiladi, ayniqsa kuzda mevasi yetilganda go'zal manzara hosil qiladi.

**Maklyura.** Maklyuraning vatani Shimoliy Amerika bo'lib, yaxshi sharoitlarda 20 m balandlikka ega daraxt bo'lib, barglari tekis tuxumsimon shaklda och–yashil, yaltiroq. Barg qo'lltig'ida uchli ingichka 2 sm uzunlikda tikanlari bor, may–iyun oyida gullaydi, gullari sharsimon gul to'plamidan iborat. Mevasi sentyabr–oktyabr oyida pishib yetiladi. Iste'mol qilish uchun yaramaydi. Urug'lari bahorda ekilganda yaxshi unib chiqadi, sovuqqa o'rtacha chidamli, sho'rangan yerlarda o'sishi mumkin. Qurg'oqchilikka chidamli, ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladi.

### ***Tirmashib va chirmashib o'suvchi o'simliklar–lianlar***

Chirmashib va tirmashib o'suvchi o'simliklar–“lian”lardan foydalanish ham O'zbekistonda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Biroq, ularni qishloq aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirishda qo'llash hozirda keng tus olmagan. Masalan, bunday o'simliklarni bolalar bog'chalarida, xususiy hovlilarida, maktablarda, bog'–parklarda, jamoat binolari hovlilarida qo'llash foydadan holi emas. Bunday o'simliklar qatoriga O'zbekistonda amur toki, yapon toki, beshbargli devichiy vinograd, xitoy glistiniyasi, yapon jimolisti, jimolost kaprifol, klematis, plyush, tekoma va boshqalar kiradi.

Tekis maysazorlar ustida turli shakladagi qalinroq sim yoki yog'och tirgaklarga chirmashib o'suvchi atirgullar, jakman klematisi, jimolost–kaprifollar manzarasi kishiga zavq bag'ishlaydi. Daraxtlar ostidagi soyalik joylarda plyushdan maysa, quyosh nuri tushadigan maydonlarda esa puerariya, Vixurayan atirguli, amur toki, klematisdan ekib dekorativ maysazorlar hosil qilish mumkin. Binolar devorlarini yashil o'simliklar bilan bezashda, panjarali to'siqlarni, yopiq

xiyobonlar, shiypon va ishkomlarni ko'kalamzorlashtirishda tirmashib va chirmashib o'suvchi lianlarning roli katta.

O'zbekistonda dam olish o'rnlari va maydonlarini ko'kalamzorlashtirishda, ishkom, voish, soyabonlarni yaratishda madaniy tokning o'rni beqiyos. Umuman ustakor bog'bonlarning bu sohadagi fantaziyalari cheksiz. Bu maqsadda ular yovvoyi toklar, vinogradovniklar, tekoma (kampsis), chirmashuvchi atirgullar, puerariya, glistiniyalardan keng foydalanishi.

### ***Maysalar va er yopar o'simliklar***

**Maysazor**—bu tabiiy yoki sun'iy tarzda yaratilgan, ajir maysa o'tlar bilan yopilgan yashil maydondir. Maysazorlar funkstiyasi va ahamiyatiga qarab ikki xil: manzaraviy va maxsus maysazorlar guruhiga bo'linadi.

Manzaraviy maysazorlar guruhiga parter maysazorlar, o'tloq, ya'ni lugovoy maysazor va chiroyli gullovchi ko'p yillik va mavritan maysazorlari kiradi. Maxsus maysazorlar guruhiga sport maydonlarining maysazori, magistral ko'chalarda transport va piyodalar harakatini ajratuvchi turotuarlar bo'y lab ekiladigan maysazorlar, qiyaliklar va qirlarni mustahkamlovchi maysalar, qabriston maysazorlari va hokazolar kiradi.

Parter maysazorlar, odatda, tekis bo'lib, park va bog'lar oldilari va boshqa tantanali joylarni ko'kalamzorlashtirishda hamda gulzorlar fonini tashkil etuvchi maysalardir. U o'ta sifatli, o'tlari barxatsimon, rangi bir xilda, yuzi tekis, bo'yi pastqam, barglari tig'is bo'lishi shart.

O'tloq ko'rinishli, ya'ni lugovoy maysalar keng maydonlarni egallaydi. Ularni, odatda, parklar, o'rmonzor parklar (lesoparklar), lugoparklarning keng yashil maydonlarini va peyzajli qismlarini ko'kalamzorlashtirishda qo'llashadi.

Ko'p yillik chiroyli gullovchi maysazorlar maysazor foniga guruh-guruh bo'lib ekilgan manzarali o'tloqlardan tashkil topadi. Mavritan maysazori esa bir yillik gullovchi mitti o'simliklarning boshoqli maysa o'tlari bilan aralashmasidan iborat. Bunday maysazor ustida odatda turli rangdagi mitti gullar doimo o'sib turadi. Biroq ular maydonning ko'pchilik qismini egallamaydi. Maysazorlar ikki xil uslubda: maysa tuxumini ekish va chimlashtirish orqali yaratiladi. Tekis joylarni maysalashtirishda maysa tuxumini ekish uslubi, qiya va qirlik joylarni maysalashtiirishda esa chimlashtirish usuli qo'llanadi. Maysa tuxumi yaxshi tayyorlangan tekis tuproqqa sentyabrdha, oktyabr boshlarida yoki erta bahorda - fevralning oxiri martning boshlarida ekiladi. Ekilishi me'yori 1 kv m maydonga 10-12 gramm. Maysa ekilgan joy boshlang'ich ikki-uch hafta davomida muntazam sug'orilib turiladi. Parter tipidagi maysalar har 2 haftada, lugovoy maysalar esa har oyda bir marta qirtishlab turiladi.

Maysa o'simliklarga O'zbekistonda asosan kanada gren, raygras pastbishniy, ovsyanista lugovaya, palchatnik, myatnik lugovoy qo'llaniladi. Hozirgi vaqtida

maysalar tuxumi magazinlarda muxsus upakovkalarda sotiladi. Upakovkalar ustiga ularni ekish qoidalari va me'yorlari yozib qo'yiladi.

Maysalar o'rniga ko'p hollarda yeryopar o'simliklardan ham foydalaniladi. O'zbekistonda o'sadigan yeryopar o'simliklarga kichik barvinok, hind dyusheni, sedum, o'tsimon gvozdika, fartulak, zemlyanika lesnaya, yapon ofiyapageni, floks shilovidniylar kiradi.

## 7–ilova

### **GAZLAR, CHANG–TO'ZONLAR, SHOVQINDAN HIMOYALANISH, SHAMOLNI TO'SISH VA SHO'RHOK TUPROQLARDA EKISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN DARAXT VA BUTALAR**

**Sho'rxok tuproqlarga chidamli daraxt va butalar:** solyankalar, chingil, grebenshik, saksaul, milnoe derevo kabi o'simliklar xlorli sho'r tuproqda o'sa olish qobiliyatiga ega. Yasen, lipa, lavr blagorodniy, maslina yevropeyskaya kabilar hatto izvestli tuproqqa talabchan daraxtsimonlardir. Aylant (xitoy yaseni) esa neft bilan ifloslangan tuproqda ham o'sa oladi. O'simliklarni ekishda tuproqni yaxshilash imkonи bo'lmasa, eng to'g'ri yo'l bu shu tuproqqa mos keluvchi o'simlikni tanlashdir.

**Shovqindan himoyalanish uchun ekishga tavsiya etilgan daraxt va butalar:** klen ostrolistniy, oddiy vyaz, mayda bargli lipa, oddiy yel, listvennista sibirskaya, jimolost tatarskaya, sariq akastiya, sibir boyarishniklari.

**Gazlardan himoyalanish uchun ekishga tavsiya etilgan daraxt va butalar:** klyon pensilvanskiy, leshina, kashtan konskiy, manchjurskaya, gledichaya tryoxkolyuchkovaya, topol seriy va chyorniy, topol kanadskiy, oq akastiya, biota, shelkovista belaya, mojjevelniki virginskiy, kazastkiy, oddiy biryuchina, lipa voylochnaya va boshqalar.

**Changlardan himoyalanish uchun ekishga tavsiya etilgan daraxt va butalar:** vyaz peristovetvistiy, iva belaya plakuchaya, kashtan konskiy, kulrang klyon, klyon tatarskiy, polevoy, topol kanadskiy, topol bolle, shelkovista belaya, yasen zelyoniy i obiknovenniy, akastiya jeltaya, oddiy biryuchina, lox uzkolistiy, spireya Van–Guttalar.

**Shamolni to'sish va hududni soyalashtirish maqsadida tanlanadigan daraxtlar:** dub obiknovenniy, kashtan konskiy, klyon ostrolistniy va polevoy, oddiy yel, dub chereshchatiy, gledichiya, magnoliya, maydabargli lipa va boshqalarni tanlash tavsiya etiladi.

## GLOSSARIY (asosiy atamalar lug'ati)

**Abris** – daraxt yoki butaning, narsaning chiziqli konturi.

**Agraf** - XVII-XVIII asrlarda bog' parterlarini bezashdagi ma'lum uslubga oid o'simliksimon ohang. Odatda, bargalar, shox – shabbalar, gulbarglar ko'rinishida bo'lib, parterning bir nuqtasidan boshlangan.

**Ajuriyasimon** - siyrak bargli, to'rsimon shox-shabba.

**Akvarium** - baliq yoki boshqa suv jonzotlari va o'simliklari parvarish qilinadigan va tomosha qilinadigan maxsus shisha idish, sun'iy havza yoki shaffof devorli maxsus bino.

**Akveduk** - uzoq suv manbalaridan oqizib suv keltirishga mo'ljallangan inshoot, osma quvur yoki ravoqli suv ko'prigi. Suv quvuri ustidan ayrim hollarda odamlar uchun yo'l ham ishlangan. Oddiy akveduklardan bog'-saroylar hududini sug'orishda ham keng foydalanilgan.

**Akvodizayn** - suv inshootlari dizayni, ularni chiroyli, foydali va mustahkam, ayni paytda, shinam va tejamli qilib ishlash va loyihalash.

**Akstent** - manzaraning biron joyi yoki detaliga urg'u berish, kishi e'tiborini alohida qaratish maqsadida qo'llaniladigan badiiy me'moriy uslub. Detal yoki muhitga alohida farq qiluvchi holat, shakl o'lcham yoki rang berish, uni yorug'lantirish va bo'rttirish orqali erishiladi.

**Alpinariya** - bog' yoki parkning baland tog'larga xos o'simliklar o'stiriladigan maxsus qismi, odatda toshloq yoki qir ko'riishida ishlanadi.

**Ampel o'simliklari** - chirmashib va osilib turuvchi poyali o'simliklar. Besedkalar va shiypoplarni bezashda ishlatiladi.

**Amfora** - parklarni bezashga mo'ljallangan ko'zasimon qo'shquloq sopol idish.

**Ansambl** - yaxlit badiiy estetik shaklda yaratilgan majmua. O'zaro funksional bog'langan inshootlar, o'simliklar va boshqa landshaft elementlarining yaxlit bir uyg'unlashtirilgan me'moriy omuxtasi.

**Anfilada** – xonalar, zallar qatori. Landshaft arxitekturasida bitta o'qda joylashgan bir-biri bilan o'tish yo'llari bilan bog'lanib turuvchi alohida yashil yopiq fazoviy hovlilar qatori.

**Arboretum** – dendrologik bog’ bo’lib, har xil iqlim zonalaridan keltirilgan o’simliklarni iqlimlashtirish uchun mo’ljallangan.

**Arxitektura** - qurilishda shakl va mazmun hamda hajmlar uyg’unligiga erishish san’ati. Jamiyatning moddiy madaniyati va san’atini o’zida yaxlit tarzda mujassamlashtira olgan inson ijodining mahsuli - me’moriy asar.

**Arxitektaraviy bog’** - bog’ imoratlari va boshqa sun’iy yaratilgan inshootlar ko’plikni tashkil qilgan va muayyan kompozistiya asosida yaratilgan bog’lar turi.

**Assortiment** - muayyan joy yoki landshaft obyektini ko’kalamzorlashtirishda qo’llanildagina turli xil daraxtlar, butalar va gullar to’plami.

**Arabeska** - bog’- parkchilik san’atida handasaviy shakllar, barg, gul, shoda va shu kabilarning tasviridan tarkib topgan murakkab naqshli gulzor, parter yoki to’shamma. Dastlab arab arxitekturasiga xos bezak bo’lganligidan shunday nom olgan.

**Aranjirovka** - guldasta, guldon, savat, gul, marjon, gulchambarlardagi gullar va barglarni o’zaro moslab, uyg’un joylashtirish san’ati.

**Arxitekturaviy - landshaft ansamblı** – tugallangan kompozistion va funkstional arxitekturaviy – landshaft obyekti.

**Atriy, atrium** - Qadimgi yunonlar yoki rimliklar uylarining o’rtalik qismida joylashgan va uy xonalaridan chiqiladigan yopiq ichki hovli. Atrium markazida hovuz (iplyuviy) va uning ustida yomg’ir suvlari oqib tushadiigan tuynuk (komplyuviy) o’rnatilgan.

**Axa** - bog’ yoki prakning atrof-muhit landshaftini ko’rishga to’siq bo’lmaydigan chegarasi: bog’ chegarasi bo’ylab o’tib bo’lmaydigan chuqur qazish va uni ko’kalamzorlashtirish orqali erishilgan. XVIII-XIX asr bog’larida to’siq vazifasini bajargan uslub Angliya “Xa-xa”, Rossiyada “Ax-ax” yoki “axa” deb nomlangan. Bog’ manzarasi go’zalliklaridan zavqlanib borayotgan kishilar ko’z oldida favqulodda sersuv kanal paydo bo’lganda, ular bexosdan “ax-ax” deb yuborishgan. Aytishlaricha, bu uslubning nomi shundan kelib chiqqan.

**Aerosolyariy** – maydoncha bo’lib, ochiq havodagi va quyosh vannalari uchun mo’ljallangan.

**Banzay, bansay** - mo’jaz daraxtlarni o’stirish san’ati. Ilk bor Yaponiyada vujudga kelib, mo’jaz bog’lar yaratishda keng qo’llanilgan.

**Barokko** - Italiyada keyinchalik G'arbiy Yevrupada XVI asr oxiridan to XVIII asr o'rtalarigacha keng tarqalgan serhasham badiiy uslub. U o'zining kontrastligi, shakllarning o'ynoqligi, harakatchanligi, hissiyotlarni qo'zg'atuvchanligi, serhashamliligi bilan ajralib turgan. Barokko uslubidagi bog'lar o'zining ana shu tomonlari bilan boshqa bog'lardan farq qilgan.

**Belveder** – minora yoki balandroq joyda qurilgan uncha katta bo'limgan imorat bo'lib, u yerdan atrof muhitni ko'rish mumkin.

**Berso, bindaj** - yarim doira shaklidagi ravoqli sinchlar yordamida usti daraxt shox-shabbalari bilan yopilgan soyali xiyobon; ana shunday ravoqli yopiq xiyobon bilan aylantirilgan bog' va parklarda qo'llanilgan.

**Bosket** - tig'iz daraxtlar yoki butalardan tuzilgan va yashil to'siq bilan chegaralangan xolis keng joy. Barokko bog'lari ichidagi ana shunday yopiq yashil xolisona muhitlar "kabinet"lar yoki "yashil zal" lar deb nomlangan.

**Bordyur** - bog'lar va parklarda gulzorlar yoki parterlarni chegaralab turuvchi pastqam ingichka yashil hoshiya, jiyak.

**Botanik bog'** - botanika o'simlikshunoslik va ko'kalamzorlashtirish sohalarini o'rganish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, madaniy-oqartuv ishlarini olib borishga mo'ljallangan ishl massiv, bog'.

**Boulingrin**- "kengli" o'yiniga mo'ljallangan o'rtalik qismi yassi chuqurcha tarzida ishlangan maysazor. Barokko bog'lari va parklarida qo'llanilgan.

**Bulvar** - ko'chalarning yon tomoni yoki ikki yoniga, sohil bo'ylab piyodalar harakati, dam olishlari va sayr qilishlari uchun keng ko'kalamzor xiyobon.

**But** – qurilish toshi bo'lib, asos va fundament qurishda ishlatiladi.

**Bo'stonsaroy**- saroy atrofidagi obod bog', Samarqand qal'asidagi Ko'ksaroy, shahrisabzdagi Oqsaroy atrofidagi ajoyib bog'lar.

**Veranda** – uyga yonma – yon qurilgan tomi yopiq, ochiq yoki oyna bilan o'ralgan galereya bo'lib, u yerda gullar o'stirish mumkin.

**Vertikal ko'kalamlashtirish** – ko'kalamlashtirish turi bo'lib, lian va qirqilgan daraxtlardan foydalanilib, uning asosiy maqsadi – bino fasadi va devorlarini bezash, issiqdan, chang, shovqindan saqlash va h.k.

**Vertograd** – Qadimgi rus bog'inining nomlanishi.

**Viaduk** – tog' darasi, chuqur jarliklardan o'tish uchun mo'ljallangan qurilma

**Viridariy** - monastir yoki turarjoy ichida joylashgan ko'kalamzor ochiq hovli, mo'jaz bog'. U odatda to'g'ri burchakli handasaviy rejali klumba gullariga ega, markazida favvora yoki hovuz joylashgan.

**Voler** – katta qafas, pavilon yoki maydon bo'lib, atrofi setka bilan o'ralib, hayvon va qushlar uchun mo'ljallangan.

**Galereya** – ingichka yopiq xona bo'lib, bino qismlarini birlashtiradi hamda bino bo'yicha uzun balkon.

**Garmoniya** - me'moriy shakllar yoki landshaft elementlarining o'zaro uyg'unligi, bir-biriga monandligi, muvofiqligi, badiiy jihatdan mosligi (handasaviy shakllar, ranglar, hajmlar garomniyasi va hokazo).

**Geoplastika** - landshaft loyihasi yoki ko'kalamzorlashtirishga mo'ljallangan yer maydonini me'moriy va badiiy qayta ishlash maqsadida tekislash va tartiblashtirish.

**Germa-bog'** haykal yoki byust bilan tugallangan to'rt qirrali ustun. Park haykaltaroshligida keng qo'llanishga mo'ljallangan.

**Geroon** – memorial haykalzor hisoblanadi, ya'ni unitilmaydigan daraxtlar.

**Gloriet** - parklarda odatda tepalik yoki perspektivasi tugal joylarga qo'yilgan ochiq ustunli ochiq pavilon shaklidagi uncha katta bo'lмаган imorat. Ilk bor Fransiyada XVII asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan.

**Grot** - qoyalardagi tabiiy g'orga yoki tabiiy toshlar o'ymasiga o'xshatib ishlangan, soyada dam olishga mo'ljallangan sun'iy park inshooti; parklarda kulgili qiziqarli joy.

**Guruh** - jozibador park manzarasining muhim kompozistiyasi. Odatda, u soni juft bo'lмаган (11-tagacha) daraxt, buta yoki gul o'simliklarning turli shakllardagi uyushmasidan tuzilgan bo'ladi.

**Dendrariy yoki dendropark** - ochiq joyda aniq reja bo'yicha turli xil daraxt va butalardan tuzilgan maxsus bog' yoki botanik bog'ning bir qismi.

**Dern** – zich o'sgan maysa, tuproqning yuqori qismidagi ko'p yillik o'simliklarning tomiriga biriktirilgan.

**Dizayn** - loyiha ma'nosini beradi. Landshaft arxitekturasida dizayn so'zi "me'moriy muhit dizayni" ma'nosida anglashilib, u ushbu muhitda badiiylik asosida yaratilgan yashil o'simliklar, gulzorlar, suv havzalari, geoplastika, tashqi

obodonlashtirish elementlari, shu jumladan mo'jaz me'moriy shakllar va to'shamalarni ham qamrab oluvchi ijodiy soha.

**Drenaj** – transheya va trubalar tizimi bilan bevosita tuproqlarni quritiladi.

**Dukt** – o'rmon yo'lagi bo'lib, quyuq o'rmonzor va o'rmon parkidagi so'qmoq hamda barokko davridagi parklarda alleya bo'ylab ko'rinish.

**Ikebana** –yapon tilidan tarjima qilganda, “gullarni ikkinchi hayotida saqlash” degan ma'noni berib, yaponiyadagi qadimgi original gullarni bezash san'ati.

**Ippodrom** – Qadimgi Rimda to'rtburchak shaklidagi bir tomoni aylantirilgan bog'.

**Italyancha pandus** – qiyali zinapoya.

**Kartush** - XVII-XVIII asrlarda bog' parteridagi naqsh bo'lib, uning markazida bog' egasining venzel, emblemasi joylashgan.

**Kashpo** – daraxtlar, plastmassa va keramikadan qilingan dekorativ buyum, ochiq havoda va inter'yerda joylashadi.

**Kvartal** - 1) bog' – park kompozistiyasi elementi bo'lib, o'rta asrlarda kiritilgan. 2) o'rmonzor park hududining bir qismi bo'lib, so'qmoqlar bilan chegaralangan.

**Klassistizm** – XVIII - XIX asr boshida badiiy uslub bo'lib, antik va antik san'atiga me'yor va ideal namuna sifatida murojaat qiladi.

**Kariatida** - ustun sifatida foydalanilgan ayol qomatining haykalli tasviri. Agar haykal ustunda erkak qomati tasvirlangan bo'lsa, u atlant deb atalgan.

**Klumba** - ochiq maysazorda doira yoki to'garak tarhda shakllantirilgan daraxtlar va butalar guruhi; XIX asr o'talaridan klumba deb muntazam rejali parklarning yo'laklari kesishgan, binolarning kirish joylari oldida, haykallar tagkursilari yonida ishlangan nisbatan kichik gulzorlarga aytila boshladi.

**Kompozitsiya** - san'at asarining barcha element va qismlari yaxlit bir garmonik tizimda tashkil etish va birlashtirish. Bog'-parkchilik kompozitsiyasi asosan ikki rejaviy va hajmiy qismlardan tarkib topadi. Ranglar nisbati ham kompozitsiyaning muhim elementilaridan biridir.

**Kompartiment** - XVII-XVIII asrlarda bog' va parklarda alohida bog' - park kompozistiyasi hisoblanib, uning qismlaridan butun ansambl shakllangan.

**Konrast** - shakl yoki ranglar orasidagi yaqqol seziluvchi farq, holat.

**Kurdoner** – saroy, ko'shk, qasrlarning bog' ko'rinishdagi hashamatli hovlisi, ko'cha tomonidan siyrak to'siq, qolgan tomonlaridan P-simon tarhlik binolarining qismlari yoki korpuslari orqali to'silgan.

**Kurtina** - 1) dendrariya, botanik bog', o'rmondagi alohida maydon; 2) bir turdag'i 20-90 va undan ortiq bo'lgan daraxt va butalarning yirik guruhi.

**Ko'shk, kiosk** - to'rt ustunli, tomi qubbali yengil qurilma; pavilon; bog' ichidagi zebu-ziynatli ayvon, koshona, saroy, qasr. Kiosk savdoga mo'ljallangan yengil mo'jaz me'moriy qurilma tarzida keng tarqalgan.

**Labirint** - o'rta asr bog'larida baland yashil to'siqlar tarzida qayin yoki jo'ka daraxt va butalardan kuzab ishlangan adashtiruvchi chalkash yo'laklar.

**Landshaft** - ochiq havoda ishlash va dam olish uchun yaratilgan, tarkibi tabiiy (o'simliklar, relyef, tuproq, suv, hayvonot dunyosi) va sun'iy (me'moriy muhandislik inshootlari) ishlanmalar bilan badiiy va ekologik qonuniyatlar asosida shakllantirilgan hudud.

**Landshaft arxitekturasi** - atrof muhitni tabiiy va sun'iy me'morchilik qurilmalari va elementlari yordamida badiiy shakllantirish san'ati; me'moriy faoliyatning alohida turi; landshaft yaratish amaliyotining nazariy asosi.

**Landshaft dizayni** - turli xil landshaft obyektlarini yaratish uchun tuzilgan loyiha; landshaft obyektlarining sun'iy elementlarini badiiy estetik va ekologik qonuniyatlar asosida muayyan funkstiyalargan moslab yaratishga qarilgan ijodiy faoliyat turi.

**Lotok** – oqava suv uchun ochiq chuqurlik

**Luna park** - vazifasi turli xil tomoshalar va ovunmachoq o'yinlarga mo'ljallangan bog' yoki park.

**Lyustgauz** – hashamatli arxitekturaviy pardozlangan, katta besedka shaklidagi bog' paviloni. Atama XVIII asr boshlarida ko'p ishlatilgan.

**Maysazor** - bog'larda ko'p yillik boshoqli o'tlardan ekilgan yashil maydon. Vazifasiga ko'ra maysazorlarning sport o'yinlari maydoni, maxsus vazifalarga va manzarali maydonlarga mo'ljallangan xillari mavjud. Manzarali maysazorlarning parterli, oddiy va yaylovli turlari mavjud.

**Mavritan maysazori** - rang-barang gulli maysazor. Gulli o'simliklar yoki ularning ko'p yillik o'tlar bilan aralashmasidan hosil qilinadi.

**Massiv** - bog'-park hududining parkni tashkil etuvchi o'simliklardan tuzilgan yirik elementi (1-4 gektardan bir necha gektargacha joyni egallaydi).

**Me'morial majmua** - buyuk tarixiy voqealar xotirasiga bag'ishlangan mahobatli inshoot va bog'-parkchilik san'tining yaxlit asari.

**Menajeriya** – qushlarni saqlash uchun uycha. Odatda, u suv havzalari yonida dekorativ ahamiyatda ega.

**Mikrolandshaft** – relyef va suv havzalari bilan bog'liq holda chegaralangan yashil ko'kalamlardan tashkil topgan sun'iy barpo qilingan kompozistiya.

**Miksborder** - erta bahordan to kech kuzgacha gullab turuvchi turli o'simliklardan tuzilgan, odatda yo'laklar, devorlar, yashil to'siqlar yoki pog'onalar bo'ylab ekilgan chiroyli va o'ziga xos gulzor.

**Nimfeya** – Qadimgi Rim bog'larida cho'milish uchun basseynli qimmat bezalgan gumbazli bino, Gretsiyada suvli moslamali soyali grot, atrofi rang – barang o'simliklar bilan o'ralgan.

**Nyuans** - shakl yoki ranglar orasidagi zo'rg'a seziluvchi farq, holat.

**Oranjereya** - issiqxona, ochiq joyda o'smaydigan ekzotik o'simliklarni o'stirishga mo'ljallangan maxsus xona. Parklarda stitrus va boshqa ekzotik o'simliklarni o'stirishga qurilgan bir va bir necha zallik inshoot. XVIII asr Yevropa parklarida oranjereyalar saroylar yonida qurilib, sayr-tomosha maqsadlarida ham foydalanilgan.

**Oroyish** - bezak, pardoz chiroy; bog'- istirohatchilik san'atida bog'lar dizayni ma'nosida anglanadi.

**Pavilon** - bog' yoki parkdagi uncha katta bo'limgan yopiq yengil imorat; ko'shkning suxbatbop mo'jaz bir turi; ko'rgazmalar ko'shki, ko'chada ro'znomalar sotiladigan ko'shklar va xokazo.

**Palestra** – Qadimgi Gretsiyada jismoniy tarbiya mashqlarini bajarish uchun mo'ljallangan maydoncha.

**Palisadnik** - atrofi aylantirilgan uy oldi gulzori.

**Palmetta** – ma'lum uslubga keltirilgan palma bargi, bog' parterini badiiy bezash elementlaridan biri.

**Pandus** - bog'larda zinapoyalar o'rniغا ishlatiladigan qiyali yo'laklar.

**Paradiz** - Eron hukmdorlarining chir atrofini devor bilan aylantirilgan qadimiy dam olish bog'lari shunday nom olgan.

**Park** - bog'-parkchilik san'ati qonuniyatlari asosida shakllantirilgan va aholining dam olishi usun mo'ljallangan yashil massiv. Parklar vazifasiga ko'ra sport, bolalar parkiga, zooparkga, me'morial parklarga va boshqa vazifalarga mo'ljallanishi mumkin.

**Parapet** – uncha baland bo'lмаган devor bo'lib, terrasa, tik jarlik va h.k.larni chegaralash uchun xizmat qiladi.

**Parter** - skverlar, parklarning serhasham joylari, jamoa binolari oldilarini bezovchi manzarali tekis maysazor yoki gulzor maydonlar. Parterda hovuzlar va haykallar ham bo'lishi mumkin. Parterlar gullik, maysalik va jimgimador naqshli xillarga ega.

**Patio** – ispan – mavritan uslubidagi uncha katta bo'lмаган, devorlar bilan o'ralgan berk bog'.

**Peyzaj** - joy yoki tabiat manzarasining umumiy ko'rinishi; hajm-fazoviy tuzilishi jihatidan ochiq, yarim ochiq, yarim yopiq va yopiq manzaralarga bo'linadi.

**Pergola** - chirmoviqlarga burkangan yassi panjarasimon yengil qurilmani ko'tarib turuvchi bir yoki ikki qator ustun, tirkaklardan iborat bog'- park imorati.

**Peristil** – basseyn va favvoralar hamda kolonnadalar bilan o'ralgan, berk tartibli kompoziyasi bilan ajralib turuvchi ichki hovli.

**Plantband** – bog' parterini gullar bilan hoshiyalash.

**Prato** – o'rtalarda shahar tashqarisidagi dam olish va o'ynash uchun ko'llar, katta alleyali maysazorlar ko'rinishidagi jamoat parki.

**Rabatka** - xiyobon, yo'lak bo'ylab ekilgan uzun tasma ko'rinishidagi gulzor; bir yillik o'simliklarning bir yoki bir necha xillaridan ko'p qatorlab ekiladi.

**Ritm** - bog'- parkchilik san'ati obyektlarida turli qiyosiy elementlarning maromiy tarzda takrorlanishi, qaytarilishi.

**Rozarium** - atirgullarning har xil turlari ekilgan park, bog'ning alohida qismi yoki alohida hududi.

**Rokariy** - bog' yoki parklarda gullar va manzaraviy o'simliklarning tabiiy toshlar, suv jilg'alari bilan birgalikda maxsus ishlangan qismi.

**Rosha** - park manzarasining bir xil turdag'i daraxtlar (masalan beryoza, dubrava) ekiladigan yirik (1-1,5 ga) elementi. Rosha daraxt tanalarining orasi ochiq bo'lishi zarur.

**Rotonda** – planda aylana, tosh yoki yogochli kolonnalar bilan ushlanib turuvchi gumbaz bilan yopilgan inshoot.

**Simmetriya-** shakl yoki predmetlarning markazi yo'q chiziqqa, shuningdek tekislikka nisbatan aynan, muqobil joylashuvi, o'zaro o'xshashlik. Simmetriyaning teskarisi assimetriyadir.

**Skver** - shahar ichida uncha katta bo'limgan (to 1-gektargacha) qisqa vaqtli dam olish va ayrim me'moriy komplekslarni bezash uchun mo'ljallangan ko'kalamzor hudud.

**Skansen** – mazkur o'lkaning turli rayonlaridan yig'ilgan etnografik yodgorliklar ochiq havodagi muzeyi.

**Soliter** - alohida o'suvchi chiroyli daraxt yoki buta kompozistiyasi.

**Staffaj** – park landshafti kompozistiyasini jonlantiruvchi, uncha katta bo'limgan janr ko'rinishlari, odamlar figuralari.

**Trilyaj** - tirmashuvchi o'simliklar uchun sinch vazifasini bajaruvchi yengil yog'och panjara yoki boshqa materiallardan ishlangan shunday qurilma.

**Topiar san'ati** - daraxt va butalarni chilpab shakl berish san'ati.

**Usadba** - Rossiya me'moriy ansamblarining o'ziga xos turi. Ularda usadba hududi bog'-park ko'rinishida ishlangan. Usadbada hukmdor saroyi, xo'jalik imoratlari va bog', manzaraviy bog', pavilonlar, suv havzalari, xiyobonlar bo'lган.

**Xiyobon** - bog' qismlarini o'zaro ulaydigan bosh yo'l, ikki yoniga qator daraxtlar, gullar ekilgan, ariqlari yoki favvoralari bo'lgan sayrgoh yo'l. Xiyobon usti ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin.

**Fontan (ital. fontana, lot. fons, fontis – chashma, kalit)** –suvlarning tepaga va pastga yo'naltiruvchi inshoot.

**Xaos** - yirik toshlar va qoyalarning tartibsiz uyumi.

**Ekzotik o'simliklar**- chetdan keltirilgan, mahalliy joyga xos bo'limgan daraxtlar va o'simliklar.

**Qishgi bog'** - ekzotik o'simliklarni o'o'stirishga mo'ljallangan usti oyna bilan yopilgan katta xona, zal yoki shunday zalning bir qismi. Hovuzlar, haykallar, favvoralar bilan bezalishi mumkin.

**Chorbog'** - to'rt tomoni devor bilan aylantirilgan darvozali tarxi kvadrat yoki to'g'ri to'rt burchakli muntazam handasaviy echimga ega, markazida saroy-ko'shk, uning oldida yoki atrofida serhovuz, undan to'rt tarafga ketgan ariqlar, darvozalardan saroygacha xiyobonlar, to'rt tarafda esa chorchamanlar va devorlar uzra yo'llar, manzarali va mevali daraxtlar, gulzorlar va fiovoralar bilan bezalib ishlangan me'moriy sayrgoh bog'.

**Chortoq** - to'rt tomonida toq-ravog'i bo'lgan to'rt burchakli bog' imorati; to'rt tomoni ochiq ravoqli ko'shk.

**Chorchaman** - chorborg'larning muhim tarkibiy qismi, u to'rtta chamandan iborat bo'lib, har bir chaman markazida alohida mevali daraxtlar, ularning atrofida gullar, chaman chetlari bo'y lab esa yo'laklarga soya beruvchi manzarali daraxtlar ekilgan. Chorchamanlar markaziga hovuz, ayrim hollarda hovuz o'rniga ko'shk, shiypon joylashtirilgan.

**Shiypon** - atrofii ochiq, poydevori baland yozlik yengil qurilma, hovli yoki bog' imorati.

**Shpalera** – devor va tayanchga keltirilgan holda qirqilgan past bo'yli daraxt va butalarning zinch qilib ekilishi.

**Ekzotariy** – park yoki bog'ning maydoni bo'lib, u yerda oranjereya kollekstiyasidan vaqtinchalik ochiq tropik ekzotlar kompozistiyasi barpo etiladi.

**Ermitaj** – odatda, parklarning to'rida joylashib fikrlash, xayolotlarga cho'mish va dam olishga mo'ljallangan bino.

**Efemeridalar** - XVIII asrda qo'llanilgan vaqtinchaliy yengil inshoot.

**Yapon bog'i** – bog' – park san'atining an'anaviy asari.